

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK 17- 5A120301- 03**

MAHMUDOV ABDUQAHHOR BURHONJON O'GLINING

**Turkistonda boshqaruv tizimi: muammo va yechimlar
(XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi choragi)**

5A 120301- O'zbekiston tarixi mutaxassisligi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya

**Ilmiy rahbar:
t. f. d., professor A. N. Rasulov**

Namangan – 2017

MUNDARIJA:

Kirish.....	3-11
I bob. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tizimining qaror topishi.....	12-34
1.1. Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi.....	12-21
1.2. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda mustamlaka boshqaruv tizimining joriy qilinishi	21-34
I bob bo'yicha xulosa.	34
II bob. Turkistonda mustamlaka tuzumining mustahkamlanishi: muammo va yechimlar.....	35-80
2.1. Turkistonda boshqaruv tizimining takomillashtirilishi va uning o'ziga xos jihatlari.....	35-48
2.2. Politsiya va sud organlarining tuzilishi hamda vazifalari.....	49-60
2.3. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyat: Turkiston muxtoriyati.....	60-80
II bob bo'yicha xulosa.....	80
III bob. Turkistonda hokimiyatni sovetlar qo'liga o'tishi va yangi tizimni ishga tushishi.....	81-101
3.1. Turkistonda nazorat organlarini tashkil etilishi va ularni sovetlar hokimiyatini mustahkamlashdagi o'rni.....	81-91
3.2. Kadrlar masalasi: ziddiyat va yechimlar.....	91-101
III bob bo'yicha xulosa.....	101
Xulosa.....	102-106
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	
Hlova.....	

Kirish

Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi zamonaviy mustaqil davlat sifatida 1991-yilda tarix sahnasida paydo bo'ldi. Holbuki mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov haqqoniy takidlaganidek "Ma'naviyatni tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga albatta, tarixiy xotira kerak". Mana shu xotirani mumkin qadar to'liq tiklash, xalq g'ururini ko'tarish, uning o'zligini anglashiga turtki berish uchun O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti o'zi tashabbusi bilan chiqdi va yurtimiz tarixi jamiyatshunos alimlari oldiga ma'suliyatli vazifani qo'ydi. O'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida jumladan shunday dedi "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur"¹.

U Rossiya imperiyasi mustamlakachiligini davom ettirgan, sho'rolar hukmronligini ta'minlagan 1924-yilgi siyosiy va ijtimoiy shartnomdan butunlay voz kechdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zlarining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitoblarida shunday jumalani ta'kidlab o'tadilar: "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi"² deb takidlagan.

Rossiya imperiyasi ochiq-oydin mustamlakachilik siyosatini yuritgan, tub xalqlar turmushining kamsitilishini qonunlashtirgan davlat bo'lgan bo'lsa, sovet davriga kelib vaziyat yanada murakkab tus oldi. Sho'rolar davlati mafkurasi baynalmilalchilikka asoslangan bo'lib, bu nazariy jihatdan barcha millat va elatlarga teng huquq va imkoniyatlar berardi, biroq amalda esa Sovet Ittifoqi avvalgi imperiyaning vorisi sifatida u davlat tuzilmalarining avvalgi hukmronligini rivojlantirdi va mustahkamladi, mintaqa iqtisodini xom ashyo yetishtirishga yo'naltirdi, milliy madaniyat va qadriyatlarni oyoq osti qildi, rus tilining rasmiy til

¹ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 24-25.

² Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 5.

sifatidagi yetakchi mavqeyini mustahkamlab, mahalliy xalqlarga nisbatan ruslashtirish siyosatini va shafqatsiz jazo tadbirlarini amalga oshirgan.

Mustaqillik yillari O'zbekiston uchun milliy davlatchilikni tiklash, jamiyatni demokratiya asosida qayta qurish va hokimiyat funkstiyalarini taqsimlash tamoyillarini ishlab chiqish, shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash, erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun asos bo'luvchi poydevorni qurish bo'yicha mashaqqatli mehnat qilish davri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2016-yil yakunlarida “eng avvalo yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, johon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish ustufor vazifalardan hisoblanadi”³, deb takidlab o'tdi.

Har qanday jamiyat hayotida bunday tub, olamshumul o'zgarishlar bosqichma-bosqich, ba'zan bir necha o'n yilliklar va hatto asrlar davomida amalga oshadi. Shu bois tarixiy o'tmish saboqlarini hisobga olmasdan, mintaqamizdagi xalqlarning tarixiy tajribasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, shu jumladan, O'rta Osiyo davlatchiligi tajribalarini o'rganmasdan, bugungi kunda buyuk deb ta'riflash mumkin bo'lgan hozirgi islohotlarning mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish va baholash mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov takidlaganidek: “Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi”⁴. Birinchi Prezidentimiz “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarida “O'z tarixini bilmaydiga, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q”⁵. Shu maqsadda I.A. Karimovning tarix fani vakillari bilan uchrashuvidagi suhbatlarida ushbu fanning dolzarb muammolari muhokama qilinib, ijtimoiy taraqqiyotning qonuniyatlarini

³ Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 47.

⁴ Каримов И. А. Ўзбекистон XIX аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон», 1997. – Б. 140.

⁵ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 4.

chuqur o'rganish, O'zbekistonda davlatchilikning qaror topishini ta'minlangan tarixiy sharoitlarga aniqlik kiritish, Podsho tuzumi va sovet tuzumlarining bu jarayonlarga salbiy ta'siri omillarini aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratish mavzuning dolzarbligidir.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. Tadqiqotning predmeti XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya – Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnash kelishi va raqobatda ruslar qulining baland kelishi, Podsho Rossiyasi tomonidan Turkistonni mustamlakaga aylantirilishi uni boshqarish to'g'risida 1865-1886-yilgi nizomlarni ilmiy jihatdan tahlili qilish, Podsho tuzumiga qarshi xalq norozilik harakatlarini yoritish, Rossiyadagi ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar va ularning o'lkamiz hayotiga ta'siri, o'lkadagi agrar, industrial siyosat negizlarini, mustamlaka tizimning harbiy xalq boshqaruviga asoslanganligini yoritish ilmiy ishning asosiy predmeti hisoblanadi. Tadqiqotning ob'yekti qilib O'zbekiston tarixiga oid asosiy adabiyotlar va monografiyalardan foydalangan holda Podsho Rossiyasi mustamlaka tuzumi tarixini o'rgangan bir qator monografiyalari va alohida ajratib olingan manbalar ilmiy tadqiqot ishining asosiy obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ular ongida milliy istiqlol tafakkurini va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda Tarix fanining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir. Tarixiy o'tmishsiz biror-bir xalqning buguni bo'lmagan va kelajagi ham bo'lmaydi. Tarix fani odamlarni uylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni farqlash tahlil qilish va ulardan amaliy va hayotiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

XIX asrning 40-yillarida Podsho Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy yurishlar rejasi qabul qilinishi va shu rejaning uzoq tarixga ega ekanligi o'quvchilarning ongiga singdirilar edi “Turkistonda mustamlaka tizimi: muammo va yechimlar (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr birinchi choragi)” deb nomlagan mazkur tadqiqotni o'rganish davrida Podsho Rossiyasi qo'shinlarining Turkistonni bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy

sabablarini, o'lkalarining o'z ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan kurashlari va bu yo'lda bergan qurbonlarini, bosqinchilar tomonidan qilgan vahshiyliklarni, harbiy muvaffaqiyatlar zo'rovonlik bilan qo'lga kiritilganligini ochib berish, ularning asosiy maqsadi O'rta Osiyo xonliklarini arzon xom ashyo yetkazib beruvchi o'z mustamlakasiga aylantirish, Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruv tizimi joriy qilinishi, ma'muriy-hududiy bo'linishi, Podsho tuzumi qo'shinlarining O'rta Osiyo xonliklariga bostirib kirishning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sabablarini o'quvchilarga yanada chuqurroq anglab olishlari uchun krepostnoy huquqining bekor qilinishi, bozor iqtisodi sanoatining, birinchi navbatdagi to'qimachilik sanoatining rivojlanishi, 1860 – 1917-yillarda Rossiyada kapitalistik islohatlarining rivojlanganligi XIX asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyo xonliklariga Rossiya imperiyasining tajavuzkorlik siyosati, hokimiyatni sovetlar qo'lga o'tishi va yangi tizimni ishga tushishi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishi va Turkiston o'lkasini mustamlakaga aylantirilishi, Turkiston General-gubernatorligining tashkil etilishi, Imperiya manfaatlariga mos boshqaruv tuzimining joriy qilinishi, politsiya, sud-huquq tizimidagi o'zgarishlar, XX asrning birinchi choragidagi o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va Turkiston muhtoriyatining tashkil qilinishi, boshqaruv sohasidagi kadrlar muommosini yoritish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy masala va farazlar hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati va Sovetlar hukumronligi davrida Turkistonda davlat boshqaruv tuzumini o'rnatilishi jarayonini o'rganilishi ko'plab tadqiqotchilar o'rtasida katta qiziqishga sabab bo'lib kelmoqda. Tarixiy adabiyotlarning kompleks tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiq etilayotgan mavzu bir necha bor ilmiy o'rganish obyekti bo'lib kelgan. U asosan mafkuraviy tazyiq ostida o'rnatilgan. Metodologik yondashuvlarning xarakteriga Turkistonda XIX asr oxiri XX asr

birinchi choragida boshqaruv tizimi o'rnatilishi u yoki bu darajada yorituvchi ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid adabiyotlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik davrida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar.

Mavzuga oid **birinchi guruh adabiyotlariga** Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga mustamlakachilik harakatlarining amalgam oshirishda qatnashgan harbiy va davlat amaldorlarining kudaliklari va o'sha davr muarrixlarining asrlarini keltirish mumkin. Jumladan, N.I. Kraft, V.N. Kaplun, S.N. Tregubov, Fioletev, M. A. Trentev, A.I. Dobrosmislov, I. Livov, L.F. Kostenko, N. Frideriks, Y. Tolbuxov, V.A. Rozenbax⁶ kabilarni keltirish mumkin.

Mavzuga oid **ikkinchi guruh adabiyotlar** ro'yhatiga P. G. Galuzo, V. V. Bartold, Mustafó Cho'qayev, S.R. Rajabov, H. Ziyoyev, N.A. Xalfin, G. Safarov⁷ kabi muallifni asrlarini keltirish mumkin. Yuqorida keltirib o'tgan sovet davri adabiyotlarda Turkistonda sovetlar hokimiyatini o'rnatilishi, yangi tizimni ishga tushishi va nazorat organlarining joriy qilinishi haqida keng ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Turkistonda boshqaruv tizimiga oid **uchinchi guruh adabiyotlarga** mustaqillik yillarida tariximizni jumladan, Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotni keng yoritilgan asarlar yaratild. Istiqlolo davrida olib borilgan tatqiqodlarda Rossiya imperiyasi va sovetlar davridagi Turkiston o'lkasida joriy qilingan boshqaruv tizimi, bu siyosatga

⁶ Львов И. Завоевание Туркестана. Д. И. Романовского. – Спб., 1868 г. // Русский вестник, - №7, 1868.; Костенко Л. Ф. Туркестанские войска и условия их бытовой походной и боевой жизни // Военный сборник. - № 5, 1875; Фридерикс Е. Туркестан и его реформы, Из записок очевидца // Вестник Европы, - №6, 1869.; Крафт Н. И. Судебная система в Туркестанском крае и степных областях. – Оренбург, 1896; Каплун В. Н. Положение об управлении Туркестанского края. – Т., 1903; Трегубов С. Н. Пракурорский надзор в народном суде Туркестанского края // Журнал Министерства юстиции. - № 11–12. – Спб., 1903; Терентьев М. А. История завоевания Средней Азии. – Спб., 1906; Фиолетов Н. Судопроизводство в мусульманских судах Средней Азии, Суды казиев. – Т., 1910; Добросмыслов А. И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Т., 1912.; Толбухов Е. Скобелев в Туркестане (1869-1877) // Исторический вестник. - №12, 1916 ; Розенбах В. А. Записки // Русская старина, - №5. 1916;

⁷ Галузо П. Г. Туркистан – колония – Т., 1929.; Ражабов С. Р. Рол великого русскога народа в исторических судьбах народов Средней Азии. – Т., 1955.; Бартольд В. В. Соченения II том (Общие работы по истории Средней Азии, Работы по истории кавказа и восточной Европы). – Москва, 1963.; Х. З. Зиёев. Средня Азия и Поволжье – Т., 1965; Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии. – М., 1974.; Мустафа Чокаев Туркистон под властью Советов. – Оксфорд, 1986;

qarshi mahalliy millat vakillarining milliy ozodlik harakatlarining vujudga kelishi jarayonlari, boshqaruv sohasida kadrlar muammosi masalalari atroflicha o'rganilgan. Mustaqillik yillarida tatqiqod olib borganlar sirasiga F. Isxakov, N.A. Abduraximova, G. Rustamov, F. Ergahev, A.N. Rasulov, D. Nasretdinova, H. Ziyoyev, Q. Rajabov, M. Haydarov, D. Ziyoyeva, J. Ismoilova, S. Azamxo'jayev, F. Ahmadjonov, B. Eshov kabilarni misol qilib keltirish mumkin⁸.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertasiyasidan kasb hunar kollejlari va akademik liseylarda "O'zbekiston tarixi" fanidan hamda oliy o'quv yurtlari Tarix yo'nalishi talabalari uchun "O'zbekiston tarixi" va "O'rta Osiyoda davlat muassasalari" fanlaridan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda asosan o'zbek davlatchiligining shakllanish bosqichlarining uzviy davomchisi bo'lgan XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik boshqaruvining o'rnatilishi hamda uning bevosita merosxo'ri bo'lgan sobiq totalitar tuzumning o'rnatilishi, davlat boshqaruv siyosiy, nazorat organlarini shakllanishi jarayonini ochib berishdan iborat. Jumladan:

- O'rta Osiyoni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi;
- Turkiston General-gubernatorligini tashkil etilishi;

⁸ Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX-первой четверти XX в.в. – Т.: Университет, 1999.; Азамхўжаев С. Туркестон Мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.; Зиёева Д. Туркестон миллий озодлик ҳаракати (Мустабит тузумга қарши 1916 йил ва 1918-1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.; Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (Миллоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Т.: Шарқ, 2001.; О'ша муаллиф. Туркестонда Россия тажовузи ва ҳукумронлигига қарши кураш (XVIII-XX аср бошлари) – Т.: Шарқ, 1998.; Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркестонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002.; Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркестон тарихи (1917-1924 йиллар). – Т.: Университет, 2002.; Исmoilова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг "Янги шаҳар" қисми тарихи. – Т.: Fan va texnologiya, 2004.; Расулов А. Туркестон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар (1917-1924 йиллар). – Т.: Университет, 2005.; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.). – Т.: ART FLEX, 2009.; Эшов Б. Ўзбекистонда Давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: янги аср авлоди, 2012.; Насретдинова Д. Туркестон маданият ҳаётида татар аёллари. – Т.: Yangi nashr, 2015.

- Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy boshqaruv tizimi;
- Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy boshqaruvi;
- Turkiston general-gubernatorligining politsiya va sud tizimi va ularning vazifalari;
- Turkistonda hokimiyatni Sovetlar qo'liga o'tishi va yangi tizimni ishga tushishi;
- Turkiston Muhtoriyatining tashkil topishi va ayanchli taqdiri;
- ishchi-dehqon militsiyasining tashkil topishi va uning vazifalari;
- kadrlar masalasidagi muammoli holatlar tadqiqot jarayonida yoritib berilgan.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqot ishiga oid manbalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar hukumronligini o'rnatilishiga oid mahalliy manbalar.

2. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar hukumronligi davrida Turkiston o'lkasida bo'lgan rossiyalik elchilar, harbiy qo'mondonlar, sayyoh olim va boshqa shaxslarning xotiralari, rasmiy xabarlar va tarixiy asarlari.

Birinchi guruh manbalariga – O'rta Osiyoda yashab ma'rifatparvarlik bilan shug'ullangan jadidlar, tarixchi olimlar asarlarini keltirish mumkin. Jumladan: Mustafó Cho'qay o'g'li "Istiqlol jallodlari"⁹, Ismoilbek Gasprinskiy (Gasprali) "Hayot va mamot masalasi"¹⁰, Amir Sayyid Olimxon "Buhoro xalqining hasrati tarixi"¹¹, Ahmad Zakiy Validiy To'g'on "Bo'linganni bo'ri yer"¹², Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy "Tarixi johonnomoyi"¹³, X. N. Tursunov "1916-yilda O'rat Osiyo va Qozog'istonda qo'zg'olon"¹⁴, Fayzulla Xo'jayev "Buhoro

⁹ Мустофо Чўқай ўғли Истиқлол жаллодлари (1917 йил хотиралари). – Т.: Ғофур Ғулом номидаги Нашриёт-матба бирлашма, 1992.

¹⁰ Исмоилбек Гаспринский (Гаспрали) Ҳаёт мамот масаласи (Қосимов Б. Сўз боши муаллифи). – Т.: Маънавият, 2006.

¹¹ Амир Саййид Олимхон Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т.: Фан, 1991.

¹² Аҳмад Закий Валидий Тўғон Бўлинганны бўри ер (Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан хотиралар). – Т.: Адолат, 1997.

¹³ Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамои /Форс-тожик тилидан Ш.Воҳидов таржимаси // Шарк юлдузи. – Тошкент, 1991. – №8.

¹⁴ Турсунов Х. Т. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. – Т., 1962.

Inqilobining tarixiga materiallar”¹⁵, Fitrat “Tanlangan asarlar”¹⁶, Cho’lpon “Go’zal Turkiston”¹⁷, Shahobiddin Yassaviy Ismoilshayx o’g’li “Turkiston achchiq haqiqatlar”¹⁸ kabi asarlarda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi siyosiy jarayonlar haqida ham qimmatlai ma’lumotlar mavjud.

Turkistonda boshqaruv tizimi, o’lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi **ikkinchi guruh manbalari** tarkibiga Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar davrida o’lkada bo’lgan rus harbiylari, sayyoh olimlar, hukumatining alohida topshirig’i asosida tashrif buyurgan elchilar, rasmiy shaxslar Turkiston haqidagi esdaliklari, rasmiy xabarlari, ilmiy asarlarini kiritish mumkin. Ular orasida V.V. Bartold, A.F. Middendorf, Y.K. Mihaylovskov, A.N. Kurapatkin, D.I. Romanovskiy, I.I. Kraft, N. Fioletov¹⁹, asarlari va esdaliklarini alohida qayd etish lozim. Ularda asosan Turkiston o’lkasini bosib olinishi, mustamlaka tizimini o’rnatilishi, mustabid tuzumga qarshi xalq noroziliklari, qimmatlai ma’lumotlar mavjud.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Magistrlik dissertasiyasini yoritish jarayonida O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevlarning asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o’rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e’tibor qaratishga oid g’oyalari nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e’tibor qaratildi.

¹⁵ Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. Т.: Фан, 1997.

¹⁶ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар 1-2 жилд. – Т.: Маънавият, 2000.

¹⁷ Абдулхамид Чўлпон. Гўзал Туркистон. – Т.: Маънавият, 1997.

¹⁸ Шахобиддин Яссавий Исмоилшайх ўғли. Turkictan acciq haqiqatlari. – Истамбул, 1984.

¹⁹ Романовский Д. И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. – Спб., 1868.; Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882.; Крафт И. И. Судебная часть в Туркестанском крае. – Оренбург, 1898.; Фиолетов Н. Судопроизводства в мусульманских судах Средней Азии. –Т., 1928.; Куропаткина А. Н. Из дневника. Восстание 1916 г. в Средней Азии // Красный архив, №3. 1929.; Бартольд В. В. Соченения II том (Общие работы по истории Средней Азии, Работы по истории кавказа и восточной Европы). – Москва, 1963.; Бартольд В. В. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – Москва, 1964. Михайловского Е. К. Прогресс Бухарского ханства зависит исключительно от России Докладная записка. 1912 г. // Исторический архив, №3. 2006.

Tadqiqotning metadalogik asosini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlari, maruza va nutqlarida ilgari surilgan uslubiy, ilmiy nazariy ko'rsatmalari muhim ro'l o'ynadi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara sifatida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini mustamlakaga aylantirish davri XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragidagi davlat boshqaruv tizimi olingan.

Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertasiyasi ishi kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Magistrlik dissertasiyasi hajmi 100 betni tashkil qiladi.

I bob. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tizimining qaror topishi

1.1. Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi

Turkiston o'lkasining uch xonlikka bo'linib ketishi uning nafaqat siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy tanazzulga yuz tutishiga olib keldi, mamlakatni boshqarib boradigan davlatchilik asoslarining zaiflashib ketishiga, bir millat va diniy e'tiqodga ega bo'lgan mintaqada mahalliychilikni kuchayib ketishiga ham sabab bo'ldi. XIX asrning 50-yillarida Turkiston xar tomonlama inqirozga uchragan hudud edi. Bu inqiroz boshqa mamlakatlar ta'siri ostida emas, balki asta-sekinlik bilan o'zaro ichki nizolar orqali pishib yetilgan edi.. Inqiroz o'lkani Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishini tezlashtirdi va imkoniyat yaratdi. Rossiya imperiyasining Turkiston boyliklariga qiziqish Pyotr I davrida boshlangan bo'lib, bosqinchilikga tayyorgarlik bir yarim asr davom etdi²⁰. XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya – Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Ularning har biri o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar olib borayotgan Buyuk Britaniya Rossiyaning Turkistonga kirib kelayotganidan xavfsiramoqda edi.

Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan josuslik ma'lumotlarini to'plash maqsadida, 1831–1833-yillarda yuborilgan leytenant Aleksandr Byorns Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga go'yo sayyoh sifatida kelgan. U yig'ilgan dallilar va shaxsiy kuzatuvlar asosida uch jildlik “Buxoroga sayohat” nomli kitob yozgan. Bu asarida Turkiston haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiragan.

Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qilgan. 1841–1842-yillarda Angliya hukumati mayor Konollini Xivaga, polkovnik Stoddartni Buxoroga maxsus missiya bilan yuborgan. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida bo'lib, Rossiya tajovuzidan saqlanish uchun uchta xonlik bir-birlariga yordamlashishini, kuchlarini

²⁰ Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. – T.: Taffakkur-bo'stoni, 2011. – B. 110.

birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin bilan yordam berishga va'da qilganlar. Biroq rasmiy hujjatlarni bo'lmagani sababli amir Nasrullo ularni zindonga tashlatgan. Bularni qutqarish uchun Angliya tomonidan Turkiya homiyligida mayor Volf Buxoroga yuborilgan, ammo uning 1843–1845-yillarda Buxorodagi urinishidan ham natija chiqmadi, zindondagilar qatl etilgan. Volfning o'zi zo'rga qochib qutilgan. Shuningdek, 1843-yilda Xivaga kelgan kapitan Ebbot ham Angliya manfaatlari yo'lida ishlagani ma'lum. Ost-Indiya kompaniyasi O'rta Osiyo bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossiya tovarlarini siqib chiqarishini ta'minlashga zo'r berdi. Bu borada ular Hind va Eron savdogarlaridan ham keng foydalangan. Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirish va uni egallashga intilishi Rossiya impreyasini tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo'lganidan foydalanib, harbiy harakatlarni boshlab yuborgan. Rossiya imperiyasining Orta Osiyoni bosib olishi tarixiy nuqtai nazardan unchalik ko'p vaqtga cho'zilmadi. 1865–1895-yillarda kechgan istilochilik jarayoni o'zaro sarxadlari belgilab olinmagan O'rta Osiyo xalqlarini imperiyaga mute bo'lishiga olib keldi²¹.

Xonliklarning shimoliy-g'arbiy hududida Orenburg General-gubernatori Perovskiy katta qo'shin bilan 1853-yilda Qo'qon xonligining strategik ahamiyatga molik bo'lgan Oqmasjid (hozirgi Qizilo'rda) qal'asini bosib olgan. Rus manbalarida keltirilishicha, Oqmasjid qamalining dastlabki kunlaridanoq qal'a qo'mondoni Muhammad Vali halok bo'lgan. Qal'a himoyachilaridan 230 kishi talofat ko'rdi, 74 kishi asir olindi, 35 kishi yarador bo'ldi. Qamal jarayonida ruslardan jami 106 kishi halok bo'ldi va yaralandi²². 1855–1857-yillardagi Qrim urushi munosabati bilan Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni zabt etish bo'yicha katta miqyosdagi harbiy harakatlarni olib bormagan²³. Xonliklarning shimoliy-sharqiy tomonidan esa Sibir General-gubernatori Gosford 1860-yilda Qo'qon xonligi hududiga qarashli harbiy istehkomlarga hujum qilib, To'qmoq, Pishpak va boshqa

²¹ Аҳмаджонов Ф. А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 24.

²² Русское знамя в Средней Азии // Исторический вестник, № 8. – СПб., 1899. – С. 107.

²³ Shamsiddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari) ikkinchi kitob. – T.: «Sharq», 2010. – B. 154-155

qal'alarni birin-ketin bosib ola boshlagan. Perovski va Gosfordlarning harbiy harakatlari amalda Rossiya impreyasining O'rta Osiyoga e'lon qilinmagan bosqinchilik yurishining boshlanishi edi. Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksandr II tomonidan 1859 va 1861-yillarda o'tkazilgan kengashida muhokama qilingan va birinchi navbatda Qo'qon xonligini qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilingan.

1864-yil may oyida Qo'qon xonligi hududiga sharq tomondan Chernyayev qo'mondonligidagi Rossiya qo'shinlari, g'arbdan Verevkin qo'shinlari bostirib kirgan. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlari: Avliyoota, Suzoq, Turkiston egallangan. Bosqinchilar 1864-yil 14-iyulda Chimkentga yurish boshlagan. Bu orada Qo'qon xoni Sulton Sayyidxon va Alimquli Amirlashkar bor kuchlarini to'plab, Chimket atrofida jangga tayyorlangan. Uch kun davomida qattiq jang bo'lgan. Jangda Alimquli Amirlashkar qo'shinlari g'olib chiqqan, Chernyayev qo'shinlari jangda yengilib, orqaga chekinishga majbur bo'lgan. Alimquli Amirlashkar o'z qo'shinlarini bosqinchilar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun jangga tayyorlayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligi hududlariga bostirib kirganligi to'g'risida xabar olingan. Alimquli Amirlashkar o'z qo'shinini bosqinchilarga emas, Buxoro amiriga qarshi Qo'qonni himoya qilishga otlantirishga majbur bo'lgan. Vaziyat Chernyayevga qo'l keldi, uning qo'shinlari Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'shib, 1864-yil 14-sentabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtirdi va shaharni bosib olgan.

Mansab va unvonlarga o'ch Chernyayev 1864-yil 2-oktabr kuni Toshkentga hujum boshladi. Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik, muhim strategik ahamiyatga molik shaharlaridan bo'lib, 100 ming atrofida aholi yashagan. Shahar Shayxontoxur, Sebzor, Beshyog'och va Ko'kcha dahalariga bo'lingan. 12 darvozasi, 189 masjid, 10 madrasasi mavjud bo'lgan. Toshkent uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7 metr bo'lgan devor bilan o'rab olingan edi. Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyayev qattiq mag'lubiyatga uchradi, jangda 72 zobit va askarni yo'qotgan. Chimkentga

qaytishga majbur bo'ldi. Urush davrida Toshkentning zodogon boylari mudofaachilarni qo'llab turdilar. Toshkentlik Qozoqbek Dodhoh o'g'li mulla Solihbek Oxund (1812–1867-y.) butun boyligini Toshkent mudofasi uchun sarflab, 45 kunlik qamal chog'ida xalqni moddiy jihatdan qo'llab turgan²⁴.

Chernyayev 1864 – 1865-yil qishini harbiy tayyorgarlik bilan o'tkazgan. Uning qo'shinlari Sibir va Orenburgdan yetib kelgan qurol-yarog', yangi batalyonlar, sapyorlar rotalari bilan to'ldirilgan. 1865-yil bahoridan Chernyayevning yangi hujumi boshlangan. 1865-yil 29-aprelida kuni Niyozbek qal'asi taslim bo'lgan²⁵, Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovuz anhoriga Chirchiq daryosidan suv chiqarib beruvchi to'g'onni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldirilgan. Alimquli Amirlashkar katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga yetib kelgan. Toshkent uchun shiddatli janglar bo'lgan. Alimquli Amirlashkar og'ir yaralandi va halok bo'lgan. Nihoyat shahar himoyachilarining qarshiligi sindirilgan, 15-iyun kuni Chernyayev Toshkentni zabt etgan. 17-iyunda Chernyayev Toshkentning nufuzli kishilari bilan muzokara olib boradi va zo'ravonlik bilan shahar o'z ixtiyoriga ko'ra rus qo'shinlariga taslim bo'lgani, shahar aholisi o'z dinida qolishi, ishlar shariat asosida olib borilishi, hovli va bog'lar o'z egallari qo'lida qolishi to'g'risida ikki tomonlama ahdnoma imzolangan. Toshkent Rossiya imperiyasining tarkibiy qismiga aylantirilgan. Natijada Orenburg General-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuzilgan, uning harbiy gubernatori etib general Chernyayev tayinlangan.

1866-yil 28-yanvarda Chinozdan Sirdaryo tomonga 14 rota askar, 600 kazak, 16 ta to'pdan iborat harbiy otryad safarbar qilingan²⁶. Lekin Chernyayev boshchiligidagi Jizzaxga uyushtirilgan ushbu hujum mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng O'zboshimchaligi uchun Chernyayev Sankt-Peterburga chaqirib olingan, o'rniga general Romanovskiyy tayinlangan. Romanovskiyy Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshlashga tayyorgarlik

²⁴ Ахмаджонов Ф. А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Т.: Таълим мабаи, 2003. – Б. 10

²⁵ Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда (Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбедейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари). – Т.: Фан, 2009. – Б. 298.

²⁶ Завоевание Туркестана. Заметки по среднеазиатскому вопросу, Д. И. Романовского // Русский вестник, № 7. – СПб., 1868. – С. 165.

koʻrgan. Rossiya imperiyasi qoʻshinlari tomonidan Qoʻqon hududlari bosib olinayotgan bir paytda Buxoro amiri tomoshabin boʻlib turgan boʻlsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan paytda Qoʻqon xoni Xudoyorxon sukut saqlab turgan. 1866-yil 8-mayda general Romanovskiyning Erjar tomon yurishi Buxoro qoʻshining magʻlubiyati va istehkomlashtirilgan oʻrdaning qoʻlga kiritilishi bilan tugagan²⁷. Amir Jizzaxga qochishga majbur boʻladi. Romanovski yurishni Xoʻjand tomonga yoʻnaltirgan, 1866-yil 19–22 may kunlari boʻlgan qattiq janglar natijasida Xoʻjand egallangan. 1866-yil avgustda Orenburgdan General-gubernator Krijanovski Toshkentga kelgan va Romanovski bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlangan. Katta qoʻshin yordamida 1866-yil oktabrda Oʻratepa viloyati, Zomin qalʼasi bosib olingan. Jizzax uchun katta jang boʻlgan. Jizzax shahri balandligi 4 metr va eni 3 metrlik ikki qavat devor bilan oʻrab olingan boʻlib, qalʼaga oʻxshash mudofaga ega edi. Shaharda 10 ming himoyachi askar, 53 toʻp bor edi. Himoyachilar shaharga kirib chiqadigan darvozalarni tuproq bilan koʻmib tashlab jang olib borganlar. Nihoyat 11–18 oktyabr kunlari boʻlgan jang natijasida bosqinchilar Jizzaxni egallagan.

Aleksandr II 1867-yil 14-iyulda Turkiston General-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugini tuzish toʻgʻrisida farmon bergan. General-gubernator va okrug qoʻmondoni etib general-adʼyutant K. P. fon Kaufman tayinlangan. Unga urush eʼlon qilish, sulh tuzish, harbiy-maʼmuriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan. Shu boisdan u “Yarim podshoh” deb etirof etilgan. Bu tadbir Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi yoʻlidagi harakatida yangi bosqich boʻlgan.

Kaufman navbatdagi yurishni Samarqandga tomon boshlagan. 1868-yil 1-may kuni shahar yaqinidagi Choʻponota tepaligida Buxoro amiri qoʻshinlari bilan jang qilib, ularni osongina magʻlubiyatga uchratgan, dovrugʻi olamni tutgan Samarqand 2-may kuniyoq deyarli jangsiz dushmanga taslim boʻlgan.

Buxoro amiri oʻz qoʻshinlarini toʻplab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon yurgan. Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon yurish

²⁷ Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. – Т.: Нур, 1992. – Б. 30.

qilgan. Ikki tomon qo'shinlari Zirabuloqda 1868-yil 2-iyunda to'qnashgan, qattiq jang natijasida amir qo'shinlari tor-mor etilgan. Bu orada Samarqandda istilochilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Shahrisabz va Kitob hokimlari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27-may kuni Samarqandga qo'shin bilan yetib kelib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda Kaufman tomonidan Samarqandga qoldirilgan polkovnik Nazarov va mayor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang qilganlar. Jang 8 kun davom etgan. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 ta askar qirib tashlangan va yarador qilingan. Samarqanddagi voqealardan xabar topgan Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib kelgan va 8-iyun kuni shaharni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni yondirishga buyrug' bergan. Aholi qirg'in qilingan, masjidlar va tarixiy yodgorliklar yondirilgan, qadimiy noyob moddiy va ma'naviy obidalar Peterburga olib ketilgan.

1868-yil 23-iyunda Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolangan. Buxoro amirligi Rossiya impreyasining vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan davlatga aylantirilgan. 1868-yil 28-iyunda Zarafshon okrugi tashkil etilgan²⁸. Sulhga binoan, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgan, amir 125 ming tilla (500 ming so'm) tovon to'lash majburiyatini olgan. To'lanadigan tovon pulidan 10 ming tilla zudlik bilan undirilgan²⁹. Bunday bosqinchilik, talonchilik asoslangan sulh aholining yuqori tabaqa vakillarining nafratini kuchaytirdi. Abdumalik, Jo'rabek va Bobobek kuchlari nafaqat bosqinchilarga, shuningdek, amir Muzaffarga qarshi ham qaratilgan edi. Ular Abdumalikni amir deb e'lon qilganlar. Amir Muzaffar endi bosqinchilarga emas, Kaufman yordamida o'z vatandoshlariga qarshi urushga kirishgan va 1870-yil avgustida ularni kuch bilan bostirib, o'z taxtini saqlab qolgan. Shahrisabz va Kitob beklilari amirlik tarkibida qolgan.

²⁸ Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. – Т.: Нур, 1992. - Б. 31.

²⁹ Аваз Муҳаммад Аттор Ҳўқандий. Тарихи жоҳономаи // Шарқ юлдузи , № 8. 1991. – Б. 139.

Kaufman 1873-yil bahorida 12 mingdan ortiq zobit va askar, 56 to'p-zambaraklar bilan Xiva xonligiga yurish boshlagan. Ayni paytda Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishloq, Krasnovodsk, shuningdek, Kavkaz okrugi qo'shinlari ham yurishga kirishgan edi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II bosqinchilarga qarshi o'z qo'shinlarining bir qismini Muhammadmurod devonbegi boshchiligida Chorjo'y tomonga, yana bir qismini amir To'ra boshchiligida Xazoraspga, yana bir qismini Eltuzar inoq boshchiligida Qo'ng'iro't tomonga, Inoqbek boshchiligidagi qismni Xo'jayliga safarbar etgan. Amudaryo bo'ylarida qirg'inbarot janglar bo'lgan. 1873-yil 18-may kuni Kaufman otryadlari Amudaryodan o'tib Xazorasgni egallagan, Qo'ng'iro't va Xo'jayli shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etilib, talangan. Istilochi qo'shinlar Xivaga yaqinlashib qolganda Muhammad Rahimxon poytaxtni tashlab chiqqan va turkman ovuliga yashiringan. Xivalik Otajon to'ra Kaufman huzuriga kelib shaharni vayron etmaslikni so'ragan. Kaufman shaharni zabt etib, Otajon to'raga xonni topishni buyurgan va xon xazinasini, moddiy-ma'naviy boyliklarni qo'lga kiritadi.

Harbiy yurishlarda ishtirok etgan rus harbiylarining esdaliklariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayrim ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Xivaga qarshi harbiy yurishda ishtirok etgan polkovnik Kolokolsevnig kundaliklarida Jizzaxdan Xivaga qadar Rossiya qo'shinlarining Turkiston harbiy okrugi yo'nalishidagi harbiy harakatlari qayd etib borilgan. Ushbu kundalikda rus qo'shinlarining Xivaga 28-may kungi dastlabki hujumida ko'rilgan talofatlarni aniq keltirgan. Unda keltirilishicha, ruslardan jami 40 kishi (shundan 4 tasi halok bo'lgan, qolganlari esa yaralangan) talofat ko'rdi, bundan tashqari 2 ta shtab-ofitseri, 6 ta ober-ofitser va bir necha otryad rahbarlari yaralangan³⁰. Boshqa bir manbada keltirilishicha, ushbu hujumda halok bo'lganlar 4 kishi (1 tasi ofitser), yaradorlar 41 kishi (shular qatorida general Veryovkin va 6 ta ofitser)ni tashkil etgan³¹.

³⁰ Экспедиция в Хиву в 1873 году. От Джизака до Хивы. Походный дневник полковника Колокольцова // Военный сборник. – СПб., 1873. – С. 67.

³¹ Скобелев в Туркестане (1869-1877) // Исторический вестник. № 10, 1916. – С. 114.

1873-yil 12-avgustda Xivaga yaqin Gandimiyon qishlog'ida Kaufman bilan Muhammad Rahimxon II uchrashuvi bo'ldi³². Bu yerda tarixda Gandimiyon shartnomasi deb nom olgan shartnoma imzolangan. Shartnomaga muvofiq Xiva xonligi Rossiyaning vasaliga aylantirilgan. Amudaryo quyi oqimining o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgan, xonlikka 2 million 200 ming so'm tovon to'lash yuklatilgan, Rossiya savdogarlari Buxoroda erkin savdo qilish huquqini, Amudaryo chap qirg'og'ida savdo omborlari qurish huquqini qo'lga kiritganlar³³.

Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishgan. Bu vaqt Qo'qon xonligida xokimiyat uchun ichki kurash avjga chiqqan edi. 1868-yil 13-fevralda Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida shartnoma imzolangan bo'lib, xonlikning istilochilar bosib olgan hududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Rossiya savdogarlariga Qo'qon xonligining barcha hududlarida hech qanday moneliksiz faoliyat yuritish, karvonsaroylarga ega bo'lish huquqi berilgan edi. Bu shartnomadan qoniqmagan kuchlarning Xudoyorxondan noroziligi ortib borgan. Buning ustiga xonlik hududi qisqarganligini ro'kach qilib, xazinani to'ldirish uchun yangi-yangi soliqlar joriy etilgan. Xudoyorxon bosqinchilarga o'zini yaqin tutar, Qo'qon bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga harakat qilgan. Bunday vaziyat Farg'ona vodiysida Xudoyorxonga qarshi g'alayonlarni keltirib chiqargan. Qozg'alonghilarining bir qismiga mullo Is'hoq boshchilik qilgan, o'zini Qo'qon xoni Olimxonning nabirasi Po'latxon deb e'lon qilgan. Xonlikda Xudoyorxonning o'g'illari Nasriddinbek va Muhammad Aminbek, ukasi Sulton Murod, nevarasi Nazarbek, Sherali dodxoh, Abdurahmon oftobachi va boshqalar ham bosh ko'targanlar. Ular bir tomondan, Rossiya impreyasi bosqinchilarga qarshi, ikkinchi tomondan, Kaufmanga batamom tobe bo'lib qolgan Xudoyorxonga qarshi kurash boshlagan edilar. Xalq qozg'alonghi kuchlarga ergashadi va 1873-yildan e'tiboran

³² Shamsiddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi... – B. 174.

³³ Murtazayeva Y. H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2010. – B. 272.

butun vodiya qozg'alon boshlangan. Xudoyorxon ularni bostirishga ojizlik qilib, oxiri Qo'qondan Toshkentga qochib ketgan.

Kaufman Xudoyorxonning 40 aravadagi boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga jo'natib yuborgan. Xon u yerdan qochib hajga ketadi va hayoti ayanchli yakun topgan. Xudoyorxon qochgach, qozg'alonchi kuchlar kimni xon qilib ko'tarish masalasida ikkiga bo'linib ketadi. Ayrim kuchlar Nasriddinbekni, boshqalari Po'latxonni taxtga chiqarmoqchi bo'lgan, ziddiyat yanada kuchayib borgan.

Kaufman xonlikdagi ichki kelishmovchilikdan foydalanib, uni batamom bosib olish uchun 1875-yil avgustda katta qo'shinlarni urushga safarbar etgan. Nasriddinbek, lashkarboshi Abdurahmon oftobochi bosqinchilarga taslim bo'lib ular tomoniga o'tganlar. 1876-yil fevralda Po'latxon boshchiligidagi xalq qozg'alonlari qon bilan bostirilgan. Po'latxon 1876-yil 1-martda dorga osib o'ldirilgan, uning safdoshlari ayovsiz jazolangan. 1873–1876-yillardagi Farg'ona vodiysidagi qozg'alonlar xalqning milliy ozodlik harakati edi. Buni o'sha davrda Kaufman ham xalq qozg'aloni deb e'tirof etgan.

Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus farmoniga binoan Qo'qon xonligi tugatilgan, uning o'rniga Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston General-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan. Viloyatga Skobelev harbiy gubernator etib tayinlangan. U tez orada harbiy yurishlar tashkil etib Oloy vodiysini ham o'z tasarrufiga kiritgan.

Endi bosqinchilar turkmanlar yashaydigan hududlarni istilo qilishga kirishganlar. 1880-yilda Ko'ktepani zabt etish rejasi tuzilgan³⁴. 1877-yilda Qizil Arvot, 1881-yilda Ashhabot, 1884-yilda Marv bosib olingan. Bosib olingan yerlarda Kaspiyorti viloyati tuzilib, u Turkiston General-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan. 1867-yilda tuzilgan Turkiston General-gubernatorligi rus podsholarining tom ma'nodagi mustamlaksiga aylantirilgan edi³⁵. Ular bu yerda mustahkam

³⁴ Тоҳир Қаҳҳор. Ҳур Туркистон учун. – Т.: Чўлпон нашриёти, 1994. – Б. 54.

³⁵ Зиёева Д. Туркистонда миллий озодлик ҳаракати. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 6.

oʻrnashish maqsadida boshqaruv tizimini imperiya manfaatlariga xizmat qiladigan tarzda tashkil etishga kirishganlar.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi 20 yil davom etgan qonli urush bilan butun Oʻrta Osiyoni bosib olgan. Bosib olingan oʻlkada mustahkam va batamom oʻrnashib olish maqsadida chet mamlakatlar bilan chegaralarni aniqlash choralarini koʻrgan. 1881-yilda Rossiya – Eron chegara konvensiyasi imzolanib, yangi Rossiya mulklari va Rossiya – Eron oʻrtasidagi chegarasi, 1895-yilda esa Pomirdagi chegaralar belgilangan. Bu Rossiya imperiyasining Oʻrta Osiyodagi bosqinchilik, talonchilik harakatining yakunlovchi nuqtasi boʻlgan.

1. 2. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda mustamlaka boshqaruv tizimining joriy qilinishi

XIX asrning ikkinchi yarmi Oʻrta Osiyo xalqlari taqdirida keskin va fojiali burilish yasagan davr boʻldi. Turkistonda boshqaruvni tashkil qilishga Rossiya imperiyasi uni bosib olgan damdan boshlab kirishdi. Oʻrta Osiyoni bosib olingan hududlarida oʻz hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa xisoblagani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta oʻzgarishlarni amalga oshirmagan. Shunday boʻlsada yuqori davlat organlari oʻz nazoratlariga olib quyi organlarni nazorat qilishgan³⁶. Rossiya imperiyasi oʻlkani istilo qilgandan keyin mahalliy xalqlarni mustamlaka istibdodiga soluvchi qonun “Turkiston Oʻlkasini boshqarish haqidagi Nizom” ni joriy qilgan³⁷. Bu qonunga koʻra mahalliy aholi siyosiy huquqlaridan mahrum etilgan. Chunonchi, ularning vakillari oiliy va oʻrta lavozimlarga yaqinlashtirilmay, hokimiyat tamomila rus harbiylari va amaldorlari qoʻlida toʻplangan³⁸. Podsho Rossiyasi Turkiston oʻlkasini bosib olgach, jahonning eng yirik mustamlakachi davlatiga aylangan. Yevropa va Osiyoning bir qismini oʻz ichiga olgan bu imperiya boshqa mustamlakachi davlatlardan farqli ravishda oʻziga xos mustamlakachilik tizimini yuzaga keltirdi. Bunday zoʻravonlik va zulmga asoslangan mustamlakachilik

³⁶ Эшов Б. Ўзбекистонда Давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 426.

³⁷ Sodiqov H., Joʻrayev N. Oʻzbekiston tarixi. – Т.: Sharq, 2011. – В. 122.

³⁸ Зиёев Х. Истиклол – маънавият негизи. – Т.: Маънавият, - Б. 6.

tizimi Turkistonda keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Bu siyosat mahalliy xalqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularni nazarga ilmaslik kabi o'ta millatchilik ruhidagi siyosat asosiga qurilgan edi.

Rossiya imperiyasi bosib olingan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatish va boshqarish uchun mustamlakachilarning manfaatlarini himoya qiladigan mustahkam boshqaruv tartiblarini joriy etish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rgan. Chunki, boshqaruv tizimi Rossiya hukumati uchun juda muhim bo'lib, bosib olingan joylarda mustamlakachilik siyosatini olib borishda asosiy tayanch hisoblangan. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida "harbiy vaziyat" omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan, yuzaga kelgan va qoida tarzida "muvaqqat" xususiyatga ega edi. Chunonchi, "Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom" 1867-yili "tajriba tarzida uch yilga" joriy qilindi. Bu Nizomda soliq tizimini izga solish maqsadida xo'jalik boshqarmalarini tuzish belgilab qo'yilgan edi³⁹. Undan tashqari, 1868-yilning iyunida "Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari", "Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha 1873-yil muvaqqat nizom", "Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha 1874-yil 21-may Nizomi" ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi.

Ularning barchasi o'z faoliyatida "harbiy va ma'muriy hokimiyatning birdamligi va uning bitta qo'lda birlashtirilishini" tasdiqladi. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan vaziyat omili va mahalliy jamiyatning an'anaviy ijtimoiy-huquqi tenglashtirish borasidagi rejalaridan ancha murakkab bo'lib chiqdi. O'n minglab kishilar imperiya agressiyasiga qarshi kurashga qo'zg'aldilar. Kaufman rus davlatining manfaatlarini bosqinchilarga qarshi yalpi qattiq kurash sharoitida joriy qilishga majbur bo'ldi. Biron-bir ahamiyatga molik shahar jangsiz taslim bo'lmadi. "Osiyoliklar, albatta, O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarimiz qonli solnomasining dahshatli tafsilotlarini juda yaxshi bilgan, edilar deb yozadi o'sha voqealar davrida yashagan M. Zinoyev, biroq shunday

³⁹ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областей. – СПб., 1867, – С. 47-48.

bo'lsada, yo'limizda uchragan barcha shahar va qal'alarni kuch bilan olishimizga to'g'ri keldi"⁴⁰.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va amaliyoti uning bu o'lkada o'z davlatchiligini joriy etish orqali olib borildi. XVIII asrda tashkil topgan mustaqil Qo'qon xonligi davlati yo'q qilinib bir viloyatga aylantirildi, Turkistonda milliy davlatchilikka barham berildi. Rossiya imperiyasi o'zining boshqaruv tizimini sekin-astalik bilan joriy eta boshladi. Ammo imperiyaning bu o'lkada o'rnatgan ma'muriyati uning tasruffidagi boshqa o'lkalar boshqaruvidan o'zining keskin harbiy-mirshablik tartibi bilan ajralib turgan. Rossiya hukumatining Turkiston o'lkasi uchun 1865 – 1916-yillar oralig'ida ishlab chiqqan hamda amalga tadbiiq etilgan o'nta qonun loyihalari (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916-yillar)da va ularning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgarishlarda ana shu holat o'z aksini topgan⁴¹. Bu qonunning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgarishlarda Turkistonni boshqaruvidagi harbiy-mirshablik ruhi aniq o'z ifodasini topgan. Yuqoridagilarni isboti sifatida Rus zodagonlaridan biri A. B. Vrevskiy “Turkiston xalqlari o'zlarini boshqaruvchi va sud qiluvchi yagona hokimiyatga o'rgangan”, deb o'lkada qattiqo'l mustabid idora zarurligiga ishora qilgan⁴².

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki Rossiya imperiyasi mustamlaka tizimini dastlabki yillarida ilgari boshqaruvga ham tayanib ish ko'rgan. Buni birinchi marta Orenburg General-gubernatori Krijanovskiy Toshkent aholisiga nisbatan qo'llagan⁴³. Toshkent shahri bosib olinganidan so'ng 1864 – 1865-yillarda bosib olingan hududlarda Orenburg General-gubernatorligi tarkibida 1865-yil harbiylashgan ma'muriy boshqaruv tartiblariga asoslangan Turkiston viloyati tashkil etilib, unga general-mayor M. G. Chernyayev gubernator etib tayinlanadi.

⁴⁰ «Русский вестник», 1868, № 5; Зияев Х. Завоевание Бухарского и Хивинского ханств царизмом // «Общественные науки в Узбекистане». 1990, № 8 – Б. 39.

⁴¹ Hamdamov S., Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi (birinchi kitob). – T.: Sharq, 2011. – B. 229.

²³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 191.

⁴³ Бартольд В. В. Сочинения II том. Общие работы по истории Средней Азии, работы по истории Кавказа и восточной Европы. – Москва, 1963. – С. 350.

Turkiston viloyatini boshqarish uchun 1865-yil 6-avgustda “Turkiston viloyatini boshqarish to’g’risidagi Muvaqqat Nizom” qabul qilinib, unga muvofiq harbiy va fuqarolik hokimiyati harbiy gubernator qo’lida bo’limlarga bo’linib, ularni bo’lim boshliqlari boshqargan. Bo’lim boshlig’i bir vaqtning o’zida bo’lim harbiy komendanti ham hisoblangan. Bo’lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi va rus amaldorlaridan tayinlanadigan boshqaruvchilar bo’ysungan. Shuningdek, bu “Nizom”ga ko’ra, Turkiston viloyati gubernatori, “biy, oqsoqol, rais va qozi lavozimidagi tub joy aholi vakillarini egallab turgan lavozimiga tasdiqlash, bo’shatish, almashtirish vakolatiga ega bo’lgan”⁴⁴. Turkiston hududida dastlabki hisob-kitoblarga ko’ra, 453 ming kishi istiqomat qilar edi. Turkiston viloyatining ichki ma’muriy-hududiy bo’linish tizimi sof harbiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo’lib, uning asosini harbiy-hududiy birliklar tashkil qilar edi. Viloyat uch bo’limdan iborat bo’lib, keyinchalik Sirdaryo nomini olgan o’ng qanotga Aralsk, 1-frot (keyinchalik Kazalinsk deb nomlandi) va Perovsk; markazga Turkiston va Chimkent rayonlari; chap qanotga Avliyoota, Narke va Pishpek shaharlari kiradi⁴⁵.

Dastlab Turkiston viloyatining ma’muriy markazi qilib Chimkent shahri belgilandi. Rus qo’shinlari Toshkentni egallaganidan so’ng, to u Rossiya tarkibiga rasman kiritilguniga qadar, bu shahar Turkistonning ma’muriy markazi bo’lib turdi. 1866-yilda Imperiyaga rasman qo’shib olingan Toshkent va uning atrofidagi hududlar Toshkent rayoni deb atalgan alohida birlikni tashkil qildi. 1866-yili Turkiston viloyati tarkibida Erjar-Zomin bo’limlari, O’ratepa va Jizzax tumanlari tashkil qilindi. Mustamlaka o’lkalarni boshqarish asoslari absolyutizm davridayoq yuzaga kelgan bo’lib, ular smaderjaviya (podisho hokimiyati)ning Volgabo’yi, Sibir, Qozog’iston, Kavkaz va boshqa qator hududlardagi manfaatlarini ozmi-ko’pmi ta’minlab kelargan. Ular zamirida harbiy va harbiy bo’lmagan hokimiyat birlashar hamda ma’muriy, sudlov xo’jalik va boshqa vazifalar bitta muassasa qo’lida jamlanar edi. Xuddi shunga o’xshash boshqaruv usuli, deyarli o’zgarmagan

⁴⁴ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 423.

⁴⁵ Абдурахимова Н., Ергашев Ф. Туркистонда чор мустмлака тизими. – Т.: Академия, 2002. – Б. 30.

tartibda zamonga moslangan holda Turkiston o'lkasida ham sekin astalik bilan joriy qilina boshlangan.

Rossiya imperiyasi Turkistonda keng ko'lamli bosqinchilik yurishlarini boshlar ekan, o'lkani boshqarishga doir oldindan puxta tayyorlangan rejaga ega bo'lmagan. Vaholanki, bosib olingan yerlarda boshqaruvni tashkil qilish bilan bog'liq tayyor loyihalar ham yo'q edi. Mana shunday sharoitda Turkiston viloyatining ma'muriy tuzilishini tartibga solishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish tashabbusi Rus harbiy qo'mondonligiga o'tgan. Huddi shunday hujjatlardan birinchisi Yangi Qo'qon liniyasi qo'mondoni M. G. Chernayevning Harbiy shtabida ishlab chiqilib, harbiy vazirlikda ko'rib chiqilib, qayta ishlangan va 1865-yilning 6-avgustida Aleksandr II "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom"ga imzo chekkan⁴⁶.

Ushbu hujjatga muvofiq, mahalliy ma'muriyat boshlig'i harbiy general-gubernator hisoblanib, uning qo'liga harbiy va harbiy bo'lmagan hokimiyat berilgan edi. Bunday lavozimga rus amaldorlari tayinlanib, mahalliy aholi ustidan umumiy nazorat yurituvchi mahalliy boshqaruvchilar bo'ysundirilgan edi. Ularga quyidagi vazifalar yuklatilgan: karvon tijorati xavfsizligini ta'minlash; tub aholidan soliq yig'img'larini to'plash; aholining majburiyatlarni va ma'muriyat ko'rsatmalarini bajarshni nazorat qilishdan iborat bo'lgan.

Mahalliy boshqaruvchilar zimmasiga sudlov funksiyalari ham yuklatilgan bo'lib, ular mahalliy va rus aholisi arlashgan qotillik, o'g'irlik va talonchilik bilan bog'liq jinoiy ishlar bilan shug'ullanganlar.

Bundan tashqari, ular shariat sudlov muassasalarining faoliyatini ham nazorat qilganlar. Mahalliy boshqaruvchilarning xo'jalik funksiyalari ham belgilab berilgan bo'lib, unda o'rmonlarning butligi, sug'orish tarmoqlaridagi suv taqsimoti va bu tarmoqlarni yaroqli holda saqlashni kuzatib borish bilan chegaralangan edi⁴⁷.

Xuddi shunga o'xshash majburiyatlar "1865-yilgi muvaqqat Nizom"da shahar hokimlari zimmasiga ham yuklatilgan bo'lib, bu lavozimga yirik

²⁶ Абдурахимова Н. Туркистонда чор мустамлакачилик тизими. – Тошкент: Аладемия, 2002. – Б. 32.

²⁷ Фомченко А. П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (Социально-экономический аспект). – Т., 1983. – С. 42.

shaharlarda rus ofitserlari tayinlangan. Ushbu boshqaruv apparatida “mahalliy” deb ataluvchi ma'muriyat ko'makchi rol o'ynar edi. O'rta Osiyoda xonlik davrida bo'lgani kabi shaharlarning tub aholisi yashaydigan mahallalarni oqsoqollar boshqarar edi. Bosh oqsoqolga mahalla tomonidan saylanuvchi shahar tumanlari oqsoqollari bo'ysungan. Politsiya vazifasini raislar bajarganlar. Ular bozorlarda asosan tosh-tarozini, savdo va jamoat tartibini nazorat qilardilar. Soliq yig'implari bilan zakotchi shug'ullangan.

Mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi boshqaruvchilarning vazifalari joylarda tinchlikni saqlash, karvonlar xavfsizligini ta'minlash, o'rmon, suv inshootlarini qo'riqlash, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi janjallarni hal qilish, aholiga soliq va majburiyatlarni belgilash, ularni o'z vaqtida va o'z miqdorida to'lashni nazorat qilish, nazorat natijalarini bo'lim boshlig'iga yetkazishdan iborat bo'lgan. Mahalliy aholining o'troq hayot kechiruvchi qismida sud ishlari bo'yicha qozilar chiqargan hukmlar harbiy gubernator tomonidan tasdiqlanishi lozim bo'lib, qozilarning chiqargan hukmlarini harbiy gubernator o'zgartirish huquqiga ega bo'lgan. Ko'chmanchi aholining biy sudlari mahalliy aholi boshqaruvchilarining ruxsati bilan o'tkazilgan. Biy sudlarida ishlar odat qoidalari asosida ko'rilgan.

1865-yildayoq Rossiya imperatori Aleksandr II ning farmoni bilan Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorliklari hamda Turkiston viloyati turmush tarzi va umumiy ahvolini o'rganish uchun “Dasht komissiyasi” tuzildi⁴⁸. Ushbu komissiyaning vazifasi bosib olingan hududlardagi sharoitni o'rganish hamda ularni qanday boshqarish haqida nizom tuzish uchun ma'lumotlar to'plashdan iborat bo'lgan. Komissiya o'z ish jarayonida bosib olingan yerlardan quyidagi qoidalariga asoslangan holda foydalanishni belgilab bergan edi:

1. Harbiy va fuqaro hokimiyatini bir qo'lda to'plagan holda o'lkani boshqarish.

⁴⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... – Б. 191-192.

2. Siyosiy hokimiyatga ega bo'lmagan barcha ichki ishlarni boshqarishni yerli aholining xulq-atvori va urf-odatlarini hisobga olib, mahalliy aholi qo'liga topshirish.

3. Mahalliy boshqarmada, uning qonun va urf-odatlarida mavjud bo'lgan davlat manfaatlariga ziyon yetkazuvchi barcha narsalarni butunlay tugatish.

4. Imkoniyati boricha sudni ma'muriyatdan batamom ajratib qo'yish⁴⁹.

Ko'rinib turibdiki, “Dasht komissiyasi”ning asosiy vazifasi mustamlakachilikka asoslangan o'lka boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan edi. Bu “Komissiya” tomonidan ishlab chiqilgan “Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi qoidalar loyihasi” bo'yicha Mahkama qabul qilgan qarorda quyidagilar qayd etilgan edi:

1. Loyihada ko'rsatilgan hududlarda Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari tarkibida Turkiston General-gubernatorligi tashkil etilsin.

2. General-gubernatorga o'lkani boshqarish uchun loyihada nazarda tutilgan shartlardan kelib chiqqan holda, boshqarish uchun amaldorlar olishga imkoniyat berilsin.

3. General-gubernatorga loyihada ko'rsatilgan yerlarda, o'lkadagi mahalliy sharoit, tuzem (mahalliy) xalqlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda so'nggi marta qonuniy tartibda ko'rib chiqish va qabul qilish uchun uning qismlari bo'yicha va yaxlit holda o'zining xulosasini berish topshirilsin. Ungacha loyihada ko'rsatilgan holatlarni asos sifatida qabul qilib, o'lka tuzilishi uchun favqulodda muhim va foydali deb hisoblangan hamma choralarni ko'rish topshirilsin.

Tadqiqotlarga ko'ra, Turkiston viloyatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida bo'lishi vaqt o'tishi bilan turli muammolarni keltirib chiqargan edi. Shuning uchun ham Turkiston viloyatining uzoqda joylashganligi, viloyat ma'muriyati vakillari sonining kamchiligi General-gubernatorlik bilan bog'lanishga, uning ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi imperiya hukmron doiralari o'rtasida Turkiston viloyatini

⁴⁹ Исмоилова Ж. XX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «яанги шаҳар» қисми тарихи. – Т.: Фан ва технология, 2004. – Б. 17.

Orenburg general-gubernatorligidan alohida ajratish masalasini kun tartibiga qo'ygan edi. 1867 yilda Peterburgda Turkiston boshqaruvi bo'yicha tayyorlangan "Nizom" loyihasi maxsus komissiya tomonidan muhokama qilinib, unda Orenburg general-gubernatorligidan alohida bo'lgan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risidagi qaror qabul qilingan. 1867-yil 11-aprelda Aleksandr II tomonidan komissiya taklifi ma'qullanib, 11 iyulda Janubiy Qozog'iston va O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganligi to'g'risida farmon e'lon qilingan. Birinchi general-gubernator qilib K. P. Kaufman (1818 – 1882) tayinlangan⁵⁰. K.P. Kaufman o'ziga berilgan "Turkiston o'lkasida tartib o'rnatuvchi" nomini oqlab 15 yil davomida imperiyaga o'lkadagi mustamlakachilik siyosatini mustahkamlashga sadoqat bilan xizmat qilgan⁵¹.

Yangi tashkil etilgan ushbu ma'muriy birlik dastavval 2 ta – Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini o'z ichiga olgan edi. Manbalarining ma'lumot berishicha, imperiya hukumatining 1867-yilgi manifestiga ko'ra, Kaufmanga "o'lkani boshqarish uchun kerakli va zarur deb hisoblangan barcha tadbirlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi berilib, siyosiy, chegaraviy va savdo ishlarini hal qilish, qo'shni mamlakatlarga ularning Rossiya bilan o'zaro aloqalariga tegishli muzokaralar olib borish va bitimlar imzolash, o'zaro kelishuvga erishish va qarorlar kabul qilish uchun ishonchli vakillarni jo'natishda cheklanmagan vakolatlar berilgan"⁵².

Imperiya mustamlakachilari qishloqlarni boshqarishda 1867-yilgi Turkiston general-gubernatorligining viloyatlarni boshqarish haqidagi "Vaqtli nizom loyihasi" deb atalgan hujjatlar majmuasiga amal qilganlar. Unga ko'ra ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqollar) boshqaruv tizimi joriy etilgan⁵³.

⁵⁰ Тиллабоев С. Б. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 28.

⁵¹ Мусаев Н. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – Б. 7.

⁵² Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, – Б. 425.

⁵³ Абдурахимова Н. Туркистонда чор мустамлакачилик тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – Б. 55.

Turkiston viloyatining ko'chmanchi aholisi urug'lar, bo'limlar va guruhlariga bo'lingan. Urug'larni urug'boshilar – manaplar, sultonlar va katta biylar; bo'limlarni – biylar; guruhlarini – to'g'ochlar boshqarganlar. Sulton, manap va biy unvonlari asosan otadan bolaga meros bo'lib o'tgan⁵⁴. Shunga qaramay, sulton, manap va biylarning o'rniga saylangan yangi shaxslar mahalliy aholi boshqaruvchisi, imperiya harbiy amaldorining tasdig'idan o'tishlari lozim bo'lgan.

1867-yil 11-iyulda imperator Aleksand II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etdi va O'rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risida farmon e'lon qildi.

1867 yilgi “Nizom” loyihasida Turkiston o'lkasining Rossiya harbiy vazirligi tarkibida bo'lishi, o'lka harbiy hokimiyat orqali boshqarilishi, General-gubernator o'lkada joylashgan qo'shinga qo'mondonlik qilishi, boshqaruvning quyi bo'g'iniga yerlik aholi vakillari saylov orqali saylanishi, o'lka boshqaruvini Rossiya imperiyasidagi mavjud boshqaruv tizimiga yaqinlashtirib, keyinchalik o'lkani imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish, o'lkaning ma'muriy-hududiy bo'linishida esa imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va strategik maqsadlaridan kelib chiqib ish tutilishi ko'rsatib o'tilgan.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o'z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblangani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo'lgan quyi boshqaruv organlari, soliq tizimi saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning dastlab saqlanib qolinishiga asosiy sabab mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining turmush tarziga katta o'zgarishlar kiritish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Undan tashqari, yangi bosib olingan yerlarda hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib borayotgan o'z odamlari bo'lmaganligi, mahalliy sharoitni to'liq bilmaslik kabilar

⁵⁴ Тиллабоев С. Б. Туркiston ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008. – Б. 11.

ham an'anaviy boshqaruv tizimini ma'lum muddat saqlab qolishga majbur qilgan⁵⁵.

1868-yilda imperiya Ministrlar Kengashi tomonidan Turkiston General-gubernatoriga ikki yil ichida yangi "Nizom" loyihasini tayyorlab taqdim qilinishi to'g'risida ko'rsatma berilgan. 1871-yilda fon Kaufman rahbarligida Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida "Nizom" loyihasi tayyorlanib taqdim etilgan bo'sada, muhokamada tasdiqlanmay qaytarilgan. Ushbu loyiha 1873-yilda qayta ishlanib, ikkinchi marotaba Ministrlar kengashiga jo'natiladi. Ammo, bu safar ham "Nizom" loyihasida kamchiliklar mavjud bo'lib, "qoniqarsiz, yer masalasi tartiblari esa siyosiy jixatdan xavfli" bo'lganligi tufayli tasdiqlanmay qaytarilgan. Ammo, shunga qaramasdan ushbu "Nizom" loyihasidagi tartiblar 1876-yilda yangi tashkil etilgan Farg'ona viloyatiga joriy etilgan.

1882-yil 8-mayda imperatorning Turkiston general-gubernatorligini taftish qilish to'g'risidagi farmoni e'lon qildi. Taftish ishlariga rais qilib "Dasht komissiyasi"ning sobiq raisi, maxfiy maslahatchi F.K. Girs tayinlangan. 1883-yilda Girs taftish ishlarini tugallab, imperatorga General-gubernatorlik va unga qarashli tashkilotlarning ahvoli to'g'risidagi hisobotni, "O'lkani boshqarish to'g'risidagi nizom loyihasi"ga qo'shib taqdim etdi⁵⁶.

1884-yil 21-yanvarda imperator Aleksandr III ning ko'rsatmasi bilan Davlat Kengashi a'zosi, general-ad'yutant, graf N. Ignatev raisligida "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizomning qayta ishlangan so'nggi loyihasini ishlab chiqish" bo'yicha komissiya tashkil qilindi. Imperiyaning oliy doiralari tomonidan tuzilgan ushbu komissiyaning asosiy vazifasi "O'lkani Rossiyaga qat'iy qaram qilib qo'yish maqsadlari va uni boshqarishda xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni esa oshirishga, shuning bilan birga, fuqarolarni boshqarish talablariga va joylarning shart-sharoitlariga to'g'ri keladigan nizom" tuzilishini amalga oshirishdan iborat bo'lgan.

⁵⁵ Тиллабоев С. Б. Туркiston ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008. – Б. 32.

⁵⁶ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, – Б. 427.

Rossiya imperatori tomonidan “Turkiston o’lkasini boshqarish to’g’risidagi Nizom” 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan bo’lsada, ma’muriy tizim bo’yicha e’tirozlar davom etdi. Ammo, imperator Turkiston o’lkasida sobiq General-gubernatorlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda unga ba’zi o’zgarishlar kiritdi. Umuman olganda, Turkiston o’lkasida Rossiya imperiyasi hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to’ldirilib, o’zgartirilib turilgan. Chunki podsho Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruv tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.

Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga G’arbiy Sibir general-gubernatorligi tasarrufida bo’lgan Semipalatinsk viloyati hududining bir qismi kiritilgan. Chegara chizig’i Semipalatinsk viloyati chegarasidan Balxash ko’lining o’rtasigacha cho’zilib Sarisuv daryosiga qadar cho’zilgan. Orenburg general-gubernatorligi bilan chegara chizig’i Perovsk ko’rfazi o’rtasigacha, Termembes tog’iga, undan Terken, Qalmas, Muzbil, Oqqum, Cho’bartepa tog’lari bo’ylab Mo’yinqumning janubiy etaklari va Sarisuv daryosi Chu daryosi bilan qo’shilgan joyga qadar borgan.

Turkiston general-gubernatorligi 1867 – 1886-yillarda viloyat va uyezdlarga bo’lingan edi. O’rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh joylarda uyezdlar o’rniga ularga mos ravishdagi harbiy-hududiy birliklar okruglar, bo’limlar va rayonlar tashkil qilingan.

Dastlab, Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat: markazi Toshkentda bo’lgan Sirdaryo hamda markazi Verniy shahrida bo’lgan Yettisuv viloyatiga bo’lingan. Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga qo’shimcha tarzda quyidagi ma’muriy-hududiy birliklar tashkil qilingan: 1868-yilda markazi Samarqandda bo’lgan Zarafshon okrugi; 1874-yilda markazi Petroaleksandrovska (To’rtko’l)da bo’lgan Amudaryo bo’limi; 1876-yilda Qo’qon xonligining tugatilishi hisobiga markazi Yangi Marg’ilon (Farg’ona) shahri bo’lgan Farg’ona viloyati.

Yettisuv viloyati Sevestapolsk, Ko'pal, Verniy, Issiqko'l va To'qmoq uyezdlariga bo'lingan edi. 1882-yili u Turkiston eneral-gubernatorligi tarkibidan chiqarildi.

Sirdaryo viloyati tarkibida 1868-yili Avliyoota, Qazala, Qurama (markazi Qo'yliq qishlog'i), Perovsk, Turkiston, Xo'jand va CHimkent uyezdlari tashkil qilindi. Toshkent shahri mustaqil ma'muriy birlikni tashkil etgan.

Zarafshon okrugi hududi dastlab Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'lingan edi. 1871-yilda ularga yangi ma'muriy-hududiy birlik tog'li tumanlar qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda beklıklardan tuzildi. Samarqand bo'limi uchta, Kattaqo'rg'on bo'limi esa bitta tumandan iborat bo'lgan.

Xiva xonligidan ajratib olingan hududning bir qismida tashkil qilingan Amudaryo bo'limi Chimboy va Sho'raxon uchastkalariga bo'lingan.

Farg'ona viloyati hududida Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, O'sh va Chust uyezdlari bo'lib, ular bilan bir vaqtda Chimyon (1879-yildan boshlab Isfara) uyezdi tuzilgan edi, uning hududi 1881-yilda Qo'qon va Marg'ilon uyezdlariga bo'lib yuborildi. Hududni tashkillashtirish tizimidagi eng quyi bo'g'in bo'lis (volost) hisoblangan. Biroq, bo'lis boshqaruvi izchil ravishda faqat Farg'ona viloyati hamda Zarafshon okrugida joriy qilingan. Boshqa joylarda esa, ko'chmanchi aholi sonining ko'pligi tufayli, bo'lilar bilan bir qatorda, aholi o'troq yashovchi tumanlarda oqsoqolliklar ham tashkil qilindi. Xo'jand uyezdi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning hududi uchta Xo'jand, O'ratepa va Jizzax rayonlariga bo'lingan. Umuman olganda, imperiya tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy bo'linishda o'lkaning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va milliy xususiyatlari hisobga olinmadi. U haqli ravishda byurokratik-g'azna ahamiyatiga molik deb atalgan hududlarni tashkillashtirish bo'yicha umumimperiya tadbirining qonuniy davomi bo'ldi. "1863–1867 yillardagi muvaffaqiyatlar, – deb yozadi Turkistonning birinchi General-gubernatori K.P. Kaufman o'zining podshoga yo'llagan hisobotida,... bu turg'un va o'z turg'unligiga o'ralgan mamlakatning butun siyosiy tizimini

barbod qilgani holda, yakson bo'lgan kuchlarni qo'lga olish, ularni o'lkaga rus davlati manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib kelingan yangi ijobiy siyosiy va fuqaroviy dasturlarni bajarishga yo'naltirishni uddalay olmadi".

Real turmush imperiyaning "taraqqiyot olib kirish" borasidagi rejalaridan ancha murakkab bo'lib chiqdi. O'n minglab kishilar imperiya agressiyasiga qarshi kurashga qo'zg'aldilar. Kaufman rus davlatining manfaatlarini bosqinchilarga qarshi yalpi qattiq kurash sharoitida joriy qilishga majbur bo'ldi.

Podsho yorlig'i K.P. Kaufmanga "barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qo'shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish" vakolatini berardi. U o'lkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga ko'ra besh yilgacha bo'lgan muddatga badarg'a qilish va qarshilik ko'rsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish huquqiga ega edi. Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqdorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul qilar, kreditlarni taqsimlar, shu jumladan, tub aholiga mansub bo'lgan shaxslarga o'lim jazosi berish haqidagi hukmlarni (agar ular qozilik va biylik sudlari tomonidan chiqarilgan bo'lsa) bekor qilish huquqiga ega edi.

Rus hukumati o'ziga mustahkam tayanch barpo etish va hukumronligini mustahkamlash maqsadida rus shaharlari va qishloqlarini barpo etishga aloxida ahamiyat berdi. Natijada Rossiyaning turli joylaridan Turkiston o'lkasiga ko'chib keluvchilar soni ortib bordi. XIX asrning oxiriga kelib o'lkadagi ruslar soni 197420 kishiga yetdi⁵⁷.

Birinchi bob bo'yicha xulosa: Shunday qilib, General-gubernator o'zining yuridik jihatdan chegaralanmagan hokimiyatiga ko'ra, Turkistonning besh millionlik xalqini boshqarish huquqiga ega edi. Ushbu boshqaruv Rossiya amaldorlari tomonidan harakatlantiriluvchi xiyla murakkab byurokratii mashina yordamida amalga oshirilgan. Boshqaruvning ma'muriy organlarini mustamlaka hokimiyati tizimidagi o'rniga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin edi: o'lka, viloyat, uyezd va bo'lis boshqaruvi. Bunday boshqaruv

⁵⁷ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукумронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 362.

tizimini joriy qilish orqali o'lkani qo'lda tutib turishni osonlashtirish bo'lgan. Dastlab Turkiston o'lkasi mustamlakga aylantirilganda barcha boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirishga Rossiya imperiyasi ma'murlari ham botina olmaganlar. Turkiston o'lkasini boshqarish va qo'lda tutib turish uchun imperiya vakillari katta miqdorda qo'shin tutib turishga majbur bo'lganlar. Shunday bo'lsada yangi boshqaruv tizimining Turkiston zaminiga joriy etilishi qiyin va og'riqli kechdi. U mahalliy jamiyat taraqqiyotining ichki tendensiyalarini jiddiy o'zgartira olmadi. Insonga zulm qilishga, qadr-qimmatini toptashga asoslangan tuzumga qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar kuchli mustamlaka tazyiqi ostida ham yetilib kelmoqda edi.

II bob. Turkistonda mustamlaka tuzumining mustahkamlanishi: muammo va yechimlar

2.1. Turkistonda boshqaruv tizimining takomillashtirilishi va uning o'ziga xos jihatlari

XIX asrning 60 – 80-yillari o'rtalarida yuzaga kelgan Turkistonning mustamlaka sifatida ekspulutatsiya qilishning shakl va usullari to'g'risidagi qarama-qarshi tasavvurlar o'lka ma'muriyatining siyosatiga, eng avvalo, u tayyorlangan Turkistonni boshqarish to'g'risidagi yangi qonun loyihasiga tasir qildi. Rossiya byurakratik apparatining tarkibiy qismi hisoblangan K.P. Kaufman boshchiligidagi “harbiy-xalq” boshqaruvi bu loyihadagi oliy feodal-manarxik tabaqalarning manfaatlarini qo'llab quvatlar edi. Boshqa tomondan, kundalik amaliyot mustamlaka hokimiyatining noiqtisodiy usullari Turkistonni imperiya g'aznasiga daramod berishi darajasining jadal o'sishiga olib kelmasligiga ishontirdi. Shu bois ular o'z loyihalarida asta-sekin va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish yo'lida borishni taklif qildilar. Bu islohotlar yer-suv munosabatlarini, aholiga soliq solish tizimini qayta ko'rish, sanoat va temir yo'l qurilishiga davlat mablag'ini jalb qilish va shu kabilardan iborat edi. Turkistonning boshqarish to'g'risidagi loyihalarning markaz tomonidan rad qilinishini yuqorida sanab o'tgan edik. Bunga sabab loyihalarning yetarli darajada puxta ishlab chiqilmaganligi haqidagi fikr mulohazalari bunga bahona bo'lgan. Rossiya Vazirliklari tomonidan Turkistonni boshqarish masalalari yuzasidan juda ko'p tanqidlar bo'lgan. Jumladan Adliya vazirligi tub aholini barcha huquqlarini rus fuqorolarining singari batafsil sanab o'tish ortiqcha deb hisoblaganlar. Ushbu byurokratik mashinada bosh bo'g'in K.P. Kaufman tomonidan 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston Turkiston general-gubernatorligi Devonxonasi edi⁵⁸. Devonxona General-gubernatorlik rasmiy hujjatlarini yuritish va jamlash bilan birga ijroiya hokimiyatni boshqargan. Turkiston general-gubernatorlik Devonxonasi dastlab to'rtta bo'limdan iborat bo'lgan. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat ishlarini boshqargan. Ikkinchi bo'limga bosh boshqarmaning moliya-xo'jalik ishlari qaragan. Uchinchi bo'lim

⁵⁸ Абдурахимова Н.,Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, – Б. 47.

solliqlar, shahar mablag'lari va boshqaruvga doir nizom loyihalarini tayyorlagan bo'lsa, to'rtinchi bo'lim maxsus bo'lim xisoblanib, uning faoliyat doirasi g'oyat katta va keng bo'lgan. Diplomatik munosabat va aloqalar shu bo'lim vakolatiga kirgan. Bundan tashqari bu bo'lim 1886-yilgacha mustaqil ish ko'rgan hamda harbiy va adliya vazirliklari ko'rsatmalariga xilof ravishda sud qarorlarini qayta ko'rish bilan shug'ullangan⁵⁹. Shuningdek, Devonxona shtat va inespektorlik, yo'l qurilishi va tog'-kon masalalarini hal qilish bilan ham shug'ullangan. Ushbu munosabat bilan Devonxona quyi idoralarga ko'plab ko'rsatmalar va so'rovlar yuborib, ularga javoban ko'plab hisobotlar olgan. Barcha vakillik va ma'lum idoraga qarashli muassasa, oliy hukumat organlari bilan aloqalarni amalga oshirardi. O'lkani boshqarish borasidagi turli me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va joriy qilishda Devonxonani roli katta bo'lgan. Devonxona maxsus tuzilgan hukumat komissiyalari bilan hamkorlikda keyinchalik Rossiya imperiyasi vazirliklari va Davlat Kengashi e'tiboriga xavola qilinadigan Turkistondagi barcha qonunlarning loyihalarini ishlab chiqishda qatnashgan. Devonxona tarkibidagi farmoyish bo'linmasida lavozimlarga tainlash, qonunlar bajarilishi yuzasidan choralar ko'rish hamda kadrlar masalasi bilan shug'ullangan. Markazda uning faoliyatini faqat Rossiya harbiy vaziri tomonidan nazorat qilingan⁶⁰. Devonxonaning vakolati kengligidan qonunga xilof ishlarni ham ko'plab amalga oshirgan. Bu haqida xufiya maslaxatchi F. Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi ham buni alohida qayd etib o'tgan. Turkiston general-gubernatorligi Devonxonasining eng muhim bo'limlaridan biri bu diplomatik aloqalar bo'limi bo'lib, unda Gubernatorlikning qo'shni davlatlar, xususan, Buxoro va Xiva xonliklari, Afg'oniston, Qashg'ar va boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalariga oid masalalar bilan shug'ullangan. Devonxonaning ushbu bo'limida shuningdek, diplomatik aloqalarga oid hujjatlar, Turkiston general-gubernatorligi qoshidagi diplomatik amaldorlar faoliyatiga oid rasmiy hujjatlar yuritilgan va saqlangan. Turkiston general-gubernatorligi Devonxonasi so'nggi general-gubernator

⁵⁹ Ўзбекистони янги тарихи биринчи китоб. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 200-201.

⁶⁰ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, – Б. 48.

Kuropatkinning iste'foga chiqishi munosabati bilan o'lkada 1917-yil aprelda tashkil etilgan Turkiston Muvaqqat hukumati Devonxonasiga aylantirilgan. Ushbu Devonxonaning Turkistondagi boshqaruvni mustahkamlashdagi o'zni katta bo'lganligini e'tirof etish mumkin. 80-yillar o'rtalariga kelib ma'muriy o'zboshimchalikka asoslangan "harbiy-xalq" boshqaruvi tizimi Rossiya savdo-sanoat doiralari va mahalliy tadbirkorlarning manfaatlari bilan bog'liq yangicha munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgani ochiq-oydin ko'zga tashlanib qoldi. Bu hukmron doiralarning mustamlaka ma'muriyati yo'liga bildirgan, hatto bir qator tahdidli tanqidiy fikrlari chindan ham qarshi bo'lganligidan dalolat berardi. Imperiya ma'muriy tizimining ikki markaziy va mintaqaviy tarmog'i ham o'zini huddi Turkiston xalqlarining manfaatlari va ehtiyojlari haqida qayg'urayotgandek qilib ko'rsatgan edi.

80-yillarning boshlaridayoq Rossiya hukmron doiralari mustamlaka tuzumini qonuniy rasmiylashtirishni tezlashtirishga qaror qilgan. 1881-yil 13-iyulda Turkistonni boshqarish bo'yicha "Nizom" loyihasini yakuniy varianti markazga taqdim etildi va unda o'lkani boshqarish bo'yicha davlat harajatlarini imkon qadar kamaytirilishini nazarda tutish bo'yicha oliy farmoyish e'lon qilingan. Loyiha muhokamasi M. D. Skobelov raisligidagi komissiyaga topshirilgan. Biroq bu komissiya ko'p o'tmay tarqatib yuborilgan. Gap shundaki, vafot etgan K.P. Kaufman o'rniga tayinlangan M. G. Cherneyayev Turkistonda o'lkani boshqarishda amalga oshiriladigan o'zgarishlarni mukammal aniqlash uchun puxta taftish o'tkazilishini talab qilgan. O'tkazilgan taftish natijasida F. Girs tomonidan hisobot va "Turkiston o'lkasi ustidan boshqaruvni tashkil qilishning bosh vazifalari to'g'risida" izhnoma tuzilgan. Ushbu xujjatlar 1884-yili imperiya hukumati farmoni bilan tuzilgan Davlat Kengashi a'zosi garf N. P. Ignatev raisligidagi navbatdagi mahsus komissiyaga ko'rib chiqish uchun topshirilgan⁶¹. Ignatev raisligidagi mahsus komissiya o'sha paytgacha to'plangan barcha loyihalarni va takliflarni o'rganib chiqib, ular asosida yangi "Nizom" loyihasini tayyorlagan. U

⁶¹ Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркистане во второй половине XIX – первой четверти XX в. в. – Т.: Университет, 1999. – Б. 56.

to'rtta asosiy bo'limdan iborat edi. Ular o'lkani ma'muriy tuzilishi, sudlov, yer-suv tuzilishi hamda soliq va yig'implardan iborat bo'lgan. "Nizom"da quyidagilar nazarda tutilgan edi: General-gubernatorlikning hududiy biirliklari nomlarini o'zgartirish, General-gubernatorning vakolatlarini mumkin qadar chegaralab qo'yish, o'lka, viloyat va uyezd hokimiyatini uning sud va davlat muassasalari ishiga aralashuvini chegaralash tomoniga bir qadar o'zgartirish, Rossiyaning 1864-yil sud nizomlariga muvofiq yangi sud amaliyotini joriy qilish. Shuningdek, unda yer-suv qurilishi borasidagi dastur ham bayon etilgan bo'lib, u yer-suvga egalik qilish, undan foydalanish va boshqarish huquqiga bag'ishlangan edi. Bu esa o'z navbatida yerga xususiy mulkchilikni va uni tovar-pul munasabatlarini rivojlanishiga yo'l ochgan. Ushbu hol kundan-kunga kuchayib borayotgan Politsiya va milliy burjuaziya manfaatlarini talabiga javob bergan.

Keyichalik Ignatev raisligidagi komissiya loyihalashtirgan yer-suv to'g'risidagi qoidalar elementlari 1886-yil qonunida o'z ifodasini topdi⁶². Rossiya ziroyatchilik va yer-suv tuzilishi bosh boshqaruvchisi A. V. Kpivoshen shunday tan oldi: "Turkiston nizomida faqat mulk degan so'z yo'q. O'lkada mavjud ziroyatchilik shakllari yetarli darajada aniqlanmaganligi va ziroyatchilik bilan bog'liq mahalliy suv huquqlari to'liq mavhumligi sababli (qonunda shunday deb ko'rsatilgan), Davlat Kengashi 1886-yilda bu so'zni aytishga cho'chidi. Biroq mulkka egalikni barcha elementlari: foydalanish, egalik qilish va boshqarishdan to yerlarni krepostnoylik tartibida berish huquqiga qadar qonunga ko'rsatilgan".

Ignatev komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha podsho tomonidan 1886-yil 12-iyunda rasman tasdiqlandi va qonuniy akt tusini olib, ayrim o'zgartirishlar bilan 1917-yilgacha amalda bo'ldi. Shuni alohida takidlab o'tish kerakki Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha qabul qilingan "Nizom"larning barchasida soliq tizimiga alohida yondashilgan⁶³.

⁶² Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркистане во второй половине XIX – первой четверти XX в. в. – Б. 56.

⁶³ Тиллабоев С. Россия империясининг Туркистонда маъмурий - худудий бошқарув соҳасидаги сиёсатининг баъзи хусусиятлари // Ўзбекистон тарихи. – 2005. – №3. – Б. 73–79.

1886-yilda qabul qilingan “Nizom”ga muvofiq Turkiston o’lkasining ma’muriy-hududiy bo’linishi o’zgartirildi. Bunga ko’ra Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirilgan. 1887-yilda Xo’jand Samarqand viloyati tarkibiga kiritildi⁶⁴. Farg’ona viloyati hududining ichki tuzilishi o’zgarishsiz qoldirildi. Amudaryo bo’limi Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilib, Qurama uyezdi Toshkent uyezdi deb o’zgartirildi. Sirdaryo, Farg’ona va Samarqand viloyatlari «tub» viloyatlar deb ataldi.

Muqaddam Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan Yettisuv viloyati 1882-yili bu tarkibdan chiqarilib Cho’l general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan edi. 1899-yili Yettisuv yana Turkiston General-gubernatorligi tarkibiga qaytarildi.

Xuddi shu yili o’lka tarkibiga beshinchi Kaspiyorti viloyati qo’shildi. U 1881-yili tashkil qilingan bo’lib, 1899-yilgach Kavkaz noibliqi tarkibida bo’lgan. Kaspiyorti viloyati tarkibiga Ashxobot, Krasnavodsk, Mang’ishloq, Marv va Tejen uyezdlari kiritilgan.

Turkiston general-gubernatorligining umumiy maydoni XIX asr oxirida 1,7 mln kvadrat kilometrni tashkil etgan. Axolisining umumiy soni 5,2 mln kishini tashkil etgan.

1886-yilgi yangi me’yoriy hujjatda “harbiy xalq” boshqaruvining asosiy qoidalari saqlanib qoldi. Shu bilan bir vaqtda u mahalliy ma’muriyatning mahkama yo’nalishi, sud amaliyoti sohasidagi huquqlarni chegaraladi va bu chegaralashni hokimiyatning politsiya va jazoga tortish funksiyalarini kengaytirish orqali erishildi. 1886-yilgi “Nizom”ga ko’ra Turkiston boshqaruv tuzilmalari tarmog’i yangi organ – Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to’ldirildi. Kengash tarkibiga viloyatlarning harbiy gubernatorlari, general gubernatorlik Kanselareyasi boshqaruvchisi, Turkiston harbiy okrugi shtabining boshlig’i, G’azna va Nazorat palatalarining boshqaruvchilari kiritilgan. Kengash tashkil etilgan paytda General-gubernator boshchilik qilgan bo’lsa, 1900-yildan boshlab esa uning yordamchisi raislik qilgan.

⁶⁴ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в туркестане (1867-1917 г.г.) – Т.: ART FLEX, 2009. – Б. 54.

Kengash boshqaruv amaliyoti bilan masalalar yuzasidan qonunlar taklif qilish huquqi berildi. Bundan tashqari u umumiy ma'muriy hususiyatga ega bo'lgan va yer, soliq va fuqorolarni majburiyatlari bilan bog'liq masalalarni ham ko'rib chiqgan.

Boshqaruvning muhim muammolarini muhokama qilishdagi rasmiy kollegiyalik o'lka boshliqlarini "Byurokratik radikalizimi"ni ma'lum darajada chegaraladi va keyinchalik Kengash general-gubernatorlik hokimiyatining obro'siga faqat putur yetkazyapti, deb hisoblagan reaksiyon ruhdagi ko'p sonli mahalliy amaldorlarning noroziligiga sabab bo'lgan.

1886-yilgi "Nizom"ning ishlab chiqilishi va joriy qilinishi bilan bog'liq o'zgarishlar Turkiston General-gubernatorligining tashqi siyosat masalalardagi vakolatlariga ham dahldor bo'lgan. Bu eng avvalo, Rossiya-Buoro munosabatlarida o'z aksini topdi. 1886-yil yanvar oyida Buhoroda Tashqi ishlar vazirirligining organi hisoblangan Rossiya imperatorining siyosiy agentligi ochildi Uni boshqargan amaldor Rossiya imperiyasining Buoro amirligidagi rasmiy vakili bo'lgan. Siyosiy agent Buoro hokimiyatining faoliyati ustidan umumiy siyosiy nazoratni amlga oshirardi va Rossiya-Buoro munosabatlarining barcha masalalari yuzasidan nazoratni o'z qo'liga olgan edi. Shuningdek u Buoro amirligida bo'lib turgan rus fuqorolarining shahsiy, mulkiy va savdo manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq turli konsullik majburiyatlarini ham bajarar, xristian diniga mansub xorijiy fuqorolarning manfaatlarini himoya qilgan.

Buxoro hududida rus manzilgohlari yuzaga kelganligi sababli, siyosiy agentlik umumiy-ma'muriy va sudlov funksiyalarini ham bajargan.

1999-yildan boshlab Turkistondagi barcha tashqi siyosiy masalalar Tashqi ishlar vazirligining nazorati ostiga olingan⁶⁵. Ular ikki idorga bo'y singan va qo'shni davlatlar bilan aloqalar masalalari bilan bevosita shug'unlangan diplomatik amaldorlar idorasiga o'tkazilgan. Biroq barcha diplomatik ishlarni tashqi siyosiy mahkamaning mahsus amaldori idorasiga jamlashga urinish izchil amalga

⁶⁵ Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркистане во второй половине XIX – первой четверти XX в. в. – Б. 60.

oshmagan. Kaspiyorti viloyati boshlig'ida Eron bilan chegaradoshlik munosabatlari masalalarini mustaqil ravishda hal qilish huquqi qoldirilgan, Amudaryo bo'limi boshlig'i esa Xiva xoni huzuridagi diplomatik vakil maqomini saqlab qolgan.

1886-yilgi "Nizom"ning joriy qilinishi bilan mustamlaka ma'muriyatining iqtisod sohasidagi funksiyalarining sekin-asta cheklanish jarayoni boshlangan. Bu harbiy vazirlikka emas, boshqa mahkamalarga, eng avvalo, moliya vazirligi, dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi, ichki ishlar vazirligiga bo'y sinuvchi ko'plab muassasalarining tashkil qilinishida mohiyat e'tibori bilan o'lka mamuriyatini markaziy davlat muassasalari bilan ularning mahalliy organlari o'rtasidagi vositachi organga aylantirgan edi. Mahalliy organlar rasman General-gubernatorga bo'ysinsada, xizmatga doir ko'rsatma va yo'riqnomalarni bevosita Peterburgdan olgan.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Rossiya imperiyasining Turkistonda moliya vazirligining mahalliy muassasalarini tuzib bundan, eng avvalo, o'z mustamlaka mulklarining daromadlarini oshirishni ko'zlagan edi. 1886-yili Toshkentda aksiz boshqaruvining ochilishi ham aynan shu ishga ko'maklashishi lozim edi. Ushbu idora spirtli ichimliklar, tamaki, gugurt va neft mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning savdosidan egri soliqlar olish, shuningdek, gerb, sud, passport, va boshqa yig'implarni to'plash bilan shug'unlangan.

1890-yil Turkiston General-gubernatorini huzuridagi moliya vazirligining maxsus topshiriqlari amaldori lavozimi o'rniga bojxona okrugining tashkil qilinishi ham aynan shu maqsadni ko'zlagan edi. U Turkistonga chegaradosh barcha mamlakatlar bilan nazorat qilgan. 1894-yil umumimperiya bojxona hududiga Buxoro va Xiva xonliklari ham kiritilgan. 1901–1902-yillarda tegishli ravishda Qo'qon va Samarqand bojxonalari tashkil qilindi. 1912-yil noyabrda Rossiyadan barcha bojxona muassasalari qayta tuzilishi munosabati bilan Turkiston bojxona okrugi o'rnida Toshkent bojxona inspektorlik uchaskasi tashkil qilindi. Bojxonalarning tashkil qilinishi Rossiyaning butun O'rta Osiyo mintaqasidagi bozorlarga mustahkam o'rnashishi uchun imkon yaratdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida moliya muassasalari, jumladan Rossiya davlat banki va tijorat banklari filiallari tarmogʻi yanada kengaydi. 1890-yili Samarqandda, 1893-yil Qoʻqonda, 1893-yili Buhoroda davlat bankining filiallari ochildi. Tijorat banklari orasida Peterburg va Moskva banklari yetakchi oʻrinda turar edi. Ushbu banklarning koʻpchiligi paxta bilan bogʻliq katta foyda keltiruvchi operatsiyalarni amalga oshirish hamda tuli savdo-sanoat firmalari, birlashmalari, sanoat va temir yoʻl qurilishiga sarmoya joylashtirish bilan band boʻlgan. 1915-yilga kelib Turkistonda Davlat bankining 10 ta, tijorat banklarining esa 40 ta boʻlimlari faoliyat koʻrsatgan.

1889-yil 9-may qonunga koʻra moliya vazrligi tasarrufida soliq inspektorlari instituti taʼsis etilib, ular gʻazna palatasining oʻlka, shahar va uyezdlaridagi agentlari hisoblangan. Ularning funksiyalari oʻtroq va koʻchmanchi axoliga soliq solish, kuzatish va nazorat qilishdan iborat boʻlgan. Soliq ispektorlariga, shuningdek viloyat va uyezdlardagi amaldorlarning faoliyatini nazorat qilish huquqi ham berilgan boʻlib, bu maʼmuriy apparatning boshboshdoqligi va mansabni suisteʼmol qilish imkoniyatini cheklagan. Biroq ayrim inspektorlar oʻz ishlariga noholis yondoshganlar. Ularning ish usullari koʻpincha jamiyatdagi keskinlikni oshiruvchi omil boʻlib xizmat qilgan. Inspektorlarning faoliyatiga tegishli hujjatlar orasida soliq va yigʻimlar meʼyorlarni oʻzboshimchalik bilan oshirish, tovlamachilik va riyokorlik, yer-suv xujjatlari bilan bogʻliq firibgarliklar haqidagi koʻp sonli maʼlumotlarga duch kelish mumkin. Jumladan, Turkistonda 90 yillarda soliq solish tartibidagi oʻzgarishlarni tekshirgan yer-suv va soliq komissiyasi aʼzolaridan birining guvohlik berishicha, mazkur amaldorlarning koʻpchiligi “soliq mahkamasida oʻtirib qogʻozbozlik qilishdan nari oʻtmagan” va shu bois oʻtkazilayotgan tadbirlar haqida aniq tasavvurga ega emasdilar. “Ular mahalliy tilni bilmaganlari holda, vaqf xujjatlarining toʻgʻriligini tekshirishlari lozim edi, deb guvohlik bergan Mansirev, ularning barchasi oldindan belgilangan odat va rejaga koʻra soxta deb topganlar. Bu diniy va hayriya ishlari bilan bogʻliq urf-odatlarni buzib, ajnabiy (rus) tasiriga nisbatan ichki nafrat va qarshilikni tobora kuchaytirgan”.

1889-yildan boshlab, rus podshosi xazinasini yanada to'ldirish hamda joylarda doimiy soliq nazoratini amalga oshirish zaruriyati tufayli soliq boshqarmasi markazlashtirilgan. Mustamlaka amaldorlarining safini to'ldirgan soliq nazoratchilariga anchagina katta vakolatlar berilgan. Soliq to'lovlaridan bosh tortish mustamlaka boshqaruvi siyosatiga qarshi, uning yer-soliq sohasida chora-tadbirlarini buzishga yo'naltirilgan qarshilik deb qabul qilingan⁶⁶.

Dehqonchilik va Davlat mulklari vazirligiga bo'y sinuvchi muassasalar ham ko'p jihatdan yuqoridagiga o'xshash vazifalarni bajargan.

Hukumat mustamlaka hududlarni kengaytrish va ruslashtirish bortasidagi harakatlarini XX asr boshlarida ham davom ettirgan. Bunga Stolippinning 1906 – 1910-yillardagi mashhur agrar qonunlari, jumladan, o'lkaning tub aholisidan “ortiqcha yerlarni tortib olish to'g'risida”gi “Turkiston nizomining 270-moddasiga qo'shimcha kiritish haqida”gi qonun asos bo'lib hizmat qildi. Mahalliy aholi yerlarining ommaviy ravishda olinishini Sirdaryo va Yettisuv viloyatalari misolida ko'rish mumkin.

Chunonchi, yuqorida ko'rsatilgan “ortiqcha yerlarni tortib olish to'g'risida”gi qonun joriy qilingan dastlabki yildayoq Sirdaryo viloyatining Avliyota uyezdida 100 ming desyatinadan ortiq maydonda Rossiyadan yangi ko'chib kelganlarning 3000 ta xo'jaligiga mo'ljallangan 63 ta qishloq uchastkasi tashkil qilindi. Ko'chirib kelish fondi va o'rmonchilik mahkamasi tasarrufidagi yerlarning eng yahshilari odatda, turlicha unvondagi imperiya amaldorlariga bo'lib berilgan.

Hukumatning Turkiston kelajagi borasidagi rejalarida zohir buyuk davlatchilik, millatchilik va ruslashtirishga moyillik tendensiyalari ziroatchilik vaziri Krivoshenning podsho nomiga yo'llagan maktublarida yaqqol namoyon bo'ldi. Unda o'lkada qishloq xo'jaligini rivojlantrish, sug'oriladigan paxta ekin maydonlarini va rus yerlarini mustahkamlash masalasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi. Mahalliy paxtakorlar uchun o'g'ir ijara shartlarining qo'yilishi

⁶⁶ Жумаев У. Туркистондаги Назорат палатасининг фаолияти // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2010. – №2. – Б. 222.

paxtaga belgilangan harid narhlarining pastligi, oziq-ovqat narhlarining esa muttasil oshib borishi dehqonlar hayotini og'irlashtirib, ularning haqli noroziligini keltirib chiqargan.

Shunday qilib, Turkistonni mustamlakaga aylantirish jarayonida joriy qilingan boshqaruv tuzilmalari va davlat muassasalari deyarli metropolianing ichki bozori uchun ishlab, mamlakatning imperiyaga nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va moliyaviy jihatdan ham qaramligini taminlagan. Ularning ko'magida yuzaga kelgan, asosan paxtani qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi sohalar milliy xo'jalik organizmning integral qismi sanalmagan kapitalistik ishlab chiqarish tuzilmasini yaratgan edi. Ular savdogarlar, sanoatchilar va boshqalarning extiyojlari uchun xizmat qilgan. Mustamlaka tuzumining takomillashtirish borasidagi keyingi urinishlar yapon urushidagi mag'lubiyat, birinchi rus inqilobi, birinchi johon urushi va Markaziy Osiyodagi yalpi milliy-ozodlik harakatidan larzaga tushgan samoderjaveya siyosiy tizimining inqirozi tobora kuchayib borgan sharoitda amalga oshirildi.

Bu urinishlar Turkistonda vaqti-vaqti bilan, "hormay-tolmay" ish olib brogan mahalliy va umumrossiya miqyosidagi turli komissiyalar, kengashlar va taftishlarning ko'p jildli materiallarida o'z ifodasini topdi. T. S. Kobeko (1894-y.), N. I. Korolkov (1886-y.), K. A. Nesterovskiy (1902–1903-y.), K. K. Palen (1908–1909-y.), P. A. Xaritanov (1911-y.) va N. A. Kuropatkin (1916-y.) raisligidagi komissiyalar shular jumlasidandir. "Yagona va bo'linmas Rossiya imperiyasini saqlab qolish", chet o'lkalarning "separatizm rejaları"ga yo'l qo'ymaslik haqida qayg'urgan bu komissiyalar Turkistonni boshqarish mexanizmlarini modernizatsiya qilish va mustamlaka tuzumini mustahkam choralari ishlab chiqdilar va hukumatga taklif qildilar. Jumladan Nestarovskiy boshchiligidagi komissiya "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi loyiha"ni ishlab chiqdi. Unda boshqaruv tizimidagi asosiy xato qishloq va bo'lis ma'muriyatlarining "saylanma negizi"ga ega ekanligi deb takidlangan edi. Komissiya tub axoli "samoderjaviyaning ijobiy jihatlari anglash"ga hali tayyor emas va shu bois "saylanma negiz"ni darhol bekor qilish degan qarorga keldi. U vaqtinchalik bir yil

muddatga va faqat soliq yig'uvchilar uchungina, saqlab qolinishi mumkin, lekin shu shart bilanki, saylangan nomzodlarni, so'ng uyezd boshliqlari tasdiqlashlari lozim deb hisoblagan. Viloyat va uyezd ma'muriyatlariga o'z doirasida bo'lgan barcha lavozimlarni tayinlash huquqini berish taklif qilingan. Butun hokimiyatni rus ma'muriyati qo'lida markazlashtirish g'oyasi hukumatga juda ma'qul kelgan, biroq bu qarorni mamlakatda yetilib kelayotgan birinchi rus inqilobi arfasida bajarishga jur'at qilolmaganlar.

Inqilobdan so'ng P.A. Stolipin hukumatining siyosiy yo'nalishi millatchilikni kuchaytirish tomonga o'zgarishi munosabati bilan, o'lkaga K. K. Palenning taftish komissiyasi jo'natildi. Komissiya rus va quyi ma'muriyat organlarining faoliyatidagi salbiy holatlarni aniqlash va ularni jiddiy tozalash bilan bir qatorda, Turkistondagi xalq ommasini jilovini qo'lida mahkam tuta oladigan va 1905–1907- yillardagi singari hokimiyatga qarshi chiqishlarga yo'l qo'ymaydigan yanada kuchli va mukammal ma'muriyatni tashkil etishni taklif qildi. Komissiya Turkistonda rus va mahalliy qishloq jamoalaridan iborat aralash bo'lislarni tashkil qilishni tavsiya etdi. Taftish komissiya hukumatning xo'jalik va jamoat funksiyalarini qisqartirish hisobiga uning qo'riqlov-mutasaddilik funksiyalarini kengaytirish, politsiya mirshablari, shu jumladan otliq mirshablar sonini ancha ko'paytirish, viloyat va uyezdlarda politsiya ishlari bo'yicha yordamchilar lavozimlari, Toshkent shahrida esa ober-polistmester lavozimi ta'sis etish, moddiy va nafaqa ta'minotini yaxshilash hamda ularga turli imtiyozlar berishga alohida e'tiborni qaratgan.

Davlat nazoratchisi P. A. Xaritanov va harbiy vazir yordamchisi A. A. Polivanov boshchiligidagi komissiya o'z tavsiyanomalarida Turkistonda K. P. Kaufman davridagi singari yagona va kuchli hokimiyatning tiklash zarurligiga urg'u bergan.

Turkiston general- gubernatorining mahkamalarga bo'ysinuvchi tashkilotlar ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi vakolatlarini tiklash unga mahkamalarni boshliqlari va markazdagi vazirliklarni singari huquqlar berish taklif qilingan. Ushbu komissiya ishida faol qatnashgan general-gubernator A. V. Samsonov

o'ziga Kavkazdagi imperiya noibi singari vakolatlar berilishini talab qilgan. Turkistondagi barcha mahkamalarga bo'ysinuvchi tashkilotlarning boshliqlari, Adliya vazirligi hamda imperator saroyi va udellari vazirligi qarashli muassasalarning boshliqlaridan tashqari o'z hatti-harakatlarini general-gubernator bilan kelishishlari shart edi. Ushbu muassasalarda chiqarilgan hujjatlarning nusxalari zudlik bilan uning ixtiyoriga kelib tushishi lozim edi. General-gubernatorlarning taftish qilish huquqlarini Davlat Kengashining taftishchi senatori huquqlari bilan tenglashtirish tavsiya qilindi. Avvalgidek, uslubiy jihatdan muhim e'tibor hukumat doiralariining ma'muriy-polissiya vakolatlarini kuchaytirishga qaratildiki, bundan A. B. Samsonov 1909–1914-yillarda, shuningdek, ularning vorislari generallar Flug, Martson, Yerofeev va Kuropatkin to'liq darajada foydalandilar. Turkistonni ma'muriy qayta qurish borasidagi so'ngi urinishlar 1916-yili mustamlaka hokimiyati uchun ekstremal vaziyatda birinchi johon urushi hamda O'rta Osiyo va Qozog'istonda 1916-yilgi milliy-ozodlik qo'g'oloni ketayotgan bir davrda amalgam oshirildi. Bu urinishlar IV Davlat Dumasi sessiyalarida O'rta Osiyodagi 1916-yilgi milliy-ozodlik qo'zg'oloni sabablari to'g'risidagi masalani qizg'in muhokama qilgan Rossiya burjuaziyasi tomonidan ham qo'llab quvatlandi. Turli partiyalarning vakillari hukumatni qattiq tanqid qildilar. Ular podsho tomonidan e'lon qilingan hamda “qonun va huquqlarning barcha elementar talablarini buzish yo'li bilan” amalga oshirilgan, tub axolini urush ortidagi ishlarga olish to'g'risidagi farmonini qo'zg'olon kelib chiqishining asosiy sababi deb bilganlar.

1916-yil avgustida qonun ijodkorligi borasida tajribaga ega bo'lgan markaz mutahasislari va mahalliy arboblar Turkiston O'lsini boshqarishni isloh qilish loyihasini ishlab chiqishga va uni Rossiyaning qonun chiqaruvchi muassasalari ko'rib chiqishlari uchun tayyorlashga kirishdilar. Mazkur so'ngi komissiya ishiga 1916-yil iyulida o'lka General-gubernatori etib tayinlangan A. N. Kuropatkin o'ziga xos bo'lgan g'ayrat bilan rahbarlik qildi.

Podsho milliy-ozodlik qo'zg'olonini harbiy davr qonunlariga ko'ra ayovsiz bostirish vakolatini olgan Kuropatkin ma'lumki bu ishni amalga oshirdi. Biroq bu

kurash hali tugamagani, tuzumga jiddiy tahdid soluvchi ko'plab omillar saqlanib qolganini ham ko'rdi. Ushbu vaziyatda Kuropatkin keskinlikni yumshatish choralarini ko'rishga majbur bo'ldi va o'zidan avvalgi general-gubernator Yerofeevning tub aholini ochiq oydin kamsituvchi qarorlarni bekor qildi. Turkiston ma'muriyati tub aholini urush ortidagi ishlarga olish jarayonida yo'l qo'ygan ochiq-oydin nohaqliklarni taftish qildi, o'lkani boshqarish bo'yicha islohotlarga tayyorlandi.

Ma'muriy masalalar bo'yicha komissiyaning e'tiborida viloyat, uyezdlar ayniqsa, qishloq va tumanlarda boshqaruvni radikal o'zgartirish masalasi turgan edi. Aynan shu yerda ma'muriyat xalq qo'zg'alishlarining oldini olishga ojiz bo'lib, ba'zan o'zining xizmat bo'yicha nohaqliklari bilan ulaning ko'lamini kengaytirgan edi.

Viloyatlarda avvalgidek boshqaruvni markazlashtirish rejalashtirildi. Viloyat boshqaruvlari yangi tuzilgan sohaviy bo'limlar orqali barcha mahkamalarga bo'ysinuvchi muassasalarni o'z nazorati ostiga olishlari lozim bo'lgan.

Uyezdlarda Ichki ishlar vazirligi Rossiyaning Astraxan guberniyasiga nisbatan qabul qilingan nizomlar asosida qayta qurishni amalga oshirish mo'ljallangan. Dehqonlar boshliqlari institutini joriy qilish nazarda tutildi va uyezd ma'muriyatining shahsiy tarkibini kuchaytirishga katta e'tibor berildi. Uyezd boshliqlariga ma'muriy va politsiya masalalari bo'yicha ikkita yordamchi ajratildi; uyezd boshqaruvlari qoshida yangi kolegiol organ – kotib, yordamchilar va tilmochlarga ega uyezd qurultoyi tasis etildi. Uyezd ma'muriyatining tub aholiga nisbatan homiylik funksiyalari otliq-politsiya qismlarining tashkil qilishga ko'ra kengaytirilgan.

Eskidan juda ko'p baxs va ixtiloflarga sabab bo'lib kelgan bo'lis va qishloq boshqaruvi masalasi Kropatkin komissiyasining e'tiborini tortgan. Yangi loyiha qishloq ma'muriyatining mustaqilligi doirasini jiddiy o'zgartirishni ko'zda tutgan. Uning majburiyatlari endi faqat xo'jalik masalalari bilangina cheklab qo'yilgan. Bu ma'muriyat ustidan nazoratni dehqon yoki uchastka boshliqlari olib borishlari lozim edi. Shu bilan bir vaqtda bo'lis ma'muriyatining ahamiyati va nufuzi

kuchaytirilgan. Unga qishloqlarni ma'muriy boshqarish vakolati bilan qishloqlardagi dehqonlar jamoasidan yagona bo'lislarni tashkil qilish huquqi berildi. Boshqacha aytganda, joylardagi mustahkam ma'muriyatlari to'liq ruslashtirildi. Kuropatkin komissiyasining a'zolari quyi ma'muriyatlar uchun rag'batlantiruvchi hususiyatga ega bo'lgan qator choralar – maoshlarini oshirish, hizmat uchun mahsus medallarni joriy qilish va boshqa bir qancha imtiyozlarni belgilashni maqsadga muvofiq deb topdi. Rossiya imperiyasining qattiqqo'llik bilan amalgam oshirilgan siyosati 1892, 1898, 1916-yillarda o'lka aholisining qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi⁶⁷.

Shunday qilib, hatto o'zining inqirozi arafasida ham Rossiya imperiyasi eskidan qolgan “harbiy-xalq” boshqaruvi tizimini yana bir necha o'n yilga saqlab qolishni nazarda tutgan edi. Lekin Turkistonda ma'muriy boshqaruvni qayta qurish, uni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mamlakatda yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga muvofiq modernizassiya qilishning aniq o'ylangan dasturi mavjud emasdi. Loyihalarning umumiy mazmuni mustamlakadan qo'shimcha mahsulotni qat'iy markazlashtirilgan tartibda olinishini ta'minlash va uning aholisi ustidan politsiya tizimini kuchaytirishdan iborat bo'lib qoldi. Mahalliy aparat esa avvalgidek Turkistonni mustamlaka sifatida talon-taroj qilishda tashkilotchilik rolini ta'minlashi lozim edi.

O'rta Osiyo siyosatining markazdagi rahbarlari va uning joylardagi ijrochilari, harbiy-feodal doiralarning vakillari bo'lganlari holda, kuni bitgan davlat institutlarini konservatsiya qilish tarafdorlari edilar. Faqat o'zlari uchun ko'ngilsiz bo'lgan u yoki bu vaziyatdan chiqish va o'ta tor vazifalarni hal qilish yo'llarini belgilab, ular tom manoda davlat ahamiyatiga molik vazifalarni hal qilishni uddalay olmaganlar. Bularning barchasi Turkistondagi mustamlaka hokimiyat tizimiga yaqqol ko'zga tashlanuvchi politsiya tusini bergan. Hokimiyatning ushbu murakkab tuzilishi, bo'g'inlarining bir-biriga bo'ysindirilgani, faoliyatning davlat-byurokratik usullari fuqorolarning ko'p qirrali turmushini uning hududlarini

⁶⁷ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркистане (1867-1917 гг.) – Т.: ART FLEX , 2009. – Б. 59.

imperiya tasdiqlagan namunaga muvofiq chegaralashdan tortib, ularning ma'naviy hayotini nazorat qilishga qadar tartibga solishga qaratilgan edi.

2.2. Politsiya va sud organlarining tuzilishi va uning funksiyalari

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ma'muriy va davlat muassasalari tizimidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda sud tizimi va jazolash organlarida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ular orasida markaziy va mahalliy organlar hokimiyati chegaralarini jiddiy kengaytirgan 1881-yil 14-avgustdagi “Davlat tartibi va jamoat osoyishtaligini qo'riqlash choralari to'g'risidagi nizom” alohida o'rin tutadi. Ushbu “Nizom”ga muvofiq, Rossiya imperiyasi o'z ixtiyoriga ko'ra “kuchaytirilgan” yoki “favqulotda” qo'riqlov holatini joriy qila olardi. “Kuchaytirilgan qo'riqlov” joylarda mavjud davlat tuzumiga qarshi jinoiy tajavuzlar uyushtirilsa, mavjud tartibni saqlash uchun doimiy amalda bo'lgan qonunlarning qo'llanishi yetarli bo'lmagan taqdirda joriy qilinardi. “Favqulotda qo'riqlov” holati esa tajovuzlar tufayli ma'lum joy aholisi buzilgan tartibni zudlik bilan tiklash uchun favqulotda choralar ko'rish zaruriyatini talab qiluvchi qo'zg'olish kayfiyati keltirilganida joriy qilinardi. 1892-yildan boshlab Turkistonda doimiy ravishda «Kuchaytirilgan qo'riqlov yoki “Favqulotda qo'riqlov” holatida bo'lib keldi. Favqulotda holatlar amalda bo'lgan davrda butun mahalliy ma'muriyatning politsiya va jazolash funksiyalari cheklanmagan tus oldi. Shuni takidlab o'tish kerakki Turkiston general-gubernatorligi juda katta hududlarga ega bo'lib, butun Rossiya imperiyasi hududining 1/18 qismini tashkil etgan. Turkiston o'lkasini Rossiya tasirida saqlash uchun katta qo'shin zarur bo'lgan. Turkiston harbiy okrugi tashkil etilgandan so'ng, u yerga 87 polk, 7 ta kazak polkidan iborat 19 ta batalyon mavjud bo'lib, qo'shinng umumiy soni 31313 askar edi. Bu davrda Turkiston aholisini 1847041 kishini tashkil qilganini hisobga oladigan bo'lsak har 59 kishiga 1 ta askar to'g'ri kelgan⁶⁸. General-gubernatorlarga jamoat tartibi va davlat xavfsizligi buzilishini oldini olishga tegishli predmetlar bo'yicha majburiy qarorlarni chiqarish huquqi berilgan. Ushbu qarorlarni buzish

⁶⁸ Костенка Л. Ф. Туркестанские войска и условия их бытовой походной и боевой жизни // Военный сборник, № 5, 1875. – С. 208.

hollari general-gubernator tomonidan ma'muriy tartibda ko'rib chiqarilardi va aybdorlarni 500 rublgacha jarimaga tortish yoki 3 oylik muddatgacha qamoqqa hukm qilish huquqiga ega bo'lgan.

Politsiya boshliqlari va jandarm boshqaruvlari rahbarligida jinoyat sodir etganlik yoki ularga dahldorlikda, shuningdek qonunga xilof tashkilotlarga daxldorlikda asosli shubxa qilingan barcha shahslarni ikki haftagacha hibsdan saqlash huquqi berilgan edi. Shuningdek ularga barcha joy, fabrika va zavodlarda har qanday vaqtda tintuv o'tkazib, har qanday mulkni musodara qilishga ruhsat berilgan. Mahalliy ma'muriyatlar kuchaytirilgan qo'riqlov holati e'lon qilingan taqdirdagina ana shunday huquqlarga ega bo'lgan. Ushbu Nizomning barcha moddalari favqulotda qo'riqlov sharoitida ham to'liq o'z kuchini saqlab qolgan. Bundan tashqari general-gubernatorga qo'shimcha ravishda bir qator keng vakolatlar ham berilgan edi. Jumladan, u 3000 rublgacha jarima solish, bir oy muddatgacha vaqtli nashrlar va oiliy o'quv yurtlarni yopib qo'yish. General-gubernatorga berilgan vakolatlar uning nafaqat barcha boshqaruv, balki sud va jamoat hayoti sohalariga ham aralashuviga imkon yaratgan edi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Rossiya imperiyasi 1908-yilning yozida Turkistonga yo'llagan alohida jandarmlar korpusi qo'mondoni, general-mayor baron Taube milliy-ozodlik harakati va inqilobiy voqealar ishtirokchilariga nisbatan nihoyatda shafqatsiz bo'lishni ta'kidlab, sudlardan ularga faqat o'lim jazosini berishni talab qilgan. Baron Taube "Turkistonda dor qurish uchun xazinadan hech qanday sarf-harajatlar bo'lmasligini uqtirib, dor o'rnini qayrag'ochlar bajaradi"⁶⁹, deb aytib o'tgan. Mirshablarga jangovar o'qlarni osmonga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri olomonga qarata otish huquqidan foydalanishga rasman ijozat qilingan.

Turkiston ma'muriyatiga mahalliy aholiga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralarini rus ishchi-dehqonlariga ham qo'llash huquqi berildi. Davlat nazoratchisi, stats-sekretar (maxfiy kotib) P. A. Xaritonov raisligida o'tgan va

⁶⁹ Садиков Х. Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за независимость в начале XX века. Автореф. Дис. докт ист. Наук. -Т., 1994. – Б. 21.

Turkiston o'lkasi boshqaruvini o'ziga asoslarda tubdan qayta qurishga bag'ishlangan oliy amaldorlar kengashida (1911-y.) Turkiston general-gubernatori A. V. Samsonov General-gubernator hokimiyatini imperator hazrati oliylarining Kavkazdagi noibi hokimiyati kabi asosga yaqinlashtirishni talab qildi. Bu talabni Turkiston o'lkasini 1908–1910-yillar davomida atroflicha taftish qilib, o'lkaning yangi nizomi uchun boy materiallar to'plab qaytgan senator graf K. K. Palen ham qo'llab-quvvatladi. Uning taftish materiallari va imperator hukmiga havola etgan taqdimnomasida imperiya idorasini mustahkamlash, “Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy-politsiya amaldorlariga o'zlariga qarashli aholiga uncha ahamiyatli bo'lmagan xatti-harakatlari uchun qo'llaniladigan jazo berish huquqlarini yanada kengaytirish”⁷⁰ taklif qilingan edi. Palenning fikricha, bu chora “mahalliy turmushni to'g'ri yo'lga solish uchun zarurdir”. Senator Turkiston shaharlarida mustaqil politsiya boshqarmalari, Toshkentda ober-politsmeyster lavozimini joriy etish va o'lkadagi mirshab-politsiya xizmatchilari sonini ko'paytirishni ham taklif qildi. U Turkistonda inqilobiy harakatga rahna solish uchun va Yevropaning Rossiyasidan yopirilib kelayotgan proletariat va agrar g'alayonlar yuz bergan gubernalardan ko'chib kelayotgan dehqonlarning zararli ta'sirini kesish uchun Turkiston general-gubernatorligida tuman politsiyasi mahkamasini tuzish g'oyasini ilgari surdi. Graf Palenning fikrlari imperiya Vazirlar Kengashida tinglab, Turkiston o'lkasi boshqaruv idorasini tubdan o'zgartirish bo'yicha Vazirlar Kengashi a'zosi, Davlat nazoratchisi P. Xaritonov raisligidagi maxsus Kengashida muhokama etildi. Kengash ishiga Turkiston general-gubernatori Samsonovning imperatorga 1909-yil bo'yicha yo'llagan axborotnomasi va senator Palenning taftishi yakunlari asos qilib olingan. Kengash Turkiston general-gubernatorining barcha talablarini asosli deb topgan. Turkistonga oid barcha tadbirlar uning roziligisiz amalga oshirilmasligi kerakligini tasdiqladi. Imperator saroyi, moliya, adliya sohasidan tashqari, barcha vazirliklar idoralarini boshqarishda unga imperiya vaziri vakolatlari berilgan. Metropoliya

⁷⁰ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) - Т.: Фан, 2001. – Б. 26.

hukumati o'z siyosatini faqat shu birgina shaxs, Turkiston general-gubernatori orqali amalga oshiradigan bo'ldi.

Imperiya hukmdor doiralari Turkiston o'lkasining rus va tub aholisi uchun maxsus siyosat dasturini ishlab chiqdi. Rus aholisi o'rtasida inqilobiy harakatni to'xtatish va Turkiston xalqlari o'rtasida milliy-ozodlik harakatining barcha ko'rinishlarini bo'g'ib tashlashga oid bir qator tavsiyalar berilgan. Harbiy vazirlikning Bosh shtabi Osiyo bo'limi Turkiston general-gubernatoriga Ryazan guberniyasi ahvoli haqidagi hisobotni berib, unga imperatorning fikri mavjudligiga e'tiborini qaratdi. Ryazan gubernatori unda inqilobiy kuchlar tag-tomiri bilan yo'qotilmagani, nisbiy osoyishtalik aldamchi bo'lib, inqilob uchqunlari istalgan vaqtda alanga olinishi mumkinligini unutmagan holda “Toj-taxtning sodiq xizmatchilariga doimo ko'z-quloq bo'lib turish lozimligini” uqtirgan va Nikolay II o'z qo'li bilan “Mutlaqo to'g'ri” degan dastxat yozgan edi. Turkiston general-gubernatori markazdan ana shunday andoza-dasturlar olib va keng vakolatlarga ega bo'lib, o'lkada mirshablik holatini kuchaytirdi. Rus mustamlakachi ma'murlari joylarda josuslik nazoratini keng yo'lga qo'ydilar. Toshkent temir yo'li jandarm-politsiya boshqarmasi boshlig'i, alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi Babkin joylardagi xodimlarga 1910-yil 19-iyunda yuborgan ko'rsatmasida 1905–1907-yillar inqilobida va ish tashlashlarda qatnashgan barcha shahslar haqida ma'lumot to'plashni buyurdi. “Hech qanday tashviqotga yo'l qo'yilmasin, deb yozgan edi u, aqllar bezovtaligiga zudlik bilan chora ko'rilsin, ish tashlashdan alohida ogoh bo'linsin”⁷¹. General-gubernatorning “Ishchilar o'rtasida jinoiy adabiyotlar tarqalishiga zinhor yo'l qo'yilmasin”, degan buyrug'iga benuqson rioya etish buyurilgan.

Siyosiy politsiya tomonidan joylarga maxsus so'rov-anketa yuborilgan. Unda quyidagi savollar bor edi: “1905–1906-yillarda ish tashlashlar qancha bo'lgan? Ish tashlash maqsadi va hususiyati qanday? 1907-yili qancha inqilobiy chiqishlar va terror aktlari sodir bo'lgan? Sotsial-demokratlar va sotsial-

⁷¹Садиков Х. Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за независимость в начале XX века. Автореф. Дис. докт ист. Наук. -Т., 1994. – Б. 36.

inqilobchilar tashkilotlarida qancha hodimlaringiz bor?”. Anketada inqilobiy chiqishlar salmog’i har bir joyda qanday bo’lgani va uning yondosh aholiga ta’sirini aniq tasvirlash zarurligi ko’rsatilib, jandarm-politsiya bo’limlari o’z hududlarida yashirin ig’vogarlik bilan shug’ullanuvchi xodimlarga ega bo’lishlari majburiy ekanligi jiddiy tarzda uqtirilgan. Imperiya ichki ishlar vazirligi politsiya departamenti Maxsus bo’limi yuborgan mutlaqo maxfiy yo’llanmasida politsiya-jandarmeriya bo’limlari boshliqlariga aholi o’rtasida agentura tarmog’iga ega bo’lish ishiga shahsan javobgar ekanliklari ta’kidlanib, ular ishchi tashkilotlari, inqilobiy firqalarda o’z josuslarini orttirishlari juda muhimligi alohida ko’rsatilgan. Bu tadbir, maxsus bo’limning fikricha, “o’tgan 1905-yildagiga o’xshash voqealarning oldini olgan. Maxsus bo’lim tavsiyalari asosida o’lkadagi barcha amaldorlarga general-gubernator tomonidan hukumatga qarshi yo’nalishdagi harakatlar to’g’risida arziyas ko’rinishda bo’lsa ham, xabar qilish, ayniqsa, uyushgan harakat, yo ish tashlash hollariga alohida e’tibor qaratish topshirildi. Ana shunday hollarni sinchiklab o’rganish juda zarur va maqsadga muvofiq ekanligini tajriba ko’rsatadi, deb yozgan edi o’z ko’rsatmasida general-gubernator. Ba’zan arziyas, samarasiz va befoyda ko’ringan bir kunlik ish tashlash, yo boshqa hollar ma’lum muhitning, ayrim shaxslarning ichki intizomi, qobilyati, tashkilotchiligi va faol chiqishga layoqatini ko’rsatish uchun sinov vazifasini o’taydi. Bunday hollarni tadqiq etish orqali dastlab filial bo’limlar, keyin esa bunday tashkilotlarning markaziy idoralirini aniqlashga muvaffaq bo’lingan ⁷².

Alohida jandarmlar korpusi shtabi boshlig’i general shtab general-leytenant Gerselman esa temir yo’l ishchilari ustidan nazoratni kuchaytirish bilan bir qatorda ularning atrofidagi yerlarda paydo bo’luvchi har qanday shahslarni nazoratga olish to’g’risida maxfiy ko’rsatma yo’lladi. Rossiya imperiyasi 1892-yil 18-iyundan kuchga kirgan “Harbiy holatda deb e’lon qilingan joylar haqidagi qoidalar”ni Turkiston o’lkasida tatbiq etdi.

“Kuchli muhofazada” deb e’lon qilingan joyda Turkiston general-gubernatori majlis-yig’inlarni tarqatib yuborish, savdo-sanoat korxonalarini

⁷² Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) – Т.: Фан, 1997. – Б. 45.

yopish, matbuot organlarini ta'qiqlash, istagan odamini surgun qilish, jarimaga tortish va boshqa huquqlarni olgan. “Favqulodda muhofaza” deb e’lon qilingan joyda esa butun hokimiyat general-gubernator yoki u tayinlagan bosh noib qo’liga o’tgan. 1892-yil 18-iyundagi “qoidalar” esa harbiy holatni o’rnatib, fuqarolar ishini ham harbiylar qo’liga topshirdi. Turkistonda har ikki mirshablik qonunlari (1887-yilgi Nizom va 1892-yilgi qoida) qisqa uzilishlar bilan 1892–1917-yillarda muntazam amal qildi.

Turkistondagi mustamlakachilar markazdan olingan keng vakolatlari yetmaganday, endi o’lkada xuddi mustabid xonlar zamonasiga taqlidona, eng oliy jazo-o’lim jazosini oshkora ijro etishga ruxsat olishgan.

General-gubernator harbiy vazirga yo’llagan maktubida yozgan: “Tajriba shuni ko’rsatdiki, bu o’lkada oshkora qatl ijrosigina mahalliy aholiga yaxshi ta’sir ko’rsata oladi. Sizdan, Rossiya hududida o’lim hukmini oshkora ijro etmaslik haqidagi qonunni Turkiston o’lkasiga tatbiq etmaslik uchun zoti Oliylari ijozatlarini olib bersangiz, deb iltimos qilaman”⁷³. Rus amaldorlari Turkiston xalqlari huquqlarini cheklash sababini shunday izohladilar: “Turkiston o’lkasining yerli aholisi hali juda past rivojlanish bosqichida turibdi. Ular o’z ma’muriyati va sudini o’zlari saylash huquqini tushunishi va qadriga etishi uchun hali juda go’r va nodondir. Mazkur jamiyat qonun tomonidan o’ziga berilgan haq-huquqlardan foydalanishni bilmaydi. Bu huquq uning faqat zarariga xizmat qiladi”. Rus shovinistlari xalqning ko’tarilishi sababini esa quyidagicha izohlashgan: “O’lkani bir hovuch rus qo’shini bilan istilo qilishda misli ko’rilmagan jangovar matonat ko’rsatgan rus kishisi erlilar o’rtasida afsonaviy bahodir timsoliga aylangan edi. Kelgindilarning temir irodasi oldidagi qo’rquv esa erli aholida musulmonchilik tarbiyalangan g’ayridinlarga nafratini ular qalbining eng tubiga yashirgan edi. Ana shuning uchun ham dastlab rus hokimiyati ularni osongina boshqarib keldi. Ammo endilikda erli omma ilk istilochilar qiyofasini unuta boshladi”. Andijon tumanboshisi polkovnik I. Brjezitskiy bu fikrni yanada oydinlashtiradi: “O’lkadagi 27 yillik xizmatimdan kelib chiqib shunday qat’iy xulosaga keldim: bizning

⁷³ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.). – Т.: Фан, 1997. – Б. 63.

yovvoyi yerlilarga insonparvarlik mutlaqo to'g'ri kelmaydi". Knyaz Mansurov Davlat Dumasining yopiq majlisida Rossiyada yashirin tarzda hukm surib, 1861-yilda bekor qilingan qullik (krepostnoylik) tuzumi aslida Turkistonda benuqson amalga oshirilganini tan olishning zamirida tarixiy haqiqat yotardi. Rossiya parlamenti Davlat Dumasida noib knyaz Mansurov Turkistonda krepostnoy huquq amalda ekanligi haqida gapirganda hech qanday mubolag'a bo'lmagan.

1907-yil avgustdayoq hukumat farmoyishi bilan Toshkentda Turkiston o'lkasida politsiya qidiruvini uyushtirish uchun Maxsus bo'lim tashkil qilingan. Bo'limga 10 nafar "Filyor" – sirdan kuzatish agentlari va kuzatuv boshlig'i yuborilgan. Mahalliy politsiya vat emir yo'l jandarm bo'limlarining boshliqlari Maxsus bo'limga o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy harakat bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni ma'lum qilishlari shart edi. Mahsus bo'lim shuningdek mahalliy politsiya va jandarmeyalarni nazorat qilish huquqini ham qo'lga kiritgan.

1907-yil oktyabrda Maxsus bo'lim o'rnida Turkiston tuman qo'riqlov bo'limi tashkil qilindi⁷⁴. Qo'riqlov bo'limlari to'g'risidagi maxsus nizom ular ".....davlat jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni mahfiy tekshirish bilan shug'ullanishi", tekshirish natijalari har oyning beshinchi kunida Politsiya departamentiga taqdim etilishi lozimligini belgilagan edi.

Keyinchalik mahalliy tashkilot politsiya va qidiruv muassaslari surishtiruv ishlari bilan favqulotda band ekanini bahona qilib, o'lka jandarm boshqaruvini tashkil etish talabi bilan chiqqan. Turkiston o'lkasi boshliqlarining iltimoslariga javoban katta mablag' ajratildi va markazdan qidiruv ishlari bo'yicha mutahassislar yuborilgan, biroq ushbu masalaning uzil-kesil etilishiga urush va u bilan birga ma'muriyat boshiga yog'ilgan yangi muammolar halaqit bergan.

Rossiya imperiyasi hukumron doiralari o'rtasida Turkistonda sud tizimini joriy etish uzoq tortishuvlarga sabab bo'lgan. Chunki yangi hukumat o'lka aholisini sud va qonunchilik tizimi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan va

⁷⁴ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. – Б. 132.

mavjud tizimni extiyotkorlik bilan o'zgartirishga harakat qilgan⁷⁵. 1865-yil 6-avgustdagi Nizomga ko'ra o'troq aholi uchun qozilik sudlari, ko'chmanchi aholi uchun esa biylik sudlari amal qiladigan bo'ldi. Qozikalon lavozimi bekor qilinib, barcha qozilar huquqi jihatdan tenglashtirildi. Loyihaga ko'ra qozilik va biylik sudi volost boshliqlari va ularning yordamchilari tomonidan uch yil muddatga saylanadigan bo'ldi⁷⁶. Kaufman 1968-yil yanvarda mahalliy aholi uchun oqsoqollar, ariq oqsoqollarini ham uch yil muddatga saylash huquqini bergan. Shunigdek aholiga muammolar yuzasidan o'z qozisiga hohlarsa rus sudlariga murojat qilish huquqini bergan⁷⁷.

Turkistonda sudlov tizimining qayta tuzishdan maqsad, uni Rossiya imperiyasidagi shunday tizimga moslashtirish va uni ma'muriyatdan nisbatan mustaqil qilishdan iborat edi. Biroq yuqorida ta'rif keltirilgan mohiyat e'tibori bilan mustamlaka tizimining so'ngi kunlariga qadar amalda bo'lgan kuchaytirilgan va favqulotda qo'riqlov to'g'risidagi nizomlar tufayli sudning ma'muriyatdan ajratilishi faqat rasmiy harakterga ega bo'ldi. Shunga qaramay XIX asr oxiridagi sud tuzilishi oldingisidan farq qilgan.

Turkistondagi adliya boshqaruvida ham o'ziga xos mustamlakchi mezonida ish tutdildi. 1865–1886-yillar mobaynida o'lkada umumsaltanat rus sudlari va xalq sudlari, ya'ni shariyat asosida ish ko'ruvchi qozi sudlari faoliyat ko'rsatgan. Rus sudlariga tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, miravoy sudyalari qurultoylari, harbiy sud komissiyalari kirgan. Tuman sudlari mulkdan mahrum etishga daxldor bo'lmagan jinoiy ishlar, davlat hazinasi manfaatlariga oid bo'lmagan 2000 so'mgacha miqdorda bo'lgan da'volarni ko'rishgan. Viloyatlar boshqarmalari esa tuman sudlari hukumlaridan shikoyatlarini, ularning ishlarini qayta ko'rish kabi masalalarni hal qilgan. Ular davlat vazifalarini bajarishdagi jinoyatlar, hokimiyatga qarshilik ko'rsatish, qaroqchilik, davlat mulkini o'g'irlash,

⁷⁵ Тиллабоев С. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008. – Б. 87.

⁷⁶ Тиллабоев С., Замонов А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 53.

⁷⁷ Бартольд В. В. Сочинения II том. Общие работы по истории Средней Азии, работы по истории Кавказа и восточной Европы. – Москва, 1963. – С. 358.

soxta pul yasovchilarning ishlari kabi tuman sudlari vakolatlariga kirmagan ishlarni ham ko'rishgan⁷⁸.

Rossiya imperiyasi mustamlakachi amaldorlar hukumatdan islom dini vakillariga sud, oila-nikoh, mol-mulk merosi va taqsimot kabi ishlarni bajarishga ruhsat bermaslikni talab etganlar. Shuning uchun ham imperiya hukumati o'z yo'lidagi mana shu to'siqlarni yo'q qilish maqsadida 1880-yili barcha viloyat boshliqlariga hamma sohada boshqaruvni o'z qo'liga oluvchi mahkama tashkil etish vazifasini yukladi. Natijada davlat sudlari bilan bir qatorda uch xil ko'rinishdagi sud mahkamalari tashkil etilgan:

1. Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo va Yettisuvning o'troq aholisi uchun tashkil etilgan sudlar.

2. Shu viloyatlarning ko'chmanchi aholisi uchun tashkil etilgan sud mahkamalari.

3. Kaspiyorti viloyatlarining mahalliy aholisi uchun tashkil etilgan sud mahkamalari⁷⁹.

1886-yilgi "Nizom"ga ko'ra uyezd sudlari tugatilib ularning o'rniga uchastka miravoy sudlar ta'sis etildi. 1864-yildagi "Nizom"ga ko'ra miravoy sudyalari shahar va qishloq boshqaruv organlari tomonidan uch yil muddatga saylanishi lozim edi. Biroq Turkistonda sudlov nizomlari qabul qilingan davrga kelib Aleksand III ning aksilislohatlari amalgam oshirilib, 1864-yil nizomlarining u yoki bu darajada demokratik institutlari tarqatib yuborildi. Peterburg, Moskva va Odessadan tashqari barcha yerda miravoy sudyalari instituti bekor qilinib, tayinlanuvchi shahslar: shaharlarda shahar sudyalari, qishloqlarda zemestvo boshliqlari bilan almashtirildi. Turkistonda ham miravoy sudyalari saylanmay, balki tayinlanardi. Viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlari viloyat sudlari bilan almashtirildi. Ularning qoshida sud tergovchilari, viloyat prokurorlari va ularning o'rinbosarlari lavozimlari tasis qilingan. Viloyat sudyalari mirovoy sudyalari qurultoylari funksiyalarini bajarar va mirovoy sudyalari vakolatiga kirmaydigan

⁷⁸ Muhamedov H., Muqimov Z., Husanov O. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, 2011. – B. 201.

⁷⁹ Болтабоев С. Чоризм ҳуқумронлиги даврида ислом. – Наманган, 2005. – Б. 33.

fuqoroviy ishlarni, shuningdek muqaddam viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlari yuritgan ishlarni ko'rgan.

Keyinchalik, 1898-yil islihot o'tkazilib “sud nizomlarini Turkiston o'lkasi viloyatlarida joriy qilish qoidalari”ga muvofiq tugatilgan viloyat sudlari o'rniga okrug sudlarini va butun Turkiston uchun bosh sudlov idorasi huqulariga ega bo'lgan Toshkent sudlov idorasi joriy qilindi. U faqat imperiyaning oily sudlov idorasi – Senatga bo'y singan. Okrug sudlari Turkistonning beshta viloyatida joriy qilingan. Ular sud raisi, uning o'rinbosari va sud a'zolaridan iborat bo'lgan. Okrug sudlarining yig'ilishlarida sudlanuvchining aybdor yoki aybdor emasligini belgilovchi sud maslahatchilari ishtirok etardi. Jazo chorasini sudya va sudning ikki a'zosi belgilagan. Sud maslahatchilari ishtirokida qabul qilingan okrug sudlari qarorlari qat'iy hisoblangan, ular ishtirokisiz qabul qilingan qarorlar ustidan esa Toshkent sudlov palatasiga shikoyat berish mumkin bo'lgan.

Okrug sudlari va Toshkent sudlov palatasi tomonidan sud maslahatchilari ishtirokida qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat faqat sud amaliyotining qonuniy tartibi buzilgan holdagina berilishi mumkin edi. Shikoyat Rossiya imperiyasi oily idorasi Senat tomonidan ko'rib chiqilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan sudlarning faoliyati eng avvalo, Turkistondagi inqilobiy va milliy ozodlik harakati ishtirokchilariga qarshi qaratilgan edi. Sudlov statistikasi Turkistonda dehqonlar harakatlariga qarshi qatag'onlarning kuchayganligini qayd etdi. Ular quyidagi moddalar bo'yicha nomlanardi: “boshqaruv tartibiga qarshi harakatlar”, “tartib va osoyishtalikni buzish”, “zo'lik ishlatish bilan talonchilik qilish”, “mansabdor shahslarni haqorat qilish” kabilar edi. Birgina Farg'ona viloyatida 1904-yilda faqat miravoy sudyalari tomonidan: “boshqaruv tartibiga qarshi harakatlar” 48 ta, tartib va osoyishtalikni buzish bo'yicha 113 ta, talon-taroj va mulkka zarar yetkazish bo'yicha 206 ta ish ko'rib hukm chiqarilgan. Mazkur raqamlar hokimiyat zulmi va zo'ravonligiga qarshi qaratilgan kurashlarning o'sib borganidan dalolat bergan. Sud amaliyoti jarayonida sud hujjatlariga nopisandlik ko'zga tashlangan. Guvohlarni chetlashtirish yoki ularni davlat xizmatida bo'lib, ma'muriyatga bo'ysinuvchi mahsus ekspertlarning

ma'lumotlari bilan almashtirishga yo'l qo'yilgan. Bularning barchasi mustamlaka hokimiyatiga sudlov mashinasini o'zi uchun maqul tarzda moslashtirilganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida tilga olingan sudlar bilan bir qatorda Turkistonda harbiy sudlar ham faoliyat olib borgan. Ularda faqat harbiy unvonga ega kishilar emas, balki ishlari istisno tariqasida mazkur sudlarga oshirilgan shahslar ham sud qilingan. Harbiy sudlar dastlab Samarqand, Marg'ilon, O'sh kabi shaharlarda faoliyat ko'rsatgan⁸⁰. 1892-yilda hukumatning "harbiy holatda deb e'lon qilingan hududlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilingan. Bu qaror mustamlaka hokimiyatining zo'ravonligini ta'minlagan. Unga ko'ra harbiy bo'lmagan fuqorolar hokimiyatga qarshi isyon qilgani, politsiya va boshqa amaldorlarga hujum qilgani, qurolli qarshilik ko'rsatgani uchun harbiy sudga tortilishi mumkin bo'lgan⁸¹. Turkistonda mustamlaka tuzimi inqirozga yuz tutgan yillarda xalqni jazolash uchun harbiy sudlar keng ko'lamda joriy qilingan.

1916-yil iyulda Turkistonda mustamlakachilikka qarshi eng yirik milliy-ozodlik qo'zg'oloni boshlangan. Yuzaga kelgan vaziyatdan qattiq tashvishga tushgan Rossiya imperiyasi hukumati qo'zgonni bostirish uchun shoshilinch choralar ko'rishga kirishgan. 1916-yil 17-iyulda Turkistonda harbiy holat e'lon qilindi. Ommaviy va tartibsiz hibsga olishlar o'tkazilib, qo'zg'olon qatnashchilari harbiy sudga berilgan. Harbiy sudlov nizomining moddalarida ko'rsatilgan tartibda imperiya armiyasi ofitserlari sirasidan "mahsus harbiy sudlar" tashkil qilindi. Harbiy vazir D.S. Shuvayev mahalliy ma'murlarga yo'llagan xabarnomasida qo'zg'olonga taluqli ishlarni zudlik bilan ko'rib chiqish uchun ushbu sudlarga o'lkaning barcha hududlariga hech qanday to'sqinliksiz kirish, ayrim shahslar ustidan yetarli ma'lumotlar olingan zahoti boshqa qatnashchilarning tergovni tugashini kutib o'tirmasdan, ularni sudga tortish huquqi bergan.

Sud jarayonlari yopiq eshiklar ortida o'tkazilgan. Sud ayblanuvchilar taqdirini ko'pi bilan ikki-uch kunda hal qilgan.

⁸⁰ Muhamedov H., Muqimov Z., Husanov O. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, 2011. – B. 201.

⁸¹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. – Б. 139.

Rossiya imperiyasi tomonidan qayta tashkil qilingan sudlar, harbiy, mahsus sudlar va boshqa sudlar bilan birga samoderjaviye siyosiy tuzumi manfaatlarini himoya qilar va mahalliy aholi vakillari ustidan to'la huquqiy zo'rvonlikni amalga oshirgan. Umuman aytganda, mustamlakachilik siyosati v amilliy zulm, siyosiy va insoniy huquqlarni yo'qligi, adolatsizlik va zo'rvonlik mazlum xalqning ozodlik kurashlariga zamin hozirlagan⁸².

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, mustamlaka ma'murlar o'zining mustamlakachilik, kuch ishlatish, qo'rquv siyosati orqali Turkiston xalqlarini doimiy itoatda ushlab turishga harakat qilganlar. Bunda asosan politsiya, sud va jazo organlariga berilgan cheklanmagan vakolatlardan foydalangan xolda o'lkada o'zining qatog'onchilik siyosatini olib borganlar. Ushbu tashkilotlar qatog'oni ijro etuvchi asosiy organlar bo'lgan.

2.3. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyat: Turkiston muhtoriyati

1910 – 1914-yillarda Turkiston o'lkasida o'zlikni anglash jarayonlari kuchaya boshladi. Birinchi johon urushi butun Rossiya imperiyasi, shuningdek Turkiston o'lkasi aholisini ham og'ir ahvolga soldi. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasi Rossiyaning chekka o'lkasiga aylantirilib, o'lkani iqtisodiy jihatdan ham o'ziga qaram qilgan edi. XX asrning boshlarida Sharqning eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligi – jadidchilikka asos solindi⁸³. Bu esa Turkiston o'lkasida milliy o'zlikni anglash jarayonini yuqori bosqichga olib chiqdi. Aynan shu davrga kelib esa Turkiston o'lkasida siyosiy jarayonlar keskinlashib, avvaldan toyyorlanib kelingan istiqlolchilik harakatlari boshlab yuborildi. Turkiston 1917-yilda muhim siyosiy o'zgarishlar arafasida turardi. Mintaqa xalqlari Rossiyaning 50 yillik mustamlakachilik zulmiga qarshi tinimsiz ravishda milliy-ozodlik harakatini olib borganlar. Dastlab ma'rifatparvarlik harakati sifatida vujudga kelgan jadidchilik Turkiston taqdiri hal

⁸² Зиёев Х. Ўзбекистон Мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. (милoddan олдинги асрлардан то 1991-йил 31 августгача) – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 158.

⁸³ Исмоилбек Гаспринский (Гаспарали) Хаёт ва мамот масаласи. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 4.

qiliniyotgan bir pallada o'zbek xalqini g'oyaviy jihatdan birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi.

1917-yil fevralda Rossiyada inqilob g'alaba qozonib, imperiya ag'darib tashlandi. Mana shu voqeadan so'ng Turkistonda imperiya ma'murlari boshchiligidagi eski apparat yana bir oy davomida faoliyat ko'rsatdi. Turkiston o'lkasining oliy ma'muriyati inqilobning dastlabki kunlaridanoq unga nisbatan ochiq-oydin dushmanona kayfiyatda bo'lgan. Eng avvalo, General-gubernator Kropatkin Davlat Dumasi 1917-yil 28-fevral kuni kechqurun yuborgan Pedrogradda inqilob g'alaba qozongani to'g'risidagi xabarni gazetalarda e'lon qilinishini uch kungacha ushlab turgan. Pedrograd voqealarning yashirilgani mustamlaka ma'muriyatining sarosimada qolganidan dalolat beradi. Kuropatkin 3-martda Nikolay II taxdan voz kechgani haqidagi xabar kelgunga qadar podsho hokimiyati tiklanishiga umid qilingan edi. 1917-yil fevral inqilobidan so'ng bolsheviklar o'zlarining yomon niyatda bo'lgan ilk qadamlarini targ'ibot va tashqivot yo'llari bilan boshlab yuborganlar⁸⁴.

1917-yil boshlarida Petrogradda bo'lib o'tgan voqealar ta'siri ostida Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun qizg'in harakat boshlandi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'lka muhtoriyat masalasi asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muhtoriyat berish maqomi g'oyasi nafaqat ziyolilar orasida, hatto oddiy aholi orasida ham ancha ommalashib borgan.

Turkiston o'lkasi ishchi, askar va dehqonlar sho'rosi III qurultoyining ulug' davlatchilik va shovinistik ruhda qabul qilgan qarori, albatta, mahalliy tub yerli aholining talab ehtiyojlari va qiziqishlariga mutlaqo javob bermas edi. Shu bois Turksiton o'lkasidagi birinchi Islomiy ulamo va boshqa shular singari demokratik tashkilotlar milliy masalani hal qilish bo'yicha sho'rolar hukumati, shaxsan bolsheviklar dohiysi V.I. Leninning o'zi e'lon qilgan "Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi" (1917-yil 2-noyabr) va "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" (1917-yil 22-noyabr) murojaatnomasi kabi hujjatlariga asoslanib, milliy istiqlol muammosini o'zlari mustaqil hal qilishga

⁸⁴ Амир Саййид Олимхон Бухоро халқининг хасрати тарихи. – Т.: Фан, 1991. – Б. 19

kirishganlar. Bu borada 1917-yil 26 – 29-noyabrda Qo’qonda o’z ishini olib borgan Turkiston o’lkasi musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi katta ahamiyatga ega bo’ldi. Qurultoyda 200 dan ortiq vakillar qatnashdi. Ular o’zbek, qozoq, qirg’iz, tojik, rus, tatar, yahudiy va boshqa millatlarning vakillari edilar. Qurultoy ishida Farg’ona viloyatidan 150, Sirdaryo viloyatidan 21, Samarqand viloyatidan 1, Kaspiyorti viloyatidan 4, Buxorodan 2 vakil qatnashgan. Unda “Sho’royi islom⁸⁵”, “Sho’royi ulamo”, “O’lka musulmon Sho’rosi”, “Harbiy musulmon Sho’rosi”, O’lka yahudiylari hamda mahalliy yahudiylar tashkilotlaridan vakillar ishtirok etganlar.

O’z-o’zidan ma’lumki, qurultoyda qatnashgan vakillar tarkibi “Qo’qon muxtoriyati” millatchilik negizida maydonga kelgan, degan uydirma va tuhmatning hech qanday asosga ega emasligini to’la tasdiqlagan.

Qurultoyda milliy ziyolilarning demokratik ruhdagi bir qator vakillari shunday fikrlar bilan chikdilarki, ularning bu fikrlari haqiqiy baynalmilalchilikning namunasi edi.

Jumladan, taniqli o’zbek ma’rifatchisi, jadidlar harakatining sardori Mahmudxo’ja Behbudiy qurultoy vakolagi masalasida so’zlab: “Qurultoyda Turkiston Yevropa aholisi vakillari ishtirok etayogganligining o’ziyoq qurultoy qabul etgan qarorlar obro’liroq bo’ladi” degan edi. Shu sababdan, M. Behbudiy qurultoy hay’ati shunday shakllanishi kerakki, unda turli musulmon guruhlardan tashqari, ruslar, yahudiy lar va boshqalar ham bo’lsin, deb hisoblagan. Bu taklifni Andijon va Qo’qon vakillari qo’llab-quvvatlaganlar. Qo’qon vakillari qurultoy hay’atini vakillarning diniy va milliy belgilarga qarab emas, balki bilimdonligiga, ijodkorligiga, ishbilarmonligiga qarab saylashni taklif qildilar. Xullas, ochiq ovoz berish yo’li bilan qurultoy hay’atiga Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev, Mustafo Cho’qayev, Obidjon Mahmudov, Yurg’uli (Yurali) Agayev, Salomon Abramovich Gersfeld, Islom Shoahmedov, Kamolqori, S. Akayev, Kishchinboyev,

⁸⁵ Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилик қурилиш тажрибаси. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 78.

Abdurahmonbek O'razayev, Abdul Badin, Tiliyev, Karimboyev, Mahmudxo'ja Behbudiy saylanganlar⁸⁶.

Qurultoy kun tartibiga – 1. O'lkani boshqarish shakli; 2. Turkistonning “Kazak askarlari, Kazak tog'liklari va erkin cho'l odamlarining Janubiy-Sharqiy Ittifoqi (YuVS)”ga kirishi masalasi; 3. Ijroiya qo'mitani saylash, unga beriladigan topshiriqlar; 4. Turkiston Markaziy musulmonlar sho'rosini qayta saylash; 5. Bugungi ahvol; 6. Turkiston ta'sis majlisi; 7. Militsiya; 8. Moliya va boshqa masalalar qo'yilgan⁸⁷.

Qurultoy muhokama qilingan masala yuzasidan Turkiston taraqqiyoti va istiqbolini belgilab beruvchi tarixiy hujjat qabul qildi. Deyarli yakdillik bilan qabul qilingan rezolyutsiyada (2 kishi qarshi) shunday deyilgan edi: “O'lka musulmonlarining favquloddagi IV qurultoyi Turkistonda yashab turgan elatlarning ulug' Rossiya inqilobi e'lon qilgan asoslarda o'z-o'zini belgilashga bo'lgan istak-irodasini ifodalab, Turkistonni Rossiya federativ demokratik respublikasiga birlashgan hududiy muxtoriyat deb e'lon qildi va muxtoriyat shaklini belgilashni eng yaqin muddatda chaqirilishi kerak bo'lgan Turkiston ta'sis majlisiga havola etadi hamda tantanali sur'atda shuni ma'lum qiladiki, Turkistonda yashab turgan mayda millatlariing huquqlari har qanday yo'llar bilan himoya etiladi”.

Qurultoyning 28-noyabrdagi majlisida tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi Turkiston muxtoriyatidir, degan qat'iy fikrga kelindi. Turkiston o'lkasi xalqlari Ta'sis qurultoyi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston xalq (milliy) majlisi qo'lida bo'ladi, degan g'oya ilgari surilgan.

Qurultoy Muvaqqat Kengash a'zolaridan hukumat tuzilishi va uning tarkibi 12 kishidan iborat bo'lishini belgilab olingan⁸⁸. Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolarining soni esa, ilgarigi Butunrossiya Ta'sis Majlisiga Turkiston o'lkasidan

⁸⁶ Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилик қурилиш тажрибаси. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 34.

⁸⁷ Yuqoridagi asar. – B. 126.

⁸⁸ Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилик қурилиш тажрибаси... – Б. 129.

saylangan nomzodlar soniga qarab (32 kishi) belgilangan. Xalq majlisi tarkibi 54 nomzoddan iborat bo'lishi ko'rsatilgan. Uning tarkibiga shaharlarning mahalliy boshqarmalaridan ham 4 vakil kiritilgan. Xalq majlisidagi o'rinlarning uchdan bir qismi 18 kishi yevropa millatiga mansub xalq vakillariga ajratilgan. Bu hol muxtoriyatchilarning insof, diyonat va imon asosida haqiqat, adolat va demokratiyaning yuksak cho'qqisida turib faoliyat ko'rsatganliklarning yorqin namunasidir. Chunki o'sha davrda yevropa millatlariga mansub aholi Turkiston o'lkasidagi umumiy aholi soniga nisbatan 4,5-5 foizni tashkil etgani holda Xalq majlisida ularga 3/1 o'rin ajratilgan edi. Darvoqe, Turkiston o'lkasi Ta'sis Majlisiga saylovlar haqidagi Nizom loyihasida ham nomzodlar umumiy soni 234 o'rin bo'lgani holda, uning ikki guruhga musulmonlar va nomusulmonlar guruhlariga ajratilishi ham ana shu o'lchov va andozadan kelib chiqqan edi. Yevropa millatiga mansub xalq vakillariga bu yerda ham 3/1 o'rin ajratilganligi diqqatga molikdir. Nihoyat uzoq tortishuvlardan so'ng qurultoyda Muvaqqat hukumat saylandi. Uning tarkibiga 8 kishidan iborat quyidagi kishilar kiritilgan:

Muhammadjon Tinishboyev Bosh vazir, ichki ishlar vaziri, II chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston qo'mitasining a'zosi, temir yo'l muhandisi. Islom Sulton Shoahmedov Bosh vazir o'rinbosari; Butunrossiya musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos. Mustafu Cho'qayev Tashqi ishlar vaziri, Muvaqqat Hukumat Turkiston Komitetining a'zosi, Turkiston Musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining raisi, huquqshunos. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev harbiy vazir, Butunrossiya musulmonlar kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos. Yurali Agayev yer va suv boyliklari vaziri, agronom. Obidjon Mahmudov oziq-Ovqat vaziri, Qo'qon shahar dumasi raisining o'rinbosari, jamoat arbobi. Abdurahmon O'razayev ichki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos. Solomon Abramovich Gersfel'd moliya vaziri, huquqshunos⁸⁹.

Shu o'rinda Muvaqqat hukumati tarkibi nima uchun 12 ta emas, balki 8 kishi kirdi degan savol tug'ililadi. Chunki hukumat tarkibidagi 4 kishi yevropa

⁸⁹ Ражабов К., Хайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йиллар). – Т.: Университет, 2002. – Б. 20.

millatlariga mansub aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach, qayd etilishi ko'zda tutilgan⁹⁰. Bu esa Turkiston Muxtoriyati qanchalik demokratik va xalqchil hukumat ekanligini ko'rsatuvchi bir dalildir.

Turkisgon musulmonlarining IV qurultoyi Muvaqqat hukumat kengashi (milliy majlis)ni ham saylagan. Uning tarkibiga quyidagi kishilar kirgan: Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Mustafu Cho'qayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sadridinxon Sharifxo'jayev, Qo'ng'irxo'ja Hojiyev, Ismatulla Ubaydulin, Saidnosir Mirjalilov, Said Ja'farboy Saidov, Islom Sulton o'g'li Shoahmedov, Abdurahmonbek O'razayev, Hidoyatbek Yurguli Agayev, Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev, Mirodil Mirahmedov, Toshxo'ja Ashurxo'jayev, Abduqodir Qushbegiyev, Obidjon Mahmudov, Jamshidbek Qorabekov, Solomon Abramovich Gersfeld, Abdusamad Abdusalimov, Ubaydulla Dorbisalin, Muso Akchurin, Mustafu Mansurov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ibrohim Davletshin, Muhammadjon Tinishboyev, Halil Shirinskiy, Tolibjon Musaboyev, Olimxonto'ra Shokirxonto'rayev, Sobirjon Yusupov va Odiljon Umarovlar. "Sho'royi ulamo"ning rahbari Serali Lapin Kengash tarkibiga rais sifatida kiritilgan.

Qurultoy iqtisodiy masalalarga ham katta e'tibor bergan. Muxtor jumhuriyat Angliya hukumatidan harbiy yordam bilan bir qatorda iqtisodiy yordam olishi ham ta'kidlangan. Bu holni o'lkada hukm surayotgan ochlik takozo etar edi. Non mahsulotlarini paxta va junga almashtirish masalasida bir fikrga kelingan. Shu munosabat bilan "O'lkaning Janubiy-Sharqiy ittifoqqa qo'shilishi" to'g'risida muhim qaror qabul qilingan. Chunki, O'lka Shimoliy Kavkaz va Orenburgdan g'alla mahsulotlari olgan. Ayni chog'da Turkiston o'z paxtasini ularga sotishi ham mumkin edi. Qolaversa, "Janubiy-Sharqiy Ittifoq" hududi aholisining katta qismi musulmonlardan iborat edi.

Turkiston muxtor respublikasi mafkurasining negizini islom dini g'oyalari tashkil etishi qurultoyda alohida ko'rsatilgan. Bu o'lka musulmonlarining II va III qurultoylarida ham ta'kidlangan edi. Qurultoy o'z ishini yakunlashi oldidan yana

⁹⁰ Аъзамхўжаев С. С. Туркiston мухторияти – жадидлар миллий демократик давлатчилик ғояларининг амалдаги ифодаси // Жадидчилик: ислохот, янгилашиш, мустақиллик ва таракқиёт учун кураш. Даврий тўплам. № 1. – Т.: Университет, 1999. – Б. 155.

bir marta Turkiston Muxtor respublika deb e'lon qilinganini tantanali ravishda takrorlagan. Noiblar bu so'zlarni tik turib tingladilar, xudoga shukronalar bildirib, Qur'oni Karim suralaridan tilovat qilganlar⁹¹.

Turkistoi muxtoriyatining muvaqqat hukumati nomidan uning a'zolari: M. Tinishboyev, M. Cho'qayev, U. Xo'jayev, Yu. Agayev, O. Mahmudov, A. O'razayev, I. Shoahmedov, S. Gersfeld imzosi ostida xalqqa qarata murojaat qilindi. Murojaatnoma "Ulug' Turkiston" (1917-yil 8-dekabr)da e'lon qilingan⁹².

Murojaatda ko'p millatli Turkiston xalqining istagiga muvofiq demokratik inqilobning ulug' asoslari bo'lmiga xalqlarning ozodligi, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashini amalga oshirish maqsadida Turkiston umummusulmonlarining favqulodda O'lka qurultoyi Turkistonni Rossiya Federativ Respublikasi tarkibidagi muxtor respublika, deb e'lon qilgani qayd etilgan.

Fitrat Turkiston muhtoriyati haqida quyidagi fikrlarni bildirgan "ellik yildan beri shundayin haqsizliklar va zulmlar orasida bo'g'ulib kelgan Turkiston bukun o'z muxtoriyatini Ho'qandda e'lon qildi. Ho'qandda ijtimoi' etgan Turkistonning to'rtinchi qurultoyi o'z bayonnomasinda Fedaratsa asosiga qurulg'an Rusiya jumhuriyati ila birlikda qolg'ani holda Turkiston muxtoriyati degan so'zni yozib, rus hukumatig'a sodiq qoldig'ini bildurdi Shuning ila barobar Turkistonda aqliyat tashkil qilg'an millatlarning huquqtarining har jihatdan saqlanmog'ini ham tantanali suratda e'lon etilib, adolat bayrog'ini ko'tardi"⁹³.

O'lkadagi jamiki uyushmalar oldida turgan muhim va mas'uliyatli masalalarni e'tiborga olib, Turkistonda yashayotgan turli millatlar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot darajalarini hisobga olib va ular o'rtasida do'stlikni ta'minlash uchun, o'lkaning hamma joylarida tartib va intizom joriy etish maqsadida o'lka musulmonlar qurultoyi muvaqqat Turkiston xalqi Sho'rosi (Millat majlisi)ni sayladi. Mazkur sho'ro hay'ati Turkiston muxtoriyatining Muvaqqat hukumatini tashkil qildi, deyilgan edi murojaatnomada. Umummusulmonlar o'lka qurultoyi birlik, hurriyat, tenglik asoslarini tasdiqlagan. Turkistonning barcha

⁹¹ Дониёров Ш . Мухторият қисмати. // – Т. Шарқ юлдузи, 1991. № 12. – Б. 160.

⁹² Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилиқ қурилиш тажрибаси... – Б. 131.

⁹³ Абдурауф Фитрат Туркистонда руслар / Хуррият, 1918. № 63-64. Қайта нашри «Шарқ юлдузи» 1992, №4.

fuqarolarini, musulmonlarini, rus , ishchi, askar va yevropalik dehqonlarni, o'lkada yashovchi hamma elat, xalqlarni, shahar va zemstvo idoralarini, barcha davlat mahkamalarini, umumiy va xususiy muassasalarini e'tirof etib, ularga o'z zimmalariga olgan og'ir vazifalarini hal etishda yordam berilishi ham shu murojaatda ko'rsatilgan. Muxtoriyat e'lon qilingan kundan boshlab Muvaqqat hukumat omma o'rtasida o'zining siyosiy faoliyatini avj oldirdi. Eng avvalo, musulmon siyosiy tashkilotlari targ'ibot hamda tashviqot ishlarini kuchaytirishdi. Taraqqiyparvarlar, ma'rifatparvar milliy guruh va uyushmalari ham muxtoriyatni keng targ'ib etdilar. Toshkentda "Ishchilar to'dasi", Andijonda "Maorif havaskorlari" uyushma va jamiyatlari Muxtoriyat manfaati yo'lida ish olib bordi. Ularning faoliyatida Toshkentda Akmal Ikromov, Andijonda Usmonxon Eshonxo'jayev va boshqalarning o'rni katta bo'ldi. Muxtoriyat o'zbek, rus va qozoq tillarida gazetalar chiqara boshlagan. Bular "El bayrog'i", "Svobodniy Turkestan" va 1917-yil 13-dekabrda rus tilida chiqa boshlagan "Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonom Turkestana" shular jumlasidandir. Obidjon Mahmudovning bosmaxonasi ham Muxtoriyat hukumati hisobiga o'tdi. Qo'qon shahridan Muxtoriyat hukumati nomidan uyezdlar komissarlariga va mansabdor shaxslarga farmoyishlar, telegrammalar va turli ko'rsatmalar yo'llanib, ular orqali joylarda Muxtor hukumatning birdan-bir qonuniy hukumat ekanligi va shu bois faqat uning ko'rsatmalarini tan olish lozimligi ta'kidlangan. Shunday hollar ham bo'ldiki, joylardagi ishchi, askar va dehqon deputatlari sho'rolari Muxtoriyatni tan olmay, uning farmoyishlarini ham yo'qqa chiqarishga harakat qilganlar. Jumladan, Kattaqo'rg'on sho'rosi 1918-yil 11-yanvarda shunday yo'l tutgan. Muxtoriyat hukumati bunday urinishlarni bartaraf etish choralari ko'rgan. Shunday vaqtda Abdurauf Fitrat xalqqa murojaat qilib, quyidagi fikrlarni bildirgan: "shunisi borkim, bir millatning muxtoriyati yolg'uz bir Kengashning e'loni bilan tamom bo'lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdir. Kengash o'z ishini qildi. Qolg'anlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha keraqdir. Bularni millat hozir qilsun"⁹⁴.

⁹⁴ Абдурауф Фитрат Мухторият.// - Хуррият, 1917. 5-декабр. Қайта нашри «Фан ва турмуш» 1990, №10. Б.

Muxtoriyat hukumati shoshilinch ravishda 30 million soʻmlik zayom chiqargan. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad hukumatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash va milliy armiya tuzish boʻlgan. Milliy qoʻshin tuzish harakati boshlab yuborilgan. Avval boshda hukumat ixtiyorida 60 yollanma askar boʻlgan boʻlsa, qisqa fursatda Muxtoriyat ixtiyorida 2 ming kishilik qoʻshin hozir boʻlgan. Bundan tashqari Qoʻqon militsiyasining boshligʻi Ergashning qoʻl ostida ham anchagina kuchlar bor edi. Milliy armiyada xorijdan chaqirilgan harbiy kishilar, aksariyat holda turk zobitlari yoʻriqchilik ishlarini olib bordilar. Ayni vaqtda militsiya qismlarini tuzishga ham kirishilgan. Bu borada Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev bosh boʻlgan ichki ishlar vazirligi xalq militsiyasining tashkil etilishi katta voqea boʻldi. Pul islohoti oʻtkazishga kirishildi va zayomlar chiqarilgan. Muxtoriyat oʻz bayrogʻi va madhiyasini yaratgan. Shunisi eʼtiborliki, Muxtoriyatni bir qator xorijiy mamlakatlar ham tan olgan. Shu bois Muxtoriyat hukumati yordam soʻrab xorijiy mamlakatlarga murojaat qildi, ulardan ham moddiy, ham harbiy yordamlar olishga harakat qilingan. Muxtoriyatni Angliya, Fransiya, Germaniya, Turkiya va boshqa davlatlar qoʻllab-quvvatlagan edilar⁹⁵.

Qoʻqon shahrida Turkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi boʻlib oʻtganligi va unda Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilganligi toʻgʻrisidagi xabar tezda butun oʻlka mehnatkashlar ommasi oʻrtasida keng tarqaldi va katta qiziqish uygʻogdi. Turli shaharlar va tumanlarda Turkiston Muxtoriyati baland va koʻtarinki ruh hamda shodu xurramlik bilan kutib olindi, Muxtoriyatni qoʻllab quvvatlab joylarda koʻp ming kishilik miting va namoyishlar uyushtirilgan. Jumladan, 1917-yil 6-dekabrda Toshkent shahrida, Eski Juvadagi Beklarbegi jomeʼ masjidida uyushtirilgan miting bu jihatdan xarakterlidir. Unda 60 ming shaharlik fuqaro qatnashgan. Mazkur miting tashkilotchilari “Shoʻroi-Islomchi”lar va “Shoʻroi ulamochi”lar edilar. “Ulugʻ Turkiston” gazetasining bergan xabariga qaraganda: “Masjidning ichki sahni va tomlari odam bilan liq toʻlgan”. Miting Saidgʻani Mahmud raisligida oʻtgan (Munavvarqori Abdurashidxonov, Mulla Odil,

Sherali Lyanin va boshqalar uning o'rinbosarlari edilar). Gazeta miting qatnashchilari Turkiston Muxtoriyatini batamom qo'llab-quvvatlaganliklarini yozgan. 1917-yil 1-dekabrda Namangan uyezdida 10 mingga qadar kishi qatnashgan ommaviy xalq namoyishi bo'lgan. Unda namoyish qatnashchilari "Yashasin Muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!" degan shiorlar yozilgan da'vatlarini ko'tarib bordilar. Bunday harakatlar 6-dekabrda Andijon uyezdi Jalolobod rayoniga qarashli Xonobod qishlog'ida ham bo'lgan. Bu yerda bo'lgan bir necha ming kishilik namoyish qatnashchilari Fozilmon ota mozoridan to bozor joyga qadar yig'ilib turgan. Abdulla Eshon va Husayn Validi namoyishchilar oldida so'zga chiqib, xalqqa Muxtoriyatning tashkil etilishi va uning maqsadlari haqida gapirib berganlar. Namoyish qatnashchilari Turkiston Muxtoriyatini moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash maqsadida 500 so'm mablag' to'plagan edilar⁹⁶. Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlagan tabriklar 7-dekabrda Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan 42 jamoat tashkilotining qo'shma majlisidan ham yuborilgan. Bulardan tashqari Samarqand viloyati sho'rolari, Kaspiyorti viloyati qurultoyi va boshqalar Turkiston Muxtoriyatini tabriklab, u bilan qo'shilajaklarini izhor etganlar⁹⁷.

Yuqorida qayd etilgan barcha fikr-xulosalar Turkiston o'lkasi fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi va istiqloqlilik harakati tobora kuchayib, yangi mazmun sari rivojlanib borayotganligini ko'rsatgan.

Turkiston o'lkasi xalqlarining muxtoriyat uchun kurashi tarixida ayniqsa 1917-yil 13-dekabrda Toshkent shahrida sodir etilgan qonli fojealar ayniqsa ayanchli va dahshatli iz qoldirgan, mustamlakachi sho'rolar hukumatining asl jallodlik va qonxo'rlik qiyofasini ochib tashlagan. Chunki xuddi shu kuni Toshkent shahar Sho'rosining buyrug'i bilan qizil gvardiyachi askarlar muxtoriyat talab qilib chiqqan Toshkent shahrining musulmon aholisini beayov qirg'in qilgan, gunohsiz aholining qutlug' qonlari shahar ko'chalarida ariqdek oqdi. Turkiston xalqlarining istiqloqlilik harakati tarixida bu kunning o'rni katta ekanligini e'tirof etib, 1959

⁹⁶ Ражабов К., Хайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йиллар). – Т.: Университет, 2002. – Б. 22.

⁹⁷ Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. - T.: «Sharq». 2011, – B. 52

yil 17-iyulda AQSh kongressi mazlum xalqlar haftaligini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi, 13-dekabrni Turkiston kuni deb belgiladi. Muxtor hukumat a'zolaridan M. Tinishboyev, S. Gersfeld, I. Shoahmedov, A. O'razayev va boshqalar imzo chekkan "Murojaatnoma"da Turkiston o'lkasi musulmonlarining favqulodda IV qurultoyining qisqacha ish yakunlari, Muxtor hukumat oldida turgan vazifalardan tashqari Turkiston o'lkasi xalqlariga qaratilgan chaqiriqlar ham bor edi. Bu chaqiriqda biz quyidagilarni o'qiymiz: "Turkistonning barcha fuqarolari musulmonlar, ruslar, yahudiylar, ishchilar, askarlar va dehqonlar, o'lkada yashab turgan barcha elatlar va xalqlar, shahar va zemstvo boshqarmalari, siyosiy, ijtimoiy va kasaba uyushmalari, barcha davlat, jamoat va xususiy muassasalar, Turkiston xalq hokimiyati atrofida birlashib, uning zimmasiga yuklangan vazifalarni hayotga joriy etishda ko'mak berishga chaqiradi. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan darajada vahimali urushlar guldiragi ostida butun jahonga o't ketay deb turgan bir mahalda dunyo xalqlari o'z ozodliklariga zamin yaratadilar. Inson qoni bilan to'yingan yer ko'klarga qarab oh chekadi va horigan inson kuchsizlanib qonli qilichini quyi soladi. Odamzodning aqlsizligi ilohiy ong oldida tan beradi va shunday kun yaqinlashadirki, butun yer yuzida tinchlik barqaror bo'lib, dunyo xalqlari mavjud kuch ila buzilgan hayotni qayga bosh etishga kirishadilar... Mana endi, zanjirlardan xalos bo'lgan Turkiston o'z yeriga o'zi xo'jayin bo'lib, tarixini o'zi yaratajak vaqti keldi. Bizlarning oldimizga qo'yilgan masalalarni nihoyatda mas'uliyatli va ulug'vorligini anglagan holda, o'z ishimizning haqligiga juda chuqur ishongan holda biz Ollohu taolodan o'z mehnatlarimizga rivoj so'raymiz va ishga kirishamiz"⁹⁸.

Toshkent sho'rolari hukumati 1918-yil yanvarining ikkinchi yarmidan e'tiboran Turkiston muxtoriyatini tugatish maqsadida ochiqdan-ochiq amaliy harakatlari boshlab yubordi. Uni o'sha yili 19–26 yanvarda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi Sho'rolarining IV qurultoyi qabul qilgan qarorlar yaqqol ko'rsatdi. Qurultoyda so'zga chiqqan Toshkent sho'rosi raisi bolshevik I. O. Tobolin bunday degan edi: "Biz nafaqat Rossiya haqida, balki mehnatkashlar

⁹⁸ Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилик қурилиш тажрибаси... – Б. 136.

haqida qayg'uryapmiz, agar xalq hohish-irodasi bu o'lkaning Rossiyadan ajralib chiqishini referendum orqali hal etishni istasa, uning ajralib chiqish huquqini saqlab qolamiz". U Turkiston muxtoriyatiga qarshi fikrini yashirib ham o'tirmadi. "Biroq, dedi u, muxtoriyatni hozir zudlik bilan amalga oshirish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Zero, muxtoriyatning eng birinchi shartiga ko'ra, bu o'lkadan harbiy qo'shinlar olib chiqib ketilishi kerak. Agar biz muxtoriyat tushunchasidan kelib chiqadigan ana shu asosiy holatni amalga oshiradigan bo'lsak, unda inqilob biqiniga zarba bergan bo'lar edik, o'lkada esa yana aksilinqilobchilar hokimiyati qaror topar edi". Shuning uchun "mamlakatning urush holatida ekanligini nazarga olgan holda, bizlar muxtoriyat holatidagi va hatto mustaqil davlatni tashkil etish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuboramiz". I. O. Tobolin o'z so'zining oxirida qurultoy qatnashchilari e'tiboriga muhokama etilayotgan masala yuzasidan bolsheviklar fraksiyasi qarori matnini o'qib berdi: "Inqilobchi sotsial-demokratlar partiyasi proletariat muxtoriyatini tashkil etish uchun harakat qiladi". Shu bois "deputatlarning kasaba Sovetlariga jalb etib, musulmon proletariatining sinfiy ongini ko'tarish" bo'yicha proletariat ommasini tayyorlash asosiy masala etib e'lon qilinadi. Muxtoriyatni e'lon qilish masalasi esa noaniq muddatga kechiktirib qoldiriladi. Turkiston sho'rolari IV qurultoyi Turkiston muxtoriyatiga munosabat masalasini qizg'in muhokama qilib turgan paytda Turkiston muxtoriyati hukumati qurultoy nomiga telegramma yuborgan. Telegrammada 1918-yil 20-martda "umumiy, to'g'ridan-to'g'ri, teng va yashirin ovoz berish asosida" Turkistonda Ta'sis majlisi chaqirish tayyorgarligi ma'lum qilingan. Telegrammada yana shu narsa ta'kidlanadiki: "Turkiston Ta'sis majlisi xalqlarning barcha orzu-istaklarini amalga oshirishga da'vat etilgan bo'lib, Turkiston muxtoriyatida o'lkaning oz sonli aholisi va mehnatkash xalq huquqlarini himoya qilib, Rossiya inqilobi tomonidan oldinga surgan demokratik qonun-qoidalar bilan to'la kelishgan holda demokratiyani tashkil etadi".

Turkiston muxtoriyatiga qarshi boshlangan siyosiy xuruj va qirg'inbarotning faol tashkilotchilari I. O. Tobolin, F. Kolesov, Ye. Babushkin, Turkiston harbiy komissari Ye. Perfilyev va boshqalar bo'lganlar. Ular o'z faoliyatlarida qonxo'r

bolsheviklar firqasi va sho'rolar hukumatining yo'l boshchilari V. I. Lenin, I. V. Stalin va boshqa arboblarning to'g'ridan-to'g'ri buyruq va ko'rsatmalarini ado etganlar.

Turkiston muxtoriyati rahbarlari 1918-yil boshlarida Toshkentda o'zlariga qarshi katta qirg'inga tayyorgarlik ketayotganda zo'r matonat va irodani ishga solib, muxtoriyatni mustahkamlash yo'lidagi qiyinchiliklarga qarshi sabr-toqat bilan ishlayotgan edilar. Bu qiyinchiliklar nimalardan iborat edi? Eng asosiy qiyinchilik, birinchidan, mahalliy tub yerli aholi siyosiy saviyasining milliy istiqlol talablari darajasida rivojlanmaganligi edi. Bu Turkiston muxtoriyatini himoya qilish, uni qo'llab-quvvatlashda istiqlolchi kuchlarning yagona jabha tashkil eta olmaganligida ko'rindi. Ikkinchidan, yanada kattaroq ahamiyatli qiyinchilik Turkiston muxtor hukumati yashab qolishining sharti bo'lgan moddiy qiyinchilik edi. Moddiy mablag'siz esa hech narsa qilib bo'lmasdi. Potelyaxovning "Ulug' Turkiston" gazetasining 1918-yil 4-yanvar sonida yozishiga qaraganda, Turkiston muxtoriyatiga yahudiylar yordam tariqasida yarim million so'm berishgan. Namangan va Andijon banklari juda katta qiyinchiliklar bilan 500 ming so'mdan pul ajratganlar. Albatta, bu mablag'lar muxtor hukumat sarf qilishi lozim bo'lgan xarajatlar oldida uzoqqa yetmas edi. Chunki birgina "Birlik tug'i" gazetasini moliyaviy qo'llab turish uchun 5 ming so'm, "Svobodni Turkistan" uchun esa 50 ming so'm xarajat qilingan. Qo'shinni ta'minlash uchun ketadigan moliyaviy xarajat to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Bu davrda qo'shinlar sonini xalq militsiyasidan tashqari 2 mingga yetganligi yuqorida aytili.

Uchinchidan, eng katta muammo Turkiston muxtoriyatini ko'krak kerib himoya qila oladigan milliy qo'shinnng yo'qligi edi. 2 ming askar, buning ustiga asosan tayoq, bolta, ketmon, oshpichoq, qilich, ayrimlari piltla miltiq bilan qurollangan qo'shin bilan uzoqqa borib bo'lmas edi. Chunki tish-tirnog'igacha zamonaviy qurollar: samolyotlar, o'ziyurar tanklar, bronenoyezdlar, nayzali miltiqlar, pulemyotlar bilan qurollangan qizil kallakesarlarga qarshi turishning o'zi bo'lmas edi. Buning ustiga 1918-yil 19-yanvarda qizil qo'shinlar Orenburgni qo'lga kiritgach, Moskva bilan Toshkent o'rtasida uzilib qolgan aloqa tiklangan.

Natijada Markazdan Turkistonga qo'shimcha qo'shin va qurol-aslaha yuborish imkoniyati tug'ilgan. Bu hol o'z navbatida milliy istiqlol jabhasi kurashchilarining vaziyatini yanada og'irlashtirgan.

Toshkent sho'rolar hukumati Turkiston muxtor hukumatini keng mehnatkashlar ommasi o'rtasida chuqur tomir otishiga imkon bermaslik va uni beshikligidayoq bo'g'ib tashlash maqsadida 1918-yil yanvarining oxirlaridan boshlab qurolli hujumga tayyorlandi va ig'vogarlik bilan turli bahonalar izlay boshlagan. Qo'qon sho'rolar hukumati ixtiyoriga eng ashadiy qizil gvardiyachilarni, avstro-venger harbiy asirlari va asosan dashnoqlardan tashkil topgan kallakesar qismlarni yuborilgan.

29–30 yanvarda Qo'qonda vaziyat mislsiz darajada keskinlashdi. Bu vaziyat arzimagan bir bahona tufayli alangalanib ketishi hech gap emasdi. Ana shunday bir sharoitda 30-yanvarda Qo'qon ishchi va askar deputatlari Sho'rosining majlisi bo'ldi. Unda Turkiston muxtoriyatini bartaraf etishni amalga oshiruvchi organ inqilobiy qo'mita (revolyutsion komitet) tuzildi. Uning raisligiga bolshevik Y. G. Babushkin saylandi. Inqilobiy qo'mita tarkibiga tub yerli aholi vakillaridan birorta kishi kiritilmagan.

Qo'mita o'z qo'lida cheklanmagan hokimiyatni mujassamlashtirdi, unga katta vakolatlar, favqulodda choralar ko'rish, hamma narsani sho'rolar hokimiyatini himoya qilishga bo'ysundirish va safarbar etish huquqi berildi. Inqilobiy qo'mita oldidagi eng asosiy vazifa muxtoriyat hukumatini tugatish, shahar aholisini qurolli kuch bilan sho'ro hokimiyatini tan olishga majbur qilish, "inqilobiy tartib" o'rnatishdan iborat edi. Inqilobiy qo'mita ishni yevropalik ishchilar va temir yo'lchilarni qurol bilan ta'minlashdan boshlagan.

Ayniqsa bolsheviklarning Qo'qon shahridagi arman millatiga mansub dashnoqlarni: baqqollar, sartaroshlar, vino sotuvchilarni qurollantirishi, haddan tashqari razil va jirkanch maqsadlarni ko'zlar edi. Toshkent, Skobelev, Andijon, Namangan va boshqa shaharlardan harbiy madad so'rab murojaat qilingan. 30-yanvarga o'tar kechasi no'malum kishilar guruhlarini atayin ig'vogarlik bilan bahona uchun Qo'qon telefon stansiyasiga, Qo'qon sho'rolar binosiga hujum

uyushtirishgan. Bolsheviklar M. Cho'qayev huzuriga kelib taslim bo'lishni tavsiya qilganlar. Bunga javoban M. Cho'qayev "bolsheviklar shaharni o'qqa tutishni to'xtatsalar vat inch xalqqa qarshi shiddat ko'rsatmasalar so'z berishsa..., taslim etishga tayyormiz"⁹⁹. Bu hujum Qo'qonda qizil qo'shin jallodlarining ommani vahshiylarcha qirg'in qilishni boshlashi uchun shunchaki bir bahona bo'lgan. Xuddi shu kuni 30 yanvarda Qo'qondagi inqilobiy qo'mita Toshkentga I. O. Tobolinga, F. Kolesovga va Skobelev shahriga telegraf orqali xabar qilib, zudlik bilan yordam berishlarini so'radi. Inqilobiy qo'mita aholiga murojaat qabul qildi. Murojaatda sodir etilgan voqealar uchun asosiy ayb muxtoriyatchilarga qo'yildi. Inqilobiy qo'mita o'z tarkibidan maxsus guruh tuzdi va uning oldiga muxtoriyat hukumati a'zolarini hibsga olish vazifasini qo'ydi

Inqilobiy qo'mita Turkiston muxtoriyati a'zolariga ultimatum qo'ydi va 2 soat muddat ichida taslim bo'lishni talab qildi. Lekin Mustafо Cho'qayevning xotirlashicha, "31 yanvar kunduz soat 12 da Xo'qand bolsheviklarining bizga bergan ultimatumini tekshirib o'tirganimizda bir to'xtovsiz miltiq otuvchilar bolsheviklar bo'lib chiqdi. Bolsheviklarning ultimatumida bizga 2 soat muddat tayin etilgan va ul muddat 2 soat 20 minutda to'lar edi". Ultimatumda quyidagi talablar qo'yilgan edi: Muhtoriyat sovet hokimiyatini tan olishi, Turkiston xalqi sovet hokimiyatiga bo'y sinishi, Aholini qurolsizlantirish va ular qo'lidagi barcha qurollarni bolsheviklar qo'lga topshirish, Milliy hukumat militsiya tashkilotini tarqatish kabilar edi¹⁰⁰.

Ana shu tariqa, Qo'qon shahrida bolsheviklar musulmon xalqlar vakillarini qirib tashlashdan iborat dahshatli fojeani boshlab yuborgan. Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari sho'rosi Turkiston muxtoriyatiga chetdan har qanday yordam kelishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rgan. 1918-yil 14-fevralda butun Farg'ona vodiysida harbiy holat e'lon qilingan. Farg'ona temir yo'lida esa kamal holati joriy etilgan. Toshkent, Samarqand, Namangan shahar dumalari yopildi va faoliyatlari to'xgatilgan. Sobiq General-gubernator kanselyariyasi tugatildi. Paxta zahiralari

⁹⁹ Мустофо Чўқай ўғли Истиклол жаллодлари (1917-йил хотиралари) – Т.: Гофур Ғулом номидаги Нашриёт-матба бирлашмаси - Б. 48.

¹⁰⁰ Мустофо Чўқай ўғли Истиклол жаллодлари (1917-йил хотиралари)... – Б. 49.

musodara etildi, neft qazib chiqarish, baliq sanoati va boshqalar milliy lashtirildi. Dinning davlatdan va maktabning dindan ajragilganligi e'lon qilindi¹⁰¹.

Albatga, bunday og'ir sharoitda Turkiston muxtoriyati o'zini o'zi himoya qilishga ojiz edi. U boshlangan qirg'inga qadar tinch vositalar bilan hokimiyatni qo'lga olishiga ishongan edi. Turkiston muxtoriyati qo'shinlari oddiy qurollar bilan bo'lsada shaharni uch kun davomida himoya qilganlar. Muxtor hukumat vaziyatning nihoyatda og'ir ekanligini hisobga olib, oxirgi imkoniyatni ishga soldi va bolsheviklar bilan muzokaraga kirishdi. Bu muzokara 17-fevralda boshlandi. Muzokarada muxtoriyatchilar kuyidagi talablarni o'rtaga qo'ydilar: Harbiy qal'ani shu organning nazorati ostiga olish. Militsiyadan boshqa barcha kuchlarni qurolsizlantirish. O'lka sho'rolar hukumatining shariatga zid dekretlarini bekor qilish. Ammo bolshevik Ye.G. Babushkin rais bo'lgan inqilobiy qo'mita muxtoriyatchilarning bu takliflarini qat'iyan rad etgan. 18-fevral kuni muzokara yana davom ettirildi. Muxtor hukumat o'rtada qon to'kilishiga yo'l qo'ymaslik uchun harakat qildi. Harbiy vazir polkovnik M. Chanishev inqilobiy qo'mitaga ultimatum qo'yib, soat 4 gacha qal'ani topshirishni talab etgan. Ammo musulmon ishchi va dehqonlar konferensiyasi qatnashchilari ultimatumni qaytarib olishni talab qilganlar.

“Sho'roi ulamochi”lar o'z tarafdorlari bilan ultimatumni qaytarib olishga qarshilik qilganlar. Muxtoriyat hukumati a'zolari o'rtasida o'zaro ixtilof kelib chiqqan. Hukumat rahbari Mustafó Cho'qayev iste'foga chiqishga majbur bo'lgan. Uning hukumat mahkamasi ag'darilgan, o'zi esa yaqin kishilari bilan hukumatni tashlab, Qo'qonni tark etishni lozim topgan. Muxtor hukumat harbiy kengashi raisi M. Chanishev va uning eng yaqin safdoshlari rus ofitserlari qamoqqa olingan. “Ulamo”chilarning yordami bilan muxtoriyat hukumati militsiyasiga boshchilik qiluvchi Ergash hukumat rahbari va bosh qo'mondon etib tayinlangan. Ana shu tariqa muxtor hukumatda, davlat to'ntarishi yuz bergan. Hokimiyat ashaddiy murosasiz kuchlar qo'lga o'tib qolgan. Turkiston muxtoriyatidagi bu bo'linish sho'rolarga qo'l keldi. Ular bu qulay vaziyatdan foydalanib, Qo'qon shahriga

¹⁰¹ Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – B. 64

hujumni yanada kuchaytirdilar. Ayniqsa bosim 18 – 19-fevralda Toshkentdan Ye. O. Perfiyev Qo’qonga yetib kelgach, yanada kuchaydi. Uning ixtiyorida ikki eshalon harbiy qismlar bor edi. Otlıq askarlar, artilleriya va piyoda qismlarga ega bo’lgan Turkiston o’lkasi harbiy komissari, so’l eserlar Qo’qonni uch tarafdan qurshab olganlar.

Qizil qo’shinlar Eski shahar hududiga bostirib kirdi. Dahshatli va mislsiz qirg’in boshlandi, Qo’qon o’t ichida qoldi. 1918-yilda Qo’qonga kelgan ingliz kapitani A. Brun shaharni yarim bo’sh holda ko’rgan. Uning yozishicha, shahar bosqinida ishtirok etgan nemis, avstraliyalik va venger asirlaridan yollangan askarlar 100 ming so’mdan ortiq pulni o’marishgan¹⁰². Qo’qon fojeasi qatnashchilaridan yana biri, Turkiston xalqlarining jallodi A.T. Karavaynev o’z esdaliklarida bunday deb yozadi: “Konovalov to’dasidagi arman dashnoqlari o’zboshimchalikni haddan oshirib yubordilar. Ular Qo’qonga kelguncha tinch aholini talab, qirg’in qilganlar”. Arman millatiga mansub dashnoqlar Qo’qonda ko’z-ko’rib quloq eshitmagan vahshiyliklarni amalga oshirganlar. Shahar ostin-ustin qilindi va talandi. Ular xususan Eski shaharni, ayniqsa savdo tarmoqlarini, do’konlar, rastalarni, omborlarni taladilar, qolganlariga o’t qo’yib yondirib yuborganlar. Dashnoqi armanlar musulmonlar yashaydigan xonadonlarga bostirib kirdilar, hech kimni ayamasdan qirg’in qildilar, hatto cholu-kampirlar va yosh go’daklarga ham rahm qilmaganlar. Homilador ayollarni qorinlarini yorib, tug’ilmagan go’daklarni qilichlar tig’idan o’tkazganlar, norasta go’daklarni beda qirqadigan joduda burda-burda qilib tashlaganlar. Yosh qizlarning nomuslarini haqoratlaganlar, juvonlarni esa erlari ko’z oldida zo’rlaganlar. Ibodatxonalar, masjid va madrasalarni kuli ko’kka sovurilgan. Xamma yerda qamoqqa olishlar boshlandi, ayg’oqchilar va tilmochlar ko’paygan. Mahalliy aholini qamoqqa olish to’g’risidagi order bo’lsa ham, bo’lmasa ham hibsga olaverganlar. Qamoqqa olinganlarning ko’plari sud va tergovsiz otib tashlangan. Qo’qonni tashlab ketishga majbur bo’lgan muxtor hukumatning a’zolari Farg’ona shahriga borib, xalqni namoyishga chorlaganlar. Ularni tub yerli mahalliy aholi qo’llab-quvvatlagan.

¹⁰² Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилиқ курилиш тажрибаси... – Б. 149.

Lekin sho'rolar hukumati bu harakatni bostirgan. Nosirxon To'ra Namanganda, S. Gersfeld Samarqandda, Obidjon Mahmudov Buxoroda qo'lga olingan. Ubaydullaxo'jayev, Abdulhamid Sulaymon o'g'li (Cho'lpon) Qo'qondagi fojeali hodisalarni Ashhoboddan Samarqandga kelayotganlarida yo'lda eshitganlar va ular o'z yo'llarini o'zgartirib, Orenburg tomon yo'l olganlar. Bu yerda ular Ahmad Zakiy Validiy To'g'on bilan uchrashganlar. U Orenburgda Boshqirdiston muxtoriyatining ichki va harbiy ishlari bilan band edi. Xullas, hamma alomatlariga ko'ra, tarixga Turkiston muxtoriyati nomi bilan kirgan Qo'qon muxtoriyati tor-mor qilindi va tarqatib yuborildi. Qadimgi madaniy va boy savdo shahri bo'lgan Qo'qon vayron qilindi va qonga botirildi. Qo'qon xalq militsiyasiga boshchilik qilgan Ergash o'z kuchlari bilan shaharni tashlab chiqdi va sho'rolarga qarshi kurashni davom ettirgan. Rahbarsiz va tashkilotsiz qolgan Qo'qon shahri mudofaachilari fojeaning yanada og'irroq tus olmasligi maqsadlarini ko'zlab sho'rolar rahbariyati bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'lganlar. Nihoyat 22-fevral (9-fevral)da bolsheviklar tomonidan taqdim etilgan va mahalliy musulmon xalqining milliy manfaati hamda izzat-nafsini kamsituvchi "Tinchlik shartnomasi"ga imzo chekdilar. Shartnomaning birinchi moddasida: "aholi xalq komissarlari sho'rosining hokimiyati va mahalliy sho'ro muassasalarini tan oladi", deyilgan edi. Ammo zo'rlikka, bosqinchilikka asoslangan va Turkiston muxtoriyatini tugatishga qaragilgan sho'rolarning sharmandali siyosati mehnatkash xalq ommasi ko'zi oldida bu hukumatning asl maqsadi va mohiyatini ochib tashladi. Natijada butun Turkiston xalqlari istiqloq uchun, erk va milliy ozodlik uchun kurashga otlanganlar. Muhtoriyatchilar o'rtasidagi o'zaro birlikning yo'qligi milliy davlatchilik uchun boshlangan harakatning barbod bo'lishiga sabablardan biri bo'ldi¹⁰³.

Bolsheviklarning Qo'qon shahrida amalga oshirgan dahshatli fojearidan hatto Turkistonda yashayotgan yevropa aholisiga mansub eserlar, kadetlar va mensheviklarning vakillari ham nafratlangan edilar.

¹⁰³ Дўстқораев Б. Туркистоннинг идора усули қандай бўлмоғи керак эди? // Жамият ва бошқарув. 1997. №2. – Б. 13-17.

Turkistondagi muammolarni hal qilish uchun Favqulotda komissar etib P.A. Kobezov yuborilgan. 1918-yilning aprel oyi boshlarida u bilan birgalikda Y. Ibrohimov va A. Kilevleyev Toshkentga kelganlar¹⁰⁴.

Menshevik-internatsionalistlar fraksiyasining boshlig'i Vaynshteyn Toshkent shahar Sho'rosining 1918-yil 23-fevraldagi yig'inida o'lka harbiy komissari Y. Perfilyevning qizil gvardiyachi jangchilari bilan Qo'qonda dahshatli xunrezliklar qilganini taftish etish kerak va aybdorlar javobgarlikka tortilishi lozim, deb talab qilgan.

Turkiston muxtoriyati qonga botirilganligining eng asosiy aybdori V.I. Lenin bosh bo'lgan sho'rolar hukumati va kommunistik firqadir, qolaversa, Markaziy hukumatning Turkiston filiali va endigina 26 yoshga to'lgan Kolesov rahbarligidagi Turkiston Xalq komissarlari soveti va uning a'zolaridir. Bu hukumat a'zolarining deyarli barchasi mahalliy musulmon xalqlarga nafrat bilan qarovchi va shovinistik g'oyalar bilan ongi zaharlangan shaxslar edilar. Favqulodda komissar Pyotr Kobozevning e'tiroficha, "Rais Fyodor Kolesov sanalgani bilan barcha ish Uspenskiy qo'lida edi. Uspenskiy esa ashaddiy monarxist, shovinist bo'lgan. Uning "O'rtoq musulmonlar! Shuni qulog'ingizga quyib olingki, biz sizning og'alaringizimiz, sizlar uka bo'lasizlar, tushunarlimi, bizga bo'ysunishga majbursiz", degan so'zlaridan ham bu shaxsning ichki dunyosi ko'zga yaqqol tashlanib turgan edi.

Qo'qon fojeasida asosiy aybdor Lenin va Stalin boshliq bolsheviklar firqasi va sho'ro hukumati ekanligi ta'kidlab o'tildi. Bu ayb uchun Qo'qon xalqiga, butun Turkiston xalkiga murojaat etib, musulmon aholisidan uzr so'rash zarurligini hatto 1919-yil 9-mayda Lenin huzurida bo'lgan afg'on-hind delegatsiyasi boshlig'i Muhammad Barakatulloxon ham og'zaki, ham yozma ravishda bayon etgandi. Sho'ro rahbariyatining milliy asosdagi muxtoriyat emas, balki sho'ro negizidagi muxtoriyat tarafdori ekanligi masalasi hattoki RSFSRning 1918-yil 10-iyulda qabul qilingan konstitutsiyasida ham o'zining yaqqol ifodasini topgan.

¹⁰⁴ Агзамходжаев С. Две модели государственного переустройства Туркистана: большевистская и национально-демократическая // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар: Даврий тўплам, № 2. – Т. Шарқ, 1999. – Б. 143.

1917-yil oktabr to'ntarishidan so'ng mustabid komunistik bosqin va mustamlakaga qarshi xalqimiz olib borgan milliy ozodlik va mustaqillik kurashining boshida jadidlar turdilar. Ular bu paytda asosiy qarshilik va muholifat kuch sifatida o'zlarini namoyon etdilar. Biroq kommunistik hokimiyat o'zini mustahkamlab olishi bilanoq, uning mustabidlashuvi kuchayishi bilan jadidlarda bo'linish boshlandi. Ularning bir qismi "bosmachilik urushi"ga qo'shilib mustaqillik uchun kurash olib borganlar, ikkinchi qismi esa kommunistik ta'qib va qatag'onlikdan qochib o'zga mamlakatlardan boshpana topishga majbur bo'lganlar¹⁰⁵. Jadidlarning milliy mustaqil davlatchilik uchun kurashlari xalqimiz ongida milliy o'zlikni anglash uchun asos bo'ldi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa: Turkistonning XX asr boshlaridagi tarixi murakkab va ziddiyatli bo'di. 1917-yil fevralda Rossiyada bo'lib o'tgan inqilobdan so'ng Turkiston o'lkasida kuchli uyg'onish yuz berdi. O'lkada demokratik harakatlar avj olib ketdi. 1917-yil fevraldan oktabrgacha bo'lgan davrda jadidchilik jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Jadidchilik bu davrda ma'rifiy harakatdan siyosiy harakat darajasiga allaqachon ko'tarilib bo'lgan edi. Jadidlar va boshqa taraqqiyparvar ziyolilar joylarda "Shoroyi Islomiya" tizimini yaratish tashabbuskori bo'ldilar. Muhtoriyatchilik harakati 1917-yil kech kuzida o'zining yangi pallasiga kirdi va Turkiston Muhtoriyati e'lon qilindi. Biroq Pedrogradda bolsheviklar tomonidan oktabr to'ntarishi amalga oshirilgach, Turkiston o'lkasida ham hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallashdi. "Xalqchil" sovet rejimi dabdabali deklaratsiyalarda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini rasmiy jihatdan e'tirof etishga majbur bo'lsada, amalda u Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini yangicha asoslarda davom ettirdi. Sovetlarni o'lkada olib borayotgan agressiv siyosatlari bilan Turkistonda yangi milliy ozodlik harakatlarini vujudga kelishini oldini ololmadilar.

¹⁰⁵ Холбоев С. Жадидларнинг мустамлака совет тузуми давридаги фаолияти ва тақдири (1917-1930 йиллар)// Жадидчилик: ислохот, янгилашни, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. № 1. – Т.: Университет, 1999. – Б. 203.

Turkiston muxtoriyati uchun kurash mamlakatimiz xalqlarining milliy istiqlol uchun, erk va ozodlik uchun olib borgan kurashining eng yorqin sahifalaridan biri sifatida Vatan tarixidan o'rin oldi.

III bob. Turkistonda hokimiyatni sovetlar qo'liga o'tishi va yangi tizimni ishga tushishi.

3.1. Turkistonda nazorat organlarini tashkil etilishi va ularni sovetlar hokimiyatini mustahkamlashdagi o'rni.

Sovetlar hokimiyati tashkil topgan dastlabki kunlardan boshlab mamlakat hayotining barcha sohalarini nazorat ostiga olishga harakat qilgan va bu boradagi tadbirlarni amalgam oshirishga kirishgan. 1917-yil 28-oktabrda RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi “Ishchi militsiya” to'g'risida qaror qabul qildi¹⁰⁶.

Qarorda barcha ishchi va soldat deputatlari Sovetlariga inqilobiy intizom o'rnatish va tartibni saqlash uchun ishchi militsiyalari ta'sis etish to'g'risida ko'rsatma berilgan va bu organ faqat sovetlar ixtiyorida bo'lishi ta'kidlangan edi. Harbiy va fuqaro hokimiyatlari zimmalariga ishchi militsiyasini qurollantirish, uni zarur texnika vositalari va qurol-yarog' bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Boshqaruv sohasida V.I. Leninni topshriqlarini so'zsiz bajarayotgan hodimlarni moddiy tomondan ta'minlanishiga katta e'tibor bergan. O'z tarafdorlarini pul bilan taminlash maqsadida asta-sekin Rossiyadagi banklarni bolsheviklarga bo'y sindirgan. Jumladan, 1917-yil 3-noyabrda Lenin quyidagi buyuruqni bergan: “Ishchi-dehqonlar Hukumati – Xalq Komissarlari Sovetini tan olishdan bosh tortgan va bank bo'yicha ishlarni topshirishni istamagan Davlat banki hodimlari qamoqqa olinishi kerak. Imzo chekkanlar: Xalq Komissarlari Sovetining raisi V. Ulyanov (Lenin), Xalq Komissarlar Sovetining kotibi N. Gorbunov”¹⁰⁷. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sovet hokimiyatini mustahkamlashda ishtirok etayotgan tarafdorlarni mablag' bilan taminlash bo'lgan. Turkistonda tashkil etilgan ishchi-dehqon militsiya hodimlari ham dastlab markaz tomonidan mablag' bilan ta'minlangan bo'lsa, keyinchalik xalqni talash hollari kuzatilgan. Sovet Rossiyasi shaharlaridan ibrat olib, Turkistonda ham ishchi-dehqon militsiyasi tashkil etila boshlangan. Turkiston o'lkasi Xalq komissarlar sovetining 1917-yil 18-noyabrdagi qarorida barcha ishchi va soldat deputatlari

¹⁰⁶ Джалилов Т. Верные отчизне (1917-1924 гг). – Т.: Узбекистан, 1968. – С. 19.

¹⁰⁷ Бунич Игор. Партиянинг олтинлари (рус. таржима. Шарофиддинов О.). – Т.: Маънавият, 2005. – Б. 14.

Sovetlariga qizil gvardiyachilar otryadlarini tuzishga kirishish takidlandi. 1918-yil 29-yanvarda Turkiston o'lkasi XKSning 17-sonli "Zahira kadrlarini yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i e'lon qilindi¹⁰⁸.

1918-yil 13-dekabrda "Rossiya Sovet Federatsiyasi Turkiston Federatsiyasining Turkiston Respublikasining Ishchi-dehqon sovet militsiyasi to'g'risidagi Nizom" ishlab chiqildi, hamda Turkiston ASSR MIQ tomonidan tasdiqlangan. Turkiston Respublikasi Ichki ishlar va Tashqi ishlar komissarliklari hamda uning qoshidagi hay'at Respublika militsiyasiga umumiy rahbarlik qilgan Respublika militsiyasining bosh instruktori militsiya ishlari bilan bevosita shug'ullangan. U o'z mahkamasi bilan Ichki ishlar va Tashqi ishlar xalq komissarligi tarkibiga kiritilgan edi. Joylarda tashkil qilingan militsiyaga shahar va uyezdlar muhofazasi boshliqlari rahbarlik qilgan. Ular va yordamchilarini Tashqi ishlar xalq komissarining roziligi bilan Sovetlar tayinlagan.

1919-yil 26-iyunda Turkiston ASSR IIXK Rossiya sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasi ishchi-dehqon sovet militsiyasi to'g'risidagi Nizomi qabul qilgan. Nizom shahar, uyezd shuningdek, jinoyat qidiruv vat emir yo'l militsiyasini Militsiya bosh boshqarmasiga bo'ysindirib, uning polini mustahkamlagan edi. Nizom sovet militsiyasining burchi va asosiy vazifasi ishchilar sinfi va kambag'al mehnatkash xalq manfaatlari hamda inqilobiy tartib, yangi tuzumni muhofaza qilishdan iborat deb belgilangan.

Sovet ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish to'g'risidagi qarordan so'ng ularning soni tez suratlar bilan o'sa boshlagan. 1919-yil oxirlarida ularning soni 87800 kishiga yetgan bo'lsa, 1920-yil oxiriga kelib 300000 kishidan oshib ketgan.

Shu tariqa Rossiya va uning chekka o'lkalarida yangi sovet hokimiyatini mustahkamlash va tartib, nazoratni kuchaytirish maqsadida militsiya safi ko'paytirib borilgan.

1919-yil 16-dekabrda Militsiya bosh boshqarmasi boshlig'i Y. Sirulning militsiya tuzilishi va faoliyatiga tegishli qarori e'lon qilindi.

¹⁰⁸ Эрматов А. Туркистонда назорат органларининг фаолияти. – Т., 2007. – Б. 31.

1920-yil 22-aprelda Turkiston ASSR XKS tomonidan “Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi to’g’risida Nizom” qabul qilindi. Navbatdagi nizomda Turkiston ASSR hamda RSFSRda militsiya tashkil etilishida to’plangan tajriba hisobga olingan edi. Respublika militsiyasi tarkibi IIXK Bosh boshqarma, viloyat inqilobiy qo’mitalarining boshqaruv bo’limlari qoshidagi boshqarmalari va shahar boshqarmalaridan tashkil topdi, hamda Bosh boshqarma zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

- militsiya ustidan umumiy boshqaruvni o’rnatish, militsiya shaxsiy tarkibini to’ldirish va taqsimlash;
- militsiyada tartib-intizomni o’rnatish va uni mustahkamlash;
- mahalliy militsiya organlarini tashkil etish ishlarini tushuntirish; militsiya xodimlarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-yarog’ bilan ta’minlash;
- militsiya bo’limlarini nazorat qilish va ularga tegishli ko’rsatmalar berish;
- militsiya xodimlari uchun maxsus kurslar uyushtirish;
- jinoiy qidiruv bo’limlari faoliyatini nazorat qilish;
- respublika militsiyasi shtatini ishlab chiqish;
- militsiya bo’yicha hisobot va umumiy moddiy smetalar tuzish.

Shuningdek, nizomda Turkiston Ishchi-dehqon militsiyasining vazifalari bir tizim sifatida o’z aksini topgan bo’lib, ular quyidagilardan iborat deb belgilangan:

- tartib-intizom borasida IIXKga yuklatilgan vazifalarni bajarish hamda chiqarilgan qaror, dekret va buyruqdarni hayotga tatbiq etilishini ta’minlash;
- umumdavlat mulki bo’lgan tashkilot va binolarning xavfsizligini ta’minlash (telegraf, telefon tarmoqlari idoralari, pochta va hokazo);
- zavod, fabrika, konlar va boshqa ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lgan tashkilot va muassasalarni qo’riqlash;
- o’rmon, ekinzor, davlat qo’riqxonalarini muhofaza qilish hamda yoqilg’i omborxonalari, xom ashyo va qishloq xo’jaligi mahsulotlarini muhofaza qilish;
- qamoqxonalar va maxbuslar vaqtincha saqlanadigan lagerlarni qo’riqlash;
- mavjud hamma boshqaruv organlariga ularga topshirilgan vazifalarni bajarishda ko’maklashish.

Turkiston ASSR hududida 1920-yilning oxiriga kelib 34 ta shahar, 26 ta uyezd va 92 ta rayon militsiya bo'limlari mavjud edi¹⁰⁹.

1921-yil 17-sentyabrda Turkiston ASSR IIXKning ko'rsatmasiga muvofiq militsiyaning strukturasi va shtatlarining tuzilishiga bir qadar o'zgartirishlar kiritildi hamda u quyidagi ko'rinishni o'zida ifoda etdi: 6 ta viloyat boshqarmasi, viloyatlardagi shaharlarda 7 ta boshqarma, 30 ta uyezd boshqarmasi, 95 ta tuman boshqarmasi, 54 ta shahar militsiya bo'limlari va 36 militsiya qo'shin bo'limlaridan iborat bo'lgan.

Turkistondagi militsiya faoliyatida ishchi va dehqonlar ishtirokining bevosita shakllaridan biri ko'ngilli militsiya otryadlari bo'lgan. Ular sovet davrida yaratilgan barcha tadqiqotlarda mehnatkashlarning o'zlari tomonidan ko'ngilli ravishda tuzildi, deb talqin qilingan.

Turkiston ASSR XKS ko'ngilli militsiya otryadlarini tuzish huquqini mahalliy ijroqo'mlarga berdi, shuningdek "bosqinchilik bilan muvaffaqiyatli kurashish hamda jamoat tartibini o'rnatish uchun" ushbu otryadlardagi xodimlar sonini har bir rayon uchun zarur bo'lgan miqdorgacha yetkazish xaqida ko'rsatma bergan.

Ko'ngilli militsiya mahalliy ijroqo'mlarga buysungan. 1922-yil 25-martida Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissari respublika hukumati – XKSga zarur bo'lgan joylarda aholining o'zini o'zi hisobiga militsiyaning ko'ngilli otryadlarini tuzayotganligi va buning uchun mas'uliyat to'la-to'kis va tuman ijroqo'mlariga yuklatilganligini ma'lum qilgan.

Oradan ko'p o'tmay "Ko'ngilli militsiyani tashkil qilish to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Unda ko'ngilli militsiya tuzilishi bilan bog'liq harajatlarning qoplashni o'z zimmasiga olgan aholiga "og'ir bo'lmasligi uchun" ko'ngilli militsiya tuzilayotgan otryadlarning tarkibiy miqdorini qat'iy cheklab qo'yish lozimligi alohida ta'kidlangan.

Turkiston ASSR Respublika militsiyasi boshlig'ining militsiya faoliyati xususida IIXKga 1922-yil 24-mayda topshirgan hisobotida ko'rsatilishicha,

¹⁰⁹ Эрматов А. Туркистонда назорат органларининг фаолияти. – Т., 2007. – Б. 38.

ko'ngilli militsiya xodimlarining soni Farg'ona viloyatida 1995 ta, Sirdaryo viloyatida 3100 tani tashkil etgan. Shu yil yoziga kelib, Andijon uyezdida o'z-o'zini qo'riqlash drujinalariga ham xodimlar xizmatga jalb qilingan bo'lsa, Skobelev uyezd-shahar partiyasi va harbiy tashkilot vakillari ko'ngilli militsionerlar sonini ko'paytirish zarurligi haqida maxsus qaror chiqargan. Bunday qaror chiqishga turtki bo'lgan omil, bu tobora avj olib borayotgan va katta yutuqlarga erishayotgan Turkistonda sovet rejimiga qarshi harakatning mavjudligi bo'lib, sovet hukumati ko'ngillilar yordamiga tayanib, 'o'z dushman'larini yo'q qilishni ko'zda tutgan edi. Shuning uchun 1922-yil 15-noyabrda o'lkada ko'ngilli militsionerlarning soni 6117 taga yetkazilgan.

Turkiston Kompartiyasi 7 sezdi 1923-yil martida "shaxsiy tarkibni tanlash, tekshirish va unda siyosiy mafkurani kuchaytirish yo'li bilan ko'ngilli militsiyani mustahkamlash" zarurligini yana bir bor ta'kidlagan.

Xullas, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kurinib turibdiki, ko'ngilli militsiya otryadlarining tuzilishiga asosiy sabab bu mahalliy xalq orasida sovet tuzumiga hayrihox, siyosiy kuchlarni ko'paytirish, ya'ni, sovet hukumati siyosati va faoliyatini mustahkamlash.

Turkiston Kompartiya Markaziy Komitetining 1922-yil noyabrdagi qaroriga muvofiq "ko'ngilli militsiya xodimlarining sonini 500%gacha qisqartirish ishlari jadallashtirildi", natijada 1923-yil 1-dekabrda ularning miqdori 2103 kishiga yetkazilgan bulsa, 1924-yil 1-sentyabrda 1211 kishigacha qisqartirilgan.

1924-yil 19-mayda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining joriy yil 1-oktyabrgacha butun respublikada ko'ngilli militsiya bo'linmalarini tugatish xaqidagi qarori qabul qilindi¹¹⁰.

Mustabid sovet diktaturasi o'rnatilayotgan bir sharoitda qizil armiya va Ishchi-dehqon militsiyasi Turkistonda transport yo'llarini nazorat qilishni ham o'z zimmasiga olgan.

¹¹⁰ Джалилов Т. Верные отчизне (1917-1924 гг.). – Т.: Узбекистан, 1968. – С. 99.

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan “Ishchi-dehqon temir yo’l militsiyasi” Nizomi tasdiqlanganidan so’ng (1919-yil 23-fevral), Turkiston ASSRda ham Ishchi-dehqon temir yo’l militsiyasi tashkil etilib, u avval IIXK tarkibida, keyinchalik Militsiya Bosh boshqarmasi tasarrufida faoliyat yuritgan. Nizomda “Sovet temir yo’l militsiyasi temir yo’llarda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlagan, shuningdek ishchilar sinfi va kambag’al krestyanlarni himoya qiladi”, deb alohida moddada yozilgan edi.

Keyinrok militsiya va harbiy qo’shinlarni bir-biriga qo’shib boshqarish ishlari yanada takomillashtirilib, 1921-yil 19-yanvarda Temir yo’l va suv militsiyasi Butunrossiya Favqulodda Komissiyasi (VChK) qo’shinlari tarkibiga qo’shib yuborilgan, qo’shin boshlig’i Rossiya militsiyasi boshlig’i tomonidan tayinlanadigan bo’lgan.

Bosh boshqarma tasarrufida esa, faqat temir yo’l militsiyasini moddiy ta’minoti saqlanib qolingan. Xuddi shunday o’zgarishlar Turkistonda ham amalga oshirilib, o’lka temir yo’l militsiyasi Butunrossiya Favqulodda Komissiyasining Toshkentdagi qo’shinlari shtabiga o’tkazilib yuborilgan.

“Inqilobiy tizim”ni o’rnatishda Ishchi-dehqon militsiyasining faoliyatini ko’rsatib o’tar ekanmiz, bunda asosiy rolni 1919-yil mayda RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi Bosh boshqarmasi tomonidan o’zicha mustaqil bo’lim sifatida tuzilgan militsiya bo’limini ta’kidlab o’tish zarur. Bu bo’lim mamlakat sanoat ishlarini nazorat qilish bilan shug’ullangan bo’lib, u “Sanoat militsiyasi” deb ham yuritilgan¹¹¹.

1921-yil 19-fevralda Sanoat militsiyasi Tashkil etilgan. Sanoat militsiyasiga asosan, iqtisodiy soxadagi masalalar, ya’ni zavodlar, fabrikalar, omborxonalar va shunga o’xshagan boshqa ko’pgina idoralarni nazorat qilish, shu bilan birga ishchi va krestyanlarni oziq-ovqat bilan ta’minlashni nazorat qilish va boshqa vazifalar yuklatilgan edi. Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligi Bosh boshqarmasi tasarrufida sanoat militsiyasi bo’limi ochilganligi o’sha kuni tasdiqlangan.

¹¹¹ Белоус В. Организационные формы охраны собственности государством до создания вневедомственной охраны в системе МВД СССР (1917-1952 гг.) // История государства и права. №1, – М., 2002. – С. 62.

Shundan so'ng tez orada Turkiston ASSRning har bir uyezd militsiyasida sanoat militsiyasi bo'limlari tashkil etilgan.

1921-yil 30-iyunda Samarqandda, 13-avgustda Farg'ona viloyatida, 15-avgustda Kazalinskda, sentyabr oyida Sirdaryo viloyatining Toshkent shahri va Chernyayev uyezdida, sanoat militsiyasining bo'limlari tuzilganligi haqida joylardagi militsiya boshliqlari tomonidan Turkiston ASSR IIXK Militsiya Bosh boshqarmasiga hisobotlar topshirilgan.

1920-yilning oxirlariga kelib, militsiyaga yuklatilgan vazifalarning yanada kengaytirildi ular quyidagilardan iborat bo'lgan; inqilobiy tartibni himoya qilish; fuqarolarning shaxsiy havfsizligini ta'minlash; chiqarilgan qonunlar, qarorlar, farmoyish va dekretlarni hayotga tatbiq etishda ishtirok etish; qamoqxonalarni qo'riqlash; jinoyatga qarshi kurashish; aholi punktlaridagi sanitar holatni nazorat qilish; aholiga pasport berish, pochta orqali yuborilgan posilka va pulli xatlarni olishga doir tegishli xujjatlarni rasmiylashtirish va yo'qotilgan xujjatlarni qayta tiklash; ma'muriy jarimalarni undirish; qishloq xo'jaligini nazorat qilish; qoramollarning sonini tekshirib turish kabilar bo'lgan.

Shu bilan birga militsiya quyidagi bir qancha komissarliklar va tashkilotlarga yordam berib turgan: yer ishlari xalq komissarligiga o'rmonlarni qo'riqlashda, ovchilik va baliqchilik qoidalarini buzmaslikni nazorat qilishda, Moliya xalq komissarligiga soliqlarni yig'ishda va aksiz qoidalarini buzilish holatlarini tekshirishda, Shuningdek, Tashqi savdo xalq komissarligiga bojxona ishlarida; Adliya xalq komissarligiga fuqaro ishlari bo'yicha sud chiqargan xukmlarni amalga oshirishda, sudga chaqirish va qog'ozlarini topshirish, sud belgilagan jarimalarni undirish hukmiga binoan yashash ta'qiqlangan hududlarni nazorat qilishda yordam berib turgan.

Qisqacha qilib aytganda, sovet davlat apparatining muhim organi biri sifatida Turkiston ASSRda tashkil etilgan mazkur organ yangicha huquq-tartibotni himoya qilishga da'vat etilgan ishchi va dehqonlarning sinfiy tashkiloti tuzilishida katta rol o'ynagan.

Militsiya tomonidan jamiyatning hamma sohalarida nazoratni ta'minlash uchun, uning tarkibida bo'limlar tuzila boshlangan. Viloyatlarda ko'ngilli militsiya bo'limlarining tashkil etilishi juda ziddiyatli holatlar bilan kechdi. Chunki ko'ngilli otryadlar asosan mahalliy aholi vakillaridan tuzilgan va ustiga-ustak ulardan tuzumga qarshi uyushtirilayotgan xujumlarni bostirishda asosiy qurol sifatida foydalanildi. Temir yo'llarni nazorat qilish uchun tashkil etilgan bo'lim esa 4 ta rayon boshqarmasi va 12 ta kichik boshqarmalardan iborat bo'lgan. Sanoat militsiyasi respublikada sanoat ishlari bilan bog'liq masalalarni nazorat qilgan. Militsiya bo'limlarining tashkil etilishidagi oxirgi bosqich bu suv va mahkama militsiyasi bo'limlarining tuzilishidir. Qonuniy jihatdan suv militsiyasi xodimlarining vakolat va majburiyatlari Umumfuqaroviy militsionerlarniki bilan bir xil bo'lib, ularga qo'shimcha ravishda sug'orish ishlari va sug'orish inshootlarini nazorat qilish ham yuklatilgan. Mahkama militsiyasi davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha turdagi mulklarni qo'riqlash vazifasini bajargan.

Mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishni o'zining asosiy maqsadi deb e'lon qilgan bolsheviklar hukumati va sovet hokimiyati imqilob qonunlari hamda huquq tartibotga qattiy amal qilishini ta'minlovchi mahsus organlarga muhtoj bo'lgan. Bu organlar sovet hokimiyatini siyosiy bajarilishini nazorat qilishi lozim edi. 1917-yil 25-oktyabrda, ya'ni Petrograd Oktyabr to'ntarishi g'alaba qilgan kuni V. I. Lenin Petrograd Sovetida so'zlagan nutqida "Biz sanoat ustidan haqiqiy ishchi nazoratini o'rnatamiz", deb ta'kidlagan edi.

Markaz Turkistonda ishchi nazoratini o'rnatish siyosatini o'lkadagi ishchi deputatlari Sovetlari orqali amalga oshira boshlagan. Bu jarayon Turkistonda Markazdagiga qaraganda ancha sustlik bilan kechgan bo'lib, 1918-yil martida 700 ta korxonadan atigi 80 tasida ishchi nazorati o'rnatilgan bo'lsa, bu paytda Moskva guberniyasidagi 326 ta korxonadan 284 tasi ishchi nazorati qo'liga o'tgan edi¹¹².

Turkiston ASSRda ishchi nazorati o'rnatish jarayoni sust kechishining ko'plab sabablari bo'lgan. Turkistonda bu siyosatni amalda qo'llashga, ya'ni

¹¹² Ульмасов А. Национализация промышленности в Советском Туркестане. – Т.: Изд. АН УзССР, 1960. – С. 37.

tajribadan o'tgan iqtisodiy qonuniyatlarni inkor etib, bozor munosabatlariga bepisandlik bilan qarab, xususiy mulkchilikni butunlay yo'q qilingan.

1918-yil 23-yanvarda RSFSR XKS "Markaziy nazorat kollegiyasi va mahalliy hisobga olish kollegiya hamda komissiyalarini tuzish to'g'risida"gi dekretni e'lon qildi. Mazkur dekret asosida 1918-yil 8-martda "Davlat nazorati haqida Nizom" qabul qilgan¹¹³. Shu yil 9-aprelda Toshkent Xalq xo'jaligi kengashi qoshida Davlat nazorati bo'limi ochilganidan so'ng, Samarqand, Poltoratsk (Ashxabad), Skobelev (Farg'ona), Kazalinsk Chernyayev, Namangan, Yangi Buxoro kabi shaharlar va uyezdlarda uning bo'limlari tashkil etilgan.

1919-yil dekabrda Butunrosiya Markaziy Ijroiya komiteti ishchi-dehqon inspeksiyasi to'g'risida Nizom qabul qilish mahsus komissiya tuzilgan.

1920-yilning aprelda Turkiston ASSR ishchi-dehqon inspeksiyasining Nizomi qabul qilingan.

Shuningdek, Nizomda Ishchi-dehqon inspeksiyasiga yuklatilgan vazifalar bir tizim sifatida taqdim etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'lgan:

a) Markazda chiqarilgan qaror va dekretlarning ijrosi hamda hayotga tatbiq etilishini nazorat qilish;

b) Mahalliy hokimiyat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarni markaziy hokimiyatning siyosatiga mutanosibligini kuzatish;

v) Mavjud hamma Sovet hukumati tashkilotlarini tekshirish;

g) Davlat mulkini saqlash, ularni taqsimlash hamda xo'jalik tashkilotlari bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarni nazorat qilish;

e) Daromad va xarajatlar bilan bog'liq loyihalarni davlat tomonidan tasdiqlashga taqdim etilishidan oldin ularni muhokama qilish va tegishli xulosalar berish;

j) Moliyaviy va moddiy smeta rejalarini muhokama qilish;

z) Semetalar buyicha ajratilgan kreditlarni o'zlashtirilishi holatlarini kuzatish;

i) Qog'ozbozlik va rasmiyatchilikka qarshi kurashish;

¹¹³ Алимова Д. Ўзбекистон тарихи. – Т. ; 2000. – Б. 34.

k) Davlat boshqaruv organlarida ish yuritish tizimini tekshirish;

l) Markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan tekshiruv va taftish natijalari asosida xulosa qilingan aniq takliflar berish;

m) Arznomalar byurosiga tushgan shikoyat va arizalarni tahlil qilib, davlat idoralarida mansabni suiste'mol qilish holatlarining oldini olish¹¹⁴.

1919-yil noyabrda Turkiston ASSR MIK tomonidan "Turkiston mahalliy organlari haqida Nizom" tasdiqlandi. Unda o'lkadagi mavjud hamma nazorat mahkamalari bitta ishchi-dehqon inspeksiyasi apparatiga birlashtirilishiga ijroqo'mlar va inqilobiy qo'mitalar tasarrufida tashkil etilishi ko'rstildi.

1921-yil 18-avgustda Butunrossiya MIK prezidumi tomonidan "ishchi-dehqon inspeksiyasining faoliyatini kuchaytirish zarurligi" to'g'risida mahsus dekret qabul qilindi. Shu yilning 31-noyabrda Butunrossiya MIK qabul qilingan boshqa dekretga muvofiq markazda TKP (b) MK, Turkiston ASSR MIK va XKSHga dalolatnoma xat yuborildi. Xatda o'lka ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissarligi va uning mahalliy organlari tekshiruv va taftish ishlarini olib borishda butunlay mustaqil, Turkiston ASSRdagi yuqori partiya va sovet tashkilotlari zarur shart-sharoit yaratib berishga mas'ul ekanliklari ko'rsatildi.

Markaziy nazorat komissiyasi va ishchi-dehqon inspeksiyasini birlashtirish to'g'risidagi reja RKP (b) XII seyezdida (1923-yil aprel) qo'llab quvatlandi va ularning vazifalari haqida maxsus qaror chiqarildi.

1923-yil 12-dekabrda Turkiston ASSR MIK tomonidan tasdiqlangan (Turkiston ASSR ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissarligi haqidagi Nizom)da, ishchi-dehqon inspeksiyasi o'lkada davlat apparatini takomillashtirish hamda uni sotsialistik qurilishdagi ustuvor vazifalarga moslashtirishga hizmat qiluvchi asosiy organ sifatida e'tirof etilgan.

Turkiston KP VIII seyezdida Turkiston ASSR ishchi-dehqon inspeksiyasini qayta tashkil jarayoni oxiriga yetkazildi va respublikani birlashgan nazorat organi: markaziy nazorat komissiyasi ishchi-dehqon ispeksiyasi tashkil etildi.

¹¹⁴ Эрматов А. Туркистонда назорат органларининг фаолияти... – Б. 44.

Turkiston ASSRda markaziy nazorat komissiyasi va ishchi-dehqon inspeksiyalarining birlashtirilishi tashkiliy jihatdan shunda namoyon bo'ldiki, markaziy nazorat komissiyasining raisi bir paytning o'zida ishchi-dehqon inspeksiyasi komissari vazifasini ham bajargan. Ayni paytda Turkiston Markaziy nazorat komissiyasi Prezidiumning a'zolari ishchi-dehqon inspeksiyasi kollegiyasining tarkibini tashkil etgan. Komissarlik boshqaruvchilarning takibi asosan Markaziy nazorat komissiyasi hodimlardan iborat bo'lib, ishchi-dehqon inspeksiyasi kollegiyasidagi beshta hodimdamdan to'rttasi Markaziy nazorat komissiyasi a'zolari edi.

Xulosa qilib aytganda, hokiyat bol'sheviklar tomonidan 1917-yil oktabrda kuch ishlatish yo'li bilan egallanganidan so'ng yakka hukumron partiya bo'lgan bolsheviklar partiyasi jamiyatning barcha jabhalardagi boshqaruvni ishchi va dehqonlarning qo'lga olib berish bohonasida ularni o'z nazorati ostiga olib boshlagan. Yana shuni takidlash kerakki Turkiston ASSRdagi nazorat organlari hisoblangan Militsiya bosh boshqarmasi va ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissarligi tarkibini malakali va tajribali kadrlar bilan taminlash masalasi tadqiq etilayotgan butun davr mobaynida keskin va dolzarb muammo sifatida saqlanib qoldi. Bu holat, xususan militsiya hodimlari faoliyati uchun xos bo'lgan. Bu holatning jiddiy sabablari mavjud bo'lib, u eng avvalo sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi og'ir iqtisodiy ahvol, iqtisodiyotning tushkunlik va inqirozga uchrashi, sovet hokimiyati siyosatidagi qo'pol xatolar, siyosiy va harbiy vaziyatning keskinlashuvi, Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning kuchayishi, moddiy ta'minotdagi uzilishlar, militsiyalarning ish haqqi kamligi va ular uchun belgilangan turli imtiyozlarning amalda joriy qilinmaganligi kabi omillar bilan belgilandi.

3. 2. Kadrlar masalasi: ziddiyat va yechimlar.

Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda tub islohotlar o'tkazilgan. Mustamlakachilar o'lkada hokimiyatni yanada mustahkamlash, o'z hukumronligini uzoq vaqt saqlab turish

say-harakati bilan bog'liq siyosatni olib borganlar. Bu mahalliy aholini uzoq vaqt qaramlikda ushlab turishning yagona yo'li edi. Mustamlaka ma'muriyati mazkur siyosatni amalga oshirishda kadrlar masalasiga alohida etibor berdi. Turkiston o'lkasidagi vaziyatni inobatga olgan holda yuqori davlat ahamiyatiga molik lavozimlarni imperiya vakillari o'z qo'llariga olib, quyi boshqaruv bo'g'inlarni mahalliy aholi qo'lga topshirganlar. Harbiy, noharbiy va sud hokimiyatini o'z qo'lida birlashtirgan byurokratiya vujudga keldi. Boshqaruvni "mustaqil", ammo imperiya amaldorlari nazorati ostida amalga oshirishi lozim bo'lgan mahalliy ma'muriyat va sudlov organlarini shakllantirishning "saylab qo'yiluvchi tizimi" qilingan edi. Turkiston jamiyatidagi ishlarni axvoli to'g'risidagi butun axborotlarni qo'l ostida jamlagan, to'la-to'kis siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan hamda jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotni tartibga solishga erishgan General-gubernatorlar va harbiy gubernatorlar bu ma'muriyatni oliy bo'g'ini bo'lgan.

1867-yildan to 1917-yilga qadar Turkistonda podsho tomonidan tayinlangan 12 nafar General-gubernator almashdi, jumladan: K.P. Kaufman (1867–1882-y.), M.G. Chernyayev (1882–1884-y.), N.O. Rozenbax (1884–1888-y.), A.B. Vrevskiy (1889–1898-y.), S.M. Duhovskiy (1898 – 1901-y.), N.A. Ivanov (1901–1904-y.), N.H. Tevyashev (1904–1905-y.), D.I. Subotich (1906-y.), N. I. Grodekov (1907–1908-y.), P.I. Mishenko (1909-y.), A.B. Samsonov (1909–1913-y.), A.N. Kuropatkin (1916–1917-y.). 1914–1916-yillar davomida podsho tomonidan anashu lavozimga tayinlanmagan General-gubernatorlar Fulug, Martson va Yerofev boshqardi¹¹⁵.

Harbiy gubernatorlar, qoida tariqasida O'rta Osiyo bo'ylab harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan Turkistonni zabt etishda alohida mahorat ko'rsatgan harbiylardan tayinlanardi. Turkiston o'lkasida Sirdaryo viloyatida N.N. Golovachyov, V.N. Trotiskiy, N.I. Korolkov, I.I. Fedotov, M.Y. Ramanov, A.S. Galkin. Farg'ona viloyatidan 1876-yildan M.D. Skobelov¹¹⁶, A. K. Abramov, N. A. Ivanov, N.I. Korolkov, Povalov, Chaykovskiy, G.A. Arendarenko, Susanin, V.I.

¹¹⁵ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. – Б. 170.

¹¹⁶ Тиллабоев С. Россия империясининг Фарғона водийсидаги хукмронлигининг мустамлакачилик моҳияти// Ўзбек давлатчилиги тарихида Фарғона водийси. -Фарғона. 2004. –Б. 55.

Pokotillo, A.I. Gippius, Samarqand viloyatida A. M. Yarimovich, N.Y. Rostovsev, M.P. Fedorev, V.Y. Medeniskiy, Gesket, A.S. Galkin, Grigorif, N. Likoshinlar harbiy gubernator lavozimida faoliyat olib borganlar. Harbiy gubernatorlar o'z nazoratlaridagi hudulardagi barcha bo'g'inlarni nazorat qilib, mahalliy aholini qo'lda tutib turishgan. O'lkada viloyat, uyezd boshliqlari imperiya armiyasining shtab-kapitanidan to polkovnigi unvoniga ega bo'lgan ofitserlar bo'lishgan. Uyezd boshlig'i lavozimiga zarur kadrlar imperiyaning Sankt-Peterburg, Moskva, Minsk, Samara, Penza va boshqa ichki guberniyalaridan dvoryan tabaqaga mansub kishilar olib kelinib tayinlanardi. Bu kadrlar mahalliy aholini turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyatidan mutloqo bexabar bo'lishgan. Boshqaruv jarayonida ko'pincha mahalliy aholi manfaatlariga zid siyosat olib borganlar. Uyezd boshliqlarining yordamchilari va uchaska pristavlari lavozimiga asosan dvoryan, meshchan, ruhoniylar tabaqalaridan chiqqan vakillar tayinlangan.

Turkiston o'lkasini boshqarishdagi Volostlarda imkon darajada mahalliy kadrlardan foydalanilgan. Lekin, Volost boshliqlari Uyezd boshliqlarini buyuruqlarini o'g'ishmay bajarishga majbur edilar. Uyezdlar boshliqlari volost boshqaruvchilarini tayinlash va ishdan bo'shatish vakolatlaridan keng foydalanganlar. Andijon uyezdidagi 20 volost boshqaruvchisidan 15 nafari, Marg'ilon uyezdida 19 tadan 14 nafari, Namangan uyezdida 31 tadan 17 nafari tayinlovga ko'ra ishlagan. Ko'ramizki, uyezd amaldorlari mahalliy ma'muriyatni "saylab qo'yish asoslari"ni to'la soxtalashtirib, har bir masalani o'zlari hohlaganchalik amalga oshirganlar. Bu holat mahalliy kadrlarga nisbatan past nazar bilan qaralganidan dalolat beradi. Bunday jarayonlar markazdan kelgan kadrlar o'rtasida mansabni suestimol qilinishi va korupsiyani avj olishiga zamin yaratgan.

Shuni ham takidlab o'tish joizki Rossiya fuqoroligiga o'tgan mahalliy millat vakillariga yuqori davlat lavozimlarida ishlash uchun ruhsat berilgan. 1969-yilda Qo'qonlik elchi Mirza Hakim Anna ordeni bilan taqdirlanib Umidov familiyasi

bilan rus fuqoroligini qabul qilgan. Shundan keyin, Mirza Hakim Harbiy maslahatchi lavozimini egallagan¹¹⁷.

Boshqaruv sohasidagi mahalliy kadrlarni kamsitilishi holatini Toshkent shahar Dumasining tarkibida ham ko'rish mumkin. Aholi o'sishi va shahar hududi kengayishi munosabati bilan 1870-yil 16-iyundagi Umumrossiya shahar nizomiga ko'ra Dumani tashkil etish zaruruyati yuzaga keldi. Shunga ko'ra 1877-yilda Toshkent shahar Dumasi tashkil etildi. 1877-yil 9-avgustda General-gubernator polkovnik Y.T. Pukalovni shahar hokimi etib tayinlagan. Shundan bir hafta o'tgach Dumaga saylovlar o'kazilishi boshlandi. Saylovda 25 yoshga to'lgan, shaharda ko'chmas mulki bo'lgan rus fuqorosi, savdo va kosibchilik guvohnomalari bo'yicha shahar solog'ini to'laydigan, qarzlari bo'lmagan, sudlanmagan shahslar qatnashishi belgilab qo'yilgan. Duma a'zolari soni 72 kishidan oshmasligi belgilab qo'yilgan. Shulardan Toshkentning xristian bo'lmagan, faqat mahaliy aholining uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan tub aholi vakillaridan, qolgan ikkidan uch qismi shaharning "yangi" qismidan rus millatiga mansub kishilardan tashkil topishi shart bo'lgan¹¹⁸. Duma yigilishlari mahalliy millat vakillari uchun tushunarsiz rus tilida bo'lgan. Bu holat Dumadagi mahalliy aholi vakillarining fikrlari unchalik ahamiyatga ega emasligidan dalolat bergan.

Mustamlaka boshqaruv tizimida kadrlar yetishmasligi sababli maorif sohasida isloxot olib borib rus-tuzem maktablarini tashkil qilish orqali bu muommoni hal etishni asosiy ustuvor vazifa qilib qo'yilgan. Sodiq fuqorolar faqatgina erkaklarda iborat bo'lmay, ayollarni ham bu jarayonga jalb etish ustuvor vazifa sifatida qaralgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad imperiya manfaatlariga "sadoqat" ruhini shakllantirish, hamda hukumat tarafdorlarini ko'paytirishdan iborat edi. Shunday maqsadlarda turli yo'nalishdagi qizlar maktablari tashkil etilgan. Mazkur maktablarga mahalliy millat ayollarini jalb etishda hukumat tomonidan tili, dini va madaniyati bir-biriga yaqin bo'lgan tatar ayollardan

¹¹⁷ Бартольд В. В. Сочинения II том. Общие работы по истории Средней Азии, работы по истории кавказа и восточной Европы. – Москва, 1963. – С. 365.

¹¹⁸ Исмоилова Ж. XX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. – Т.: Фан ва технология, 2004. – Б. 20.

vositachi sifatida foydalanilgan. Ana shu maqsadlarda 1861-yilda Sirdaryo viloyatining Kazalinsk uyezdida tatar muallima boshchiligida qizlar maktabi ochilgan¹¹⁹. Turkiston General-gubernatori N.O. Rozenbaxning topshirig'iga ko'ra, 1884-yili V. Nalivkin rus-tuzem maktabi loyihasini tuzdi. Shu yili Toshkenda birinchi rus-tuzem maktabi tashkil etildi¹²⁰.

Tatar ayollarini Turkistonda ta'lim sohasiga jalb qilish jarayoni ortib bordi. Tatar o'qituvchilaridan A. No'g'ayeva 1892-yildan boshlab Turkiston bilim yurtiga o'qituvchi qilib tayinlandi. S. Semenova 1890-yili o'qituvchilik faoliyatini boshlab, 1914-yildan Skobelov shahridagi ikkinchi qizlar maktabi direktori va muallimasi sifatida faoliyat yuritgan. 1897-yili Mariya Muratova Orenburg gimnaziyasidan Toshkent qizlar gimnaziyasiga o'qituvchi sifatida yuborilgan¹²¹. Anastasiya To'qayeva 1911-yildan Namanganda, 1912-yildan Sirdaryo viloyatidagi rus-qishloq maktabida direktor va muallimalik vazifalarida ishlagan¹²².

Sovetlar davrida tatar kadrlaridan foydalanish jarayoni davom etgan. Tatar ayollarining mahalliy va rus tilini bilishlari bolsheviklarga o'z maqsadlarini amalga oshirishda qo'l kelgan edi. Sovetlar ayollar maorifi masalasini hal etishda dastlab savodsizlikni tugatish maktablarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratganlar. Sovetlarning mahalliy aholi ayollarining savodini chiqarishdan to'la manfaatdor emasdi. Asosiy maqsad shu yo'l orqali ularni ijtimoiy hayotga keng jalb etish va ishlab chiqarishda foydalanishdan iborat bo'lgan. Sobiq sovet hukumati ayollardan o'z tarafdorlari bo'lishini ko'zlagan. Mana shu maqsadlarda ularni maorifga tortish ishlarini amalga oshirgan. 1919-yil boshidagi ma'lumotga ko'ra, Turkistonning uyez va shaharlarida ko'plab tatar muallimalari faoliyat ko'rsatganlar. Jumladan Yangi Buhoroda O. Qo'chqorova, Samarqandda G. Subhonqulova, Qarmoqchi uyezdida F. Badriddinova, M. Qosimova, Kattaqo'rg'onda M. Sayfulina, Qo'qon uyezdida M. Kashayeva, D. Razvanova kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Sovetlar tatarlardan o'z go'yalarini

¹¹⁹ Насретдинова Д. Туркистон маданият ҳаётида татар аёллари. – Т.: Yangi nashr, 2015. – Б. 14.

¹²⁰ O'sha kitob. – Б. 17.

¹²¹ O'sha kitob. – Б. 18-19.

¹²² O'sha kitob. – Б. 20.

mahalliy millat vakillariga targ'ib qilishda foydalanganlar va bu orqali o'zlari uchun zahira kadrlar tayyorlab borganlar.

Sovetlar hokimiyatni mustahkamlash uchun o'z g'oyalariga sodiq kadrlarni boshqaruv tizimiga jalb qilishni o'z oldilariga ustuvor vazifa deb qo'yganlar. Sovetlar andozasiga tushadigan kadrlarni turkistonga yuborishda Volgabo'yi, Uraloldi hududlari faollik ko'rsatgan. Turkistonda sovet hokimiyatini mustahkamlashda jonkuyarlik ko'rsatganlar qatorida Arif Klevleev va I. Ibrohimovlarning ham keltirish mumkin¹²³. Tatar-Boshqird markaziy komissarligining Samara bo'limi 1920-yili Tarpishev, Xalimov, Malikov, Sayfuddinovlarni Turkistonga sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun safarbar qilgan¹²⁴.

Turkistonni kerakli kadrlar bilan ta'minlashdagi Markaz tomonidagi faollik "Orenburg talqini"ga barham berilganidan keyin yanada muhim ahamiyat kasb etdi. 1919-yil 8-oktabrda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) qoshidagi Turkiston ishlari bo'yicha komissiyani tashkil etilishi ham kadrlar moammosi yechimida katta rol o'ynagan. Turkkomissiyaning Sh.Z. Eliava boshchiligidagi a'zolari Turkistonga kelishidan avval hamma tashkiliy masalalarni Samara guberniyasida turib hal qilganlar. Xususan Simbirsk, Samara, Qozon, Ufa va boshqa guberniyalaridan Turkkomissiya tarkibiga kerakli kadrlar safarbar qilindi. Safarbar qilinganlar orasida Vasileviskiy, Aleksandrov, Asileviskiy, Markgraf va boshqalar bor edi.

Umuman olganda 1919-yilning birinchi yarmida Turkistonga 160 ta partiya va sovet hodimlari yuborilgan. Bu raqamlar keyingi yillarda ko'payib bordi. Faqatgina 1920-yil avgust oyida Qozondan Turkistonga yuzga yaqin kadrlar safarbar qilingan. 1920-yil 20-sentyabridan 1-noyabrgacha Rossiyaning markaziy guberniyalaridan 201 kishi Turkistonga sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun safarbar qilingan. Ular asosan Turkiston, Buhoro, Xorazm respublikalaridagi partiya va sovet organlariga yuborilgan.

¹²³ Расулов А. Туркистон ва Волгабўй, Уралолди халклари ўртасидаги муносабатлар (1917-1925 йтллар). – Т.: Университет, 2005. – Б. 53.

¹²⁴ О'sha kitob... – Б. 54.

Turkistonga safarbarlikning o'ziga xos nozik tarafi ham bo'lgan. O'z vaqtida Rossiyaning markaziy guberniyalaridan Turkistonga safarbar qilinganlar u yoki bu lavozimlarda ishlash davomida oziq-ovqat taqchilligi boshlanishi arafasida yoki ocharchilik yillarida o'z hamkasblarini, qarindosh urug'larini Turkistoda ishlashga turli bahona va sabablar bilan chaqirib olishgan.

Ma'suk lavozimlardagi kadrlarni Rossiyaning markaziy guberniyalaridan Turkistonga kelishi 1921-yilga qadar asosan o'lkada boshqaruv tizimini mustahkamlashga, Komunistik g'oyalarni singdirishga qaratilgan bo'lsa, 1921–1923-yillardagi safarbarliklarning aksaryati ocharchilik azoblaridan qochib, o'lkamizda panoh topishga yo'naltirilgan edi. Turkiston o'lkasi 1921–1923-yillarda rossiyaning ocharchilik hududlaridagi partiya va sovet boshqarmalarida ishlaydiganlar uchun o'ziga xos mehnat ta'tilini o'tkazadigan hududga aylangan e'di. 1921-yil Samara guberniyasidan Xo'jand shahriga kelgan K. Smakov o'lkani o'lkani o'rganib shu yerda ishlash hohishini bildirgan. Xo'jand uyezd-shahar partiya qo'mitasida ish yurituvchi lavozimida ish boshlagan.

Rossiyaning markaziy guberniyalaridan Turkistonga yuborilgan kadrlar o'lkada sovet hokimiyatini mustahkamlash, barcha soxalarni markaz mafaatiga bo'ysindirish asosiy vazifalari bo'lgan.

Turkistonda sovet hokimiyatining olib borgan mustamlakachilik siyosati va qattiq markazlashtirish yo'lidagi harakatlari mahalliy millat vakillarini qattiq noroziligiga sabab bo'lgan. Boshqaruv tizimiga mahalliy millat vakillarining kam jalb qilinayotgani noroziliklar keltirib chiqargan. Afsuski, Turkiston taqdiri va uning bir butunligi uchun qayg'urgan millat fidoiylarining vatanparvarlik harakati o'lkadagi yevropali bolsheviklar tomonidan qattiq qarshilikka uchradi¹²⁵, Sovet hokimiyati arboblarning shovinistik siyosati milliy va diniy his-tuyg'ularni tahqirlash, tub aholi manfaatlarini nazar pisand qilmasligi, bir so'z bilan aytganda, sovet mustamlakachilik siyosatini yuritish milliy kommunistlarning ba'zilarini oldinroq, qolganlarini esa keyinroq, bolsheviklar hokimiyatidan hafsalasi pir

¹²⁵ Хайдаров М. ТАССР даврида совет ҳокимияти олиб борган сиёсат: тарих ва ҳақиқат. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар тарихидан. – Т.: Университет, 1998. – Б. 44.

bo'lishiga olib kelgan. Mahalliy millat vakillari endilikda bolsheviklar siyosatiga ochiq ravishda qarshi chiqa boshlaganlar. Boshqaruv sohasiga kirib milliy manfaatlarini himoya qilishga kirishganlar.

1920-yil aprelda Toshkentda o'lka sovetlarining V syezdida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Turkiston respublikasi qonun chiqaruvchi organi – Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tutilib, uning a'zolar soni 36 ta qilib belgilandi. Takibga mahalliy millat vakillaridan 9 nafari kiritildi holos. F. I. Kolesov boshchiligida tuzilgan Xalq komissarlik sovetida ham 16 a'zodan 3 nafari mahalliy vakillardan ekanligi milliy kadrlarga past nazar bilan qaraganligidan dalolat beradi.

Milliy rahbarlardan Turkistonda Turor Risqulov, Abdulla Rahiboyev, Nizomiddin Xo'jayev, Inomjon Hidiraliyev, Sultonbek Xo'janov, Abdulla Avloniy, Fayzulla Ho'jayev, Abdulqodir Muhiddinov, Qayg'usiz Otaboyev, Munavvar Qori Abdurashidhonov, Nazir To'raqulov, Fitrat kabi arboblarning millat va vatan uchun jon fido qilishga tayyor insonlar edilar¹²⁶. Bu shahslar sovet idoralarida faoliyat olib borib tub xalqlarning manfaati uchun o'z muholiflari bilan uzliksiz kurash olib borganlar. Ma'lumki mahalliy millat vakillarini davlat apparati ishiga jalb etish masalasi o'lka sovetlarning har bir syezdida qizg'in munozaralarga sabab bo'lsada, deyarli samarasiz tugagan. 1919-yil mart oyida bo'lgan sovetlarning VII favqulotda majlisida mahalliy millat vakillarining davlat ishlariga jalb qilish kun tartibiga qo'yildi. Keskin munozaralarda musulmon deputatlari sovet hokimiyatining mahalliy aholiga begonligi, musulmonlarga ishochsizlik bilan qarashi, ularni hokimiyat tashkilotlariga yaqinlashtirilmasligi keskin tanqid ostiga olindi. Sovetlarning VII seyezdining 8 martdagi yopiq majlisida T. Risqulov quyidagilarni takidladi: “Ruslar hech qanday asosga ega bo'lmasalar ham musulmon mehnatkashlari va musulmon rahbarlariga ishonchsizlik bildirmoqda...”. T. Risqulovning bunday haqli talabiga ashaddiy shovinist Uspeniskiy shunday javob beradi: “...ishonchsizlik masalasiga kelsak,

¹²⁶ Алимova Д. А., Голованов А. А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: Сиёсий ва мафкуравий таъйиқ оқибатлари. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – Б. 72.

kommunistik qurilishda ishlashni bilish kerak, musulmonlar orasida esa ongli ishchilar va rahbarlar kam”¹²⁷. Shunday bo’lsada mahalliy millat vakillar kurashdan to’htamadilar. Turkiston milliy rahbar hodimlarni birlashtirishda T. Risqulov rahbarlik qilgan o’lka Musulmonlar byurosi katta ro’l o’ynagan.

Mahalliy millat vakillaridan xalq majnfaatlarini hisobga olib siyosat olib borgan rahbarlardan Turor Risqilovni keltirish mumkin. 1918–1924-yillarda T. Risqulov Turkiston Avtonom Respublikasida muhim vazifalarni bajargan. Turkiston Sog’liqni saqlash xalq komissari (1918–1919-yillar), Ocharchilikka qarshi kurash Markaziy omissiyasi raisi (1918–1919-yillar), RKP(b) TKP Musulmonlar byurosi (1919-1920-yillar), Turkiston ASSR MIK raisi (1920-yil yanvar-iyul), Turkiston ASSR XKK raisi (1922-yil sentabr-1924 yil yanvar) lavozimlarida ishlagan. T. Risqulov Turkistondagi ocharchilik va uning dahshatli oqibatlarini tugatish uchun kurashdi, bolsheviklarning mahalliy xalqlarning ochlikdan qirilishiga befarq, mensimaslik munosabatini ochiq tanqid qildi. Shuning uchun u 1924-yil fevralda Markazga yana chaqirib olingan. T. Risqulov Komintern Ijroiya Qo’mitasining O’rta Sharq bo’limida ishlagan¹²⁸. Milliy rahbarlardan yana biri Abdulla Rahimboyev edi. U 14 ta tilni bilgan. A. Rahimboyev 1919-yildan boshlab sovet idoralarida xizmat qila boshlagan. Turkiston ASSR MIKning raisi (1920–1922-yillar), Turkiston ASSR Maorif xalq komissari lavozimlarida ishlagan. Uning ongiga “kommunistik g’oya”ni singdirish uchun 1922-yilda u Moskvaga chaqirilgan. Markaziy hukumat qoshidagi “tayyorlov”dan so’ng A. Rahimboyev Buxoro Kompartiyasi va Turkiston KPning Markaziy Qo’mitasi kotibi lavozimlarida ishlagan (1923–1924-yillar)¹²⁹. I. Xidiraliyev 1919-yildan turli sovet idoralarida mas’ul lavozimlarda ishlagan: Farg’ona viloyati partiya qo’mitasining kotibi (1920–1921-yillar), Turkiston ASSR Yer ishlari xalq komissari (1922-yil), Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) raisi (1922–1924-yillar). Xidiraliyev Turkiston respublikasi manfaatlarini himoya qilib,

¹²⁷ Ражабов Қ., Хайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йиллар). – Т.: Университет, 2002. – Б. 62.

¹²⁸ Sultonov F., Bozorboyev F. O’zbekiston hukumdorlari (t. f. d. prof. Alimova D. A. tahririyati ostida). – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 80.

¹²⁹ O’sha kitob... - B. 81.

bolsheviklarning shovinistik siyosatiga qarshi kurashgan. Turkistondagi istiqlolchilik harakatiga xayrixohlik bilan qaragan. U “oʻn sakkizlar guruhi”ning tashkilotchilaridan biri edi (1925-yil). Yer ishlari xalq komissari (1925-yil) sifatida I. Xidiraliyev Oʻzbekistonda yer-suv islohotini amalga oshirishda faol qatnashgan.¹³⁰

Rossiya mustamlakachiligi davrida imperiya protektariga aylangan Buxoro va Xivada ham sovetlar hokimiyatini joriy qilish uchun harakatlar amalga oshirilgan. Eng avvalo Buhoroda amir, Xivada xonlik tizimini agʻdarib tashlash maqsadga muvofiq deb qaralgan. Turkiston Muhtoriyati qonga botirilgandan soʻng 1920-yil 25-dekabrda bolsheviklar Xivaga bostirib kirganlar. 1920-yil 2-fevralda Xiva xoni Said Abdullaxon tahtdan voz kechgan. 1920-yilning avgustida Buhoro amirligiga bostirib kirilib 2-sentabrda amir taxtdan agʻdarilib, Buhoroyi sharif bolsheviklar qoʻliga oʻtgan¹³¹.

Buhoroda poytaxt bosib olingach, hokiyat Muvaqqat Butun Buhoro Inqilobiy qoʻmitasi ihtiyoriga oʻtgan. Inqilibiy qoʻmita tarkibiga Axmadjon Abdusaidov, Fayzulla Xoʻjayev, Muinjon Aminov, Olimjon Akchurin, Abdulhamid Oripov, Sobir Yusupov, Mukammil Burhonov, Hoji Xasan Ibrohimov, Muhammadjon Qulmuhammedovlar kiritilgan. Butunrossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari boʻyicha komissiyasining 1920-yil 10-sentabrdagi qarori bilan RSFSR hukumati va RKP (b) MKning Buhoro Xalq Sovet Respublikasidagi vakili etib Turkiston komissiyasi raisining oʻrinbosari V. V. Kuybishev tayinlangan. V. Kuybishev hukumat boshligʻi Fayzulla Xoʻjayevga ishonch yorligini topshirgan, unda “RSFSRning asosiy talabi Buhoro davlati mustaqilligini hurmat qilish, barcha rus tashkilotlarini ham Buhoro mustaqilligini hurmat qilishga undashdan iborat” ekanligi taʼkidlangan edi. Amalda esa V. V. Kuybishev Buhorodagi ijtimoiy-siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan barcha

¹³⁰ Sultonov F., Bozorboyev F. Oʻzbekiston hukumdorlari (t. f. d. prof. Alimova D. A. tahririyati ostida)... - B. 82.

¹³¹ Amir Саййид Олимхон Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т.: Фан, 1991. – Б. 79

islohotlarga ochiqdan-ochiq aralashib, sovet andozasini o'rnatishga harakat qilgan¹³².

1920-yil 23-aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm xalq sovet Respublikasi tuzilgan. Xalq Nozirlar Sho'rosi raisi etib Polvonniyoz Xoji Yusupov saylangan. XXSRda RSFSRning mahsus vakili etib Broydo tayinlangan. Bu vakil ham XXSRda barcha o'zgarishlarni nazorat qilib sovetlarni yuqori davlat amaldorlariga hisobotlar berib turishgan.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa: Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin mustamlakachilar o'lkada hokimiyatni yanada mustahkamlash, o'z hukumronliklarini saqlab turish say-harakati bilan bog'liq siyosatni olib borganlar. Mazkur siyosatni amalgam oshirishda kadrlar masalasiga alohida e'tibor berishgan. Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng bu yerda islohotlarni amalga oshirishda o'zlari manfaatlariga sodiqlik bilan hizmat qiladigan kadrlarni safarbar qilish ortib borgan. Turkiston ASSRga markazdan doimiy ravishda kadrlar kelib turgan. Biroq ular markaz topshiriqlarini "quloq qoqmay" so'zsiz bajarishdan nariga o'tmaganlar. Bunday kadrlar asosan markaz tomonidan Rossiyaning markaziy guberniyalaridan yuborilgan. TASSR, BXSR, XXSRning boshqarishda mahalliy kadrlardan foydalanilgan bo'lsada, ularni faoliyatini nazorat qilib turadigan vakillar tayinlangan. Bunday vakillar milliy rahbarlarning faoliyatini nazorat qilib doimiy tarzda markazga hisobotlar topshirib turishgan. Bu holatdan shuni aytish mumkinki milliy kadrlarga ishonmaslik, ulardan hadiksirash va ularni nazar-pisand qilmaslik holatlari mavjud bo'lgan.

¹³² Пардаев А. Бухоро ва Хоразмдаги иқтисодий кенгашлар фаолияти (1920-1924 йиллар). – Т. Янги нашр, 2015. – Б. 17.

XULOSA

Mazkur magistrlik ishini yozish davomida, tadqiq etilgan tarixiy manba va mavzuga oid ilmiy asarlar tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Turkistonda tashkil qilingan Podsho tuzumining bosqinchilik siyosati, mustabidchilik, markaz va hudud orasidagi munosabatlarning egosentristik illatlari, shuningdek Rossiya tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati, uning boshqa tarixiy davrlarda to'plagan mustamlakachilik an'analari va tajribasi bilan belgilangan. Shunga ko'ra o'lkada harbiy zo'rvonlikka, tashqi va ichki iqtisodiy zo'rlash uslublariga, ilgarigi milliy davlatchilik mexanizmlarini parchalash va milliy asosdagi hudud tabiiy tadrijining imkoniyatlarini buzishga, Rossiya davlatiligi asoslarini o'rnatishga yo'naltirilgan tizim tashkil qilindi. Kapitalizm va burjua islohotlarining erkin rivojlanishiga tayangan negiz modelining sifat o'zgarishlari metropoliyaning o'zida mazkur jarayonlarning ijtimoiy qoloqligi sababli ilk davrlarda Turkistonda salbiy rol o'ynagan.

Hukumat mustamlakachilik tizimini tashkil etish jarayonining negizida ilmiy adabiyotlarga tayanib quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatish mumkin;

- O'rta Osiyo xonliklari va bevosita Rossiyaga qo'shib olingan hududlarning Rossiya namunasida shakllantirildi;
- tizimning barcha muhim majmualarini egallagan va nazorat qilgan Rossiya byurokratiyasi harbiy, fuqarolik hamda sud hukumatining markazlashtirilishi;
- g'azna uchun arzon va samarali bo'lgan o'lkaning tabiiy, moddiy hamda inson manbalaridan foydalanish tizimini tezda joriy etish maqsadida devonning institustionalizastiya va rastionalizastiya qilinishi.

Shu bilan birga mahalliy jamiyat uchun Podsho tuzumining mustamlakachilik vazifalarini amalga oshirishda, joylarda ijtimoiy tayanch va "ayg'oqchi" kadrlar zahirasini yaratishga xizmat qilgan ba'zi an'anaviy, ijtimoiy-huquqiy va ma'muriy institutlar hamda me'yorlardan foydalanishga asoslangan vositali tayanchi mavjud edi. Tub aholining Podsho tuzumiga sodiq bo'lgan kam sonli vakillaridan "saylov asosida" tuzilgan mazkur institutlari harbiylashtirilgan rus byurokratiyasidan

tashkil etilgan o'lka, viloyat va uezd tizimlari hamda davlat idoralari bilan muvofiqlashuvi va uyg'unlashuvi juda qiyin kechdi. Hatto, yuqori darajali markazlashtirish va Podsho amaldorlarining "xushyor" rahnamoligiga qaramay, ular "oqilona" tashkillashtirilmay qolaverdi. Bu hol harbiy-ma'muriy tizimga juda mos kelar edi. "Yuqorida" taxmin qilinganiga qaramay, ular yangi hukumat uchun keng va ishonchli ijtimoiy negiz yaratishga imkon tug'dirgan. Lekin, ularning faoliyati Turkiston tub aholisining noroziligini uyg'otdi hamda hukumat bilan o'tkir siyosiy va ijtimoiy nizolar keltirib chiqargan. Turkistondagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotni umumiy tartibda yo'lga solinishiga doimiy ravishda boshqaruv tizimi, ma'muriy, mirshab va jazo vositalarining kengaytirilishi, mustahkamlanishi hamda favqulodda va harbiy xususiyatdagi Podshoalar orqali erishilgan. Mustamlakachilik bosimi ostida qolgan mahalliy aholi esa o'z g'oyalarini o'zgartirmadi va o'zining tabiiy rivojlanish bag'riga qaytish hamda milliy davlatchiligini tiklash yo'lini izladi. Ammo, bu o'z-o'zidan bo'lmasdi. Chunki, barcha muammolarni yechishda zo'ravonlikka asoslanish XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Podsho tizimiga xos xususiyatlardan biri edi.

Harbiy-ma'muriy, rasmiy-byurokratik tizimining ustunlarini mustahkamlovchi va Turkiston jamiyatining barcha hayotiy muhim sohalarida Rossiya amaldorlari apparatining hukmronligini tasdiqlovchi farmonlar, qarorlar va ko'rsatmalarning turli vazirliklar hamda idoralar tomonidan tahrir qilingan 1886-yilgi qonun hujjatlari asosida boshqaruvning imperiyaga oid andozalarining kengaytirilishi va mustahkamlanishi bu siyosiy yo'nalishning amaliy ko'rinishi edi. Shu bilan birga metropoliya va mustamlakachilikning turli madaniyatli asoslari, xo'jalik darajasining oshirilishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilishi hamda hudud iqtisodiyotining eksport-xomashyoga tayanishini rag'batlantirish zaruriyati o'z mablag'larini sarflashga va sotuvning yangi bozorlarini kengaytirishga erishmoqchi bo'lgan, ancha kuch yig'ib olgan Rossiya burjuaziyasi manfaatini ko'zlab, umumiy bozor tizimiga xizmat kursatuvchi sohalarda hukumatning nazoratchilik vazifalarini qisman cheklanishiga olib keldi. Mazkur vazifa va vakolatlarning ixtisoslashtirilgan vazirliklar, idoralar xamda ularning

Turkistondagi filiallariga topshirilishi haqiqiy mustamlakachilik siyosatini boshqarish mexanizmini yanada moslashtirish imkonini berdi. Biroq iqtisodiyotni oqilona boshqarish tomon hech qanday siljish bo'lmagan.

Hukumat mustamlakachilik tizimining tadrijiy ma'muriy va sud vazifalarining bo'linishida, imperiyaning yangi burjuaziyaga xos sud nizomlariga moslashtirilgan sud tergovchilari, prokuror nazorati, advokatura hamda oqlovchilar institutining yaratilishida ko'rindi. Ular harbiy-ma'muriy tizimda o'ziga xos posangi bo'lib xizmat qildi, ayni paytda ularning faoliyati cheklangan edi. SHu bois, ular hududdagi rus aholisining yuqori va O'rta qatlamlarigagina o'z ta'sirini o'tkazaoldi. Erkinlashtirilgan nizomlar asosidagi yangicha o'z huquqdni tanish va mulk daxlsizligi huquqi ilgarigidek butunlay Podsho amaldorlari tomonidan nazorat qilindi, "xalq" sudlari xizmatidan foydalanuvchi tub aholining ko'pchiligiga esa mutlaqo daxl qilmadi.

Turkiston xalqi manfaatlari hamda diktatorlik tartibi orasidagi farq tobora kengayib bormoqda edi. Milliy boylikni talon-toroj etayotgan va tub aholining milliy ongini shikastlayotgan amaldorlar ustidan shikoyatlardan tortib, to huqumatga qarshi ochiq chiqishlar hamda milliy-ozodlik harakatigacha bo'lgan mazkur harakatga qarshi kurash shakllari oqilona tashkillashtirildi. Jamiyatdagi beqarorlik va o'tkir ijtimoiy ziddiyatlar mustamlakachilik tizimi ijtimoiy zaxirasi uning islohot qilinishi xisobiga kengaytirilishi, rus apparatiga volost va qishloq tuzilmalarining to'liq tobeligi, hatto tub viloyatlarning sug'oriladigan hududlarigacha ko'chishga oid harakatning rag'batlantirilishi, hukumat jazolovchi vazifalarining mukammallashuvi kabi masalalarni kun tartibiga qo'ydi. Mazkur tizim harbiy-dala hamda maxsus sudlar uchun sudlov olib borish chegaralarini kengaytirar, mirshab nazoratining va siyosiy qidiruvning yangi organlarini joriy qilardi, butun ma'muriyatning mirshablik vakolatlarini pastdan yuqorigacha kengaytirar, doimiy ravishda aksfirklovchi va mustamlakachilik tartibidan norozilarga qarshi tintuvlar, surgunlar hamda qamashlarni qo'llar edi. Imperiyaning qarashlari bilan chegaralangan, hukmronlik va shovinizm bilan to'liq

sug'orilgan tizim tub islohatlarga bo'yin egmadi hamda Fevral voqealari bosimi ostida quladi.

Mahalliy ijro apparatining shaxsiy tarkibi ko'char va ko'chmas mulk egalari, katta zamindorlar, tub aholining Podsho tartibiga sodiq bo'lgan qismidan, ma'lumoti darajasiga hech qanday talab qo'yilmagan holda shakllantirildi.

Mazkur apparatga ma'murlar tanlash ko'zbuyamachilik va qalbakichilikka asoslangan edi. Zero, saylovni bekor qilish, o'ziga ma'qul bo'lgan yangi volost amaldorlarini va sudyalarini tayinlash, rejimga xush kelmaganlarni o'zgartirish huquqlaridan keng foydalanish uezd boshliqlari faoliyatiga xos asosiy xususiyat edi. Mahalliy apparat ta'minotiga byudjetdan mablag' ajratilmas edi. Ish xaqi qishloq yig'inining qaroriga ko'ra belgilanib, aholining zimmasiga tushar edi. Hukumat tartibni saqlash masalasini o'sib borayotgan, bir-biriga zid kuchlarga to'g'ridan-to'g'ri tobe qilib qo'ygan edi.

Turkistonda mustamlakachilik tizimi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari davomida, jamiyatning ijtimoiy-madaniy qatlamlariga jiddiy zarar etkazdi, yangi davrda uning zo'rlab sovetlashuviga zamin yasadi, o'lka xalqlarini milliy davlatchilikdan mahrum qildi.

Podsho va bolshevistik hukumat orasidagi izchillik Turkiston boshqaruvining uslub va shakllarida ham ko'rinadi. Imperiyaning milliy hududlarida Podsho tuzumining rahbarligini ta'minlovchi siyosiy va iqtisodiy model doimiy armiya va zo'ravonlik xususiyatiga ega bo'lgan harbiy-ma'muriy tizim tomonidan qo'llab-quvvatlanar edi. 1886-yil Nizomiga va keyingi yillar qonun hujjatlariga ko'ra qonunlashtirilgan Podsho ma'muriyatining jazo vakolatlari Turkiston harbiy-ma'muriy tizimida boshboshdoqliq, qatag'on vositasiga aylandi. Har qanday tizim erkin insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etmas ekan u o'zoq yashay olmaydi tarix isbotlagan oliy haqiqat insoniy qadriyatlar albatta bir kun qaror topadi.

Yangi boshqaruv tizimining Turkiston zaminiga joriy etilishi qiyin va og'riqli ikechdi. U mahalliy jamiyat taraqqiyotining ichki tendensiyalarini jiddiy o'zgartira olmadi. Insonga zulm qilishga, qadr-qimmatini toptashga asoslangan tuzumga

qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar kuchli mustamlaka tazyiqi ostida ham yetilib kelmoqda edi

“Tarix ulug' murabbiy, lekin biz insonlar uning o'gitlariga amal qilmaydigan shogirdlarimiz” shunday tarixda ro'y bergan voqea hodisalardan to'g'ri xulosa chiqarish bugungi kun tarixchisining eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati

I. Magistrlik dissertatsiyasi uchun nazariy asos bo'lgan adabiyotlar ro'yhati:

1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.

1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31б.

1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

1.4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 430 b.

1.5. Каримов И. А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – 304 б.

1.6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 102 б.

II. Manbalar.

2.1. Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамои /Форс-тожик тилидан Ш.Воҳидов таржимаси // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1991.– №8 –22 б.

2.2. Куропаткина А. Н. Из дневника. Восстание 1916 г. в Средней Азии // Красный архив, №3. 1929. – 12 с.

2.3. Русское знамя в Средней Азии // Исторический вестник, № 8. – СПб., 1899. – 110 с.

2.4. Завоевание Туркестана. Заметки по среднеазиатскому вопросу, Д. И. Романовского // Русский вестник, № 7. – СПб., 1868. – 165 с.

2.4. Экспедиция в Хиву в 1873 году. От Джизака до Хивы. Походный дневник полковника Колокольцова // Военный сборник. – СПб., 1873. – 74 с.

2.5. Скобелев в Туркестане (1869-1877) // Исторический вестник. № 10, 1916. – 114 с.

2.6. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областей. – СПб., 1867, – 120 с.

2.7. Костенка Л. Ф. Туркестанские войска и условия их бытовой походной и боевой жизни // Военный сборник, № 5, 1875. – С. 208.

III. Asosiy adabiyotlar.

3.1. Абдулхамид Чўлпон. Гўзал Туркистон. – Т.: Маънавият, 1997. – б.

3.2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар 1-2 жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – б.

3.3. Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туруркестане во второй ролевени XIX-первой четверти XX в.в. – Т.: Университет, 1999. – 211 б.

3.4. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. – 240 б.

3.5. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилик курилиш тажрибаси. – Т.: Маънавият, 2000. – 168 б.

3.6. Алимова Д. А., Голованов А. А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: Сиёсий ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 260 б.

3.7. Алимова Д. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 350 б.

3.8. Амир Саййид Олимхон Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т.: Фан, 1991. – 21 б.

3.9. Аҳмад Закий Валидий Тўғон Бўлинганни бўри ер (Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан хотиралар). – Т.: Адолат, 1997. – 280 б.

3.10. Аҳмаджонов Ф. А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Т.: Шарқ, 2003. – 268 б.

3.11. Бартольд В. В. Сочинения II том. Общие работы по истории Средней Азии, работы по истории кавказа и восточной Европы. – Москва, 1963. – 365 с.

- 3.12. Болтабоев С. Чоризм ҳукумронлиги даврида ислом. – Наманган, 2005. – 70 б.
- 3.13. Бунич Игор. Партиянинг олтинлари (рус. таржима. Шарофиддинов О.). – Т.: Маънавият, 2005. – 375 б.
- 3.14. Джалилов Т. Верные отчизне (1917-1924 гг). – Т.: Узбекистан, 1968. – 211 б.
- 3.15. Ешов Б. Ўзбекистонда Давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – 321 б.
- 3.16. Зиёев Ҳ. Истиқлол – маънавият негизи. – Т.: Маънавият, 1999. – 188 б.
- 3.17. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукумронлигига қарши кураш (XVIII-XX аср бошлари) – Т.: Шарқ, 1998. – 437 б.
- 3.18. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Т.: Шарқ, 2001. – 446 б.
- 3.19. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати (Мустабит тузумга қарши 1916 йил ва 1918-1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги). – Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. 174 б.
- 3.20. Исмоилбек Гаспринский (Гаспдали) Ҳаёт мамот масаласи (Қосимов Б. Сўз боши муаллифи). – Т.: Маънавият, 2006. – 320 б.
- 3.21. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг “Янги шаҳар” қисми тарихи. – Т.: Fan va texnologiya, 2004. – 139 б.
- 3.22. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркистане (1867-1917 гг.). – Т.: ART FLEX, 2009. – 236 б.
- 3.23. Қосимов Е. Қора кўзойнак билан ёзилган тарих. – Namangan, 1993. – 120 б.
- 3.24. Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. – Т.: Нур, 1992. – 48 б.
- 3.25. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882. – 303 с.

- 3.26. Мусаев Н. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – Б. 7.
- 3.27. Мустофо Чўқай ўғли Истиклол жаллодлари (1917 йил хотиралари). – Т.: Гофур Гулом номидаги Нашриёт- матба бирлашма, 1992. – 42 б.
- 3.28. Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари. – Т.: Yangi nashr, 2015. – 181 б.
- 3.29. Пардаев А. Бухоро ва Хоразмдаги иқтисодий кенгашлар фаолияти (1920-1924 йиллар). – Т. Yangi nashr, 2015. – 165 б.
- 3.30. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йиллар). – Т.: Университет, 2002. – 166 б.
- 3.31. Расулов А. Туркистон ва Волгабўй, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар (1917-1925 йтллар). – Т.: Университет, 2005. – 199 б.
- 3.32. Романовский Д. И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. – Спб., 1868. – 123 с.
- 3.33. Тиллабоев С. Б. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Тошкент: Фан, 2008. – 266 б.
- 3.34. Тиллабоев С., Замонов А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2010. – 366 б.
- 3.35. ТохирҚаҳҳор. Ҳур Туркистон учун. – Т.: Чўлпон нашриёти, 1994. – 54 б.
- 3.36. Турсунов Х. Т. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. – Т., 1962. –236 б.
- 3.37. Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда (Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбедейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари). – Т.: Фан, 2009. – 391 б.

- 3.38. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – 461 б.
- 3.39. Ульмасов А. Национализация промышленности в Советском Туркестане. – Т.: Изд. АН УзССР, 1960. – 266 с.
- 3.40. Фиолетов Н. Судопроизводства в мусульманских судах Средней Азии. –Т., 1928. – 366 с.
- 3.41. Хайдаров М. ТАССР даврида совет ҳокимияти олиб борган сиёсат: тарих ва ҳақиқат. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар тарихидан. – Т.: Университет, 1998. – 244 б.
- 3.42. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. Т.: Фан, 1984.
- 3.43. Эрматов А. Туркистонда назорат органларининг фаолияти. – Т., 2007. – 231 б.
- 3.44. Hamdamov S., Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi (birinchi kitob). – Т.: Sharq, 2011. – 329 б.
- 3.45. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. – Т.: Sharq. 2011,– 352 б.
- 3.46. Muhamedov H., Muqimov Z., Husanov O. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Т.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, 2011.– 383 б.
- 3.47. Murtazayeva Y. H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2010. – 372 б.
- 3.48. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. – Т.: Taffakkur-bo'stoni, 2011. – 192 б.
- 3.49. Shamsiddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari) ikkinchi kitob. – Т.: Sharq, 2010. – 536 б.
- 3.50. Sodiqov H., Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. – Т.: Sharq, 2011. – 366 б.
- 3.51. Sultonov F., Bozorboyev F. O'zbekiston hukumdorlari (t. f. d. prof. Alimova D. A. tahririyati ostida). – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 88 б.

IV. Davriy matbuot

- 4.1. Зияев Х. Завоевание Бухарского и Хивинского ханств царизмом // “Общественные науки в Узбекистане”. 1990, №8 – 239 б.
- 4.2. Тиллабоев С. Россия империясининг Туркистонда маъмурий - худудий бошқарув соҳасидаги сиёсатининг баъзи хусусиятлари // Ўзбекистон тарихи. – 2005. №3. – 236 б.
- 4.3. Жумаев У. Туркистондаги Назорат палатасининг фаолияти // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2010. №2. – 320 б.
- 4.4. Аъзамхўжаев С. С. Туркистон мухторияти – жадидлар миллий демократик давлатчилик ғояларининг амалдаги ифодаси // Жадидчилик: ислохот, янгилашиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. № 1. – Т.: Университет, 1999. №1 – 218 б.
- 4.5. Дониёров Ш . Мухторият қисмати. // – Т. Шарқ юлдузи, 1991. № 12. – 211 б.
- 4.6. Абдурауф Фитрат Туркистонда руслар / Хуррият, 1918. №63-64. Қайта нашри «Шарқ юлдузи» 1992, №4.
- 4.7. Абдурауф Фитрат Мухторият.// - Хуррият, 1917. 5-декабр. Қайта нашри “Фан ва турмуш” 1990, №10. – 213 б.
- 4.8. Дўстқораев Б. Туркистоннинг идора усули қандай бўлмоғи керак эди? // Жамият ва бошқарув. 1997. №2. – 233 б.
- 4.9. Агзамходжаев С. Две модели государственного переустройства Туркистана: большевистская и национально-демократическая // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар: Даврий тўплам, № 2. – Т. Шарқ, 1999. – 207 б.
- 4.10. Холбоев С. Жадидларнинг мустамлака совет тузуми давридаги фаолияти ва тақдири (1917-1930 йиллар.) // Жадидчилик: ислохот, янгилашиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. № 1. – Т.: Университет, 1999. – 218 б.

4.11. Тиллабоев С. Россия империясининг Фарғона водийсидаги хукмронлигининг мустамлакачилик моҳияти // Ўзбек давлатчилиги тарихида Фарғона водийси. – Фарғона. 2004, – 255 б.

V. Dissertatsiyalar va aftoreferatlar:

5.1. Садиков Х. Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за независимость в начале XX века. Автореф. Дис. Докт. ист. Наук. – Т., 1994. – 56 б.